Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni, ularning xarakter xususiyatlari, xulq-atvori, axloqiy sifatlarining mavjud darajasini chuqur tahlil qilib, bartaraf etiladigan salbiy jihatlarni aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni rejalashtirishdan iborat. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalar turli fan o'qituvchilari, tengdoshlari, ijtimoiy tashkilotlar va nihoyat oilaning doimiy ta'siri ostida bo'ladilar. Shunga ko'ra, sinf rahbarining muhim funksiyalaridan biri o'quvchilarga ta'sir ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy omillarni aniqlashdan iborat. O'smir yoshdagi o'g'il bolalarning ijobiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirish maqsadida ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash oilaviy munosabatlarda gender rollarning to'g'ri shakllanishi va madaniy dunyoqarashlarining boyishini ta'minlashga xizmat qiladi. Sinf rahbari ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgan, noto'liq oilada voyaga yetayotgan o'smirlar, ayniqsa, moda ketidan quvayotgan o'smir yoshdagi qizlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularda oilaviy munosabatlarga nisbatan qadriyatli tajribani shakllantirish chora-tadbirlarni qo'llashdan iborat. Bunda sinf rahbarlari, ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qilishlari maqsadga muvofiq. Agar oiladagi madaniy muhit salbiy xarakterga ega bo'lsa, sinf rahbarlari mahalla faollari bilan hamkorlikda o'smirlarning ota-onalari bilan ham

suhbatlar olib borishlari, ularning oilaviy munosabatlarga nisbatan ijobiy tajribani tarkib toptirish yo'llarini izlab topishlari lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda sinf rahbarlari quyidagi metodlardan: sinf soatlari, xulq-atvorni tuzatish metodi, rag'batlantirish metodi, o'z-o'zini tarbiyalash metodi kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yo'naltirilgan disputlar murakkab xarakterga ega bo'lib, ularni mustaqil izlanishga undash asosida yangi g'oyalar, fikrlarni generasialashga o'rgatadilar. Bunday generasialash natijasida disput vaziyati vujudga keladi. O'smir yoshdagi o'g'il bolalar mazkur tadbirlarda o'z fikrlarini mustaqil bayon qilish bilan bir qatorda amalda o'zlashtirishlari zarur bo'lgan axloqiy me'yorlarni egallashga muvaffaq bo'ladilar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda ularga qo'yiladigan axloqiy talablar ham muhim ahamiyatga ega. O'g'il bolalarning oilaviy munosabat tajribasi, madaniy dunyoqarashi sinf rahbari tomonidan taqdim etilgan yangi bilimlar, xulq-atvor qoidalari, hayotiy xodisalar haqidagi qarashlar yordamida boyib boradi. Sinf rahbarlari hayotiy vaziyatlarni o'quvchilarga anglatishda real voqelik bilan bog'liq hodisalardan foydalanishlari lozim. O'smir yoshdagi o'g'il bolalarda oilaviy munosabatlardagi gender rollarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod doirasida o'smir yoshdagi o'quvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini tarkib toptirish, ularni atrofdagilar bilan tolerant munosabatda bo'lishga o'rgatish, oilaning boshqa a'zolari uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlardan foydalanish tajribasini hosil qilish imkonini beradi. Jamiyatda obro'-e'tibor qozongan shaxslar xulq-atvorini namuna sifatida ko'rsatish, ular amalga oshirgan ibratli ishlar haqida o'smirlarni xabardor qilish, ular xulq-atvoridagi kamchiliklarni korreksiyalashning ta'sirchan metodi hisoblanadi. Zarur bilimlar va madaniy qadriyatlarga ega bo'lgandagina o'quvchilar atrofdagilarning xulq-atvorini munosib baholay oladilar va ularning yaxshi ishlaridan ibrat olib ruxlanadilar. Shu tariqa o'smirlar ongida hayotiy ideal qiyofasi shakllanadi. Atrofdagilarning ibrat namunasi o'smir yoshdagi o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularda madaniy xulq-atvor stereotiplarini shakllanishiga ko'maklashadi. O'g'il bolalar pedagoglarning voqelikka munosabatini sinchkovlik bilan kuzatadilar, ularga turli savollar berib, nuqtai nazarlarini aniqlashga harakat qiladilar. Shu asosda o'qituvchilarni baholaydilar. Ular o'zlarining shaxsiy baholariga asoslangan holda o'qituvchilarga nisbatan o'ta ijobiy, o'rtacha va salbiy munosabatlarini bayon qiladilar. O'g'il bolalarni foydali mehnatga o'rgatish, bunda gender rollarning tabaqalanishiga e'tibor qaratish, oilaviy munosabatlarga tayyorlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'g'il bolalarni ongli mehnatga o'rgatish ularda ijobiy sifatlarni shakllantirish va oilaviy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Mehnatga o'rgatish orqali boqimandalik, meshchanlik kayfiyatiga barham beriladi. O'g'il bolalar ko'proq ijodiy mehnatga intiladilar. Ushbu jarayonda ularda tarixiy madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish zaruriyati vujudga keladi. O'g'il bolalarni mehnat va sport yordamida oilaviy munosabatlarga chidamlilik, toqatlilik ta'sirida tayyorlash mumkin. Chunki an'anaviy mehnat turlari, milliy sport ularning oilaviy madaniy qadriyatlarini o'zlashtirishlarini jadallashtiradi. O'zlikni anglash hissini kuchaytiradi, milliy g'ururni tarkib toptiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda rolli o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu metod yordamida o'g'il bolalarda gender rollar, shaxslararo munosabat madaniyati, ishbilarmonlik sifatlari, o'z-o'zini va oilani boshqarish, ijtimoiy kompetentlik kabilar shakllanadi. O'yin metodi o'g'il bolalarning xulq-atvor me'yorlarini tizimli o'rganishlariga ko'maklashadi, ijodiy faollik ko'rsatishga undaydi. O'yin metodidan foydalanishda unga xos bo'lgan tartib-qoidalarga amal qilish lozim. Agar o'g'il bolalarga o'yinlarning qonun qoidalari tushuntirilmasa, mazkur jarayonda muayyan ziddiyatlar vujudga kelib shaxslararo munosabatlarga putur etadi. O'yin metodi yordamida o'g'il bolalar kattalarga xos bo'lgan hayot tarzi, xatti-harakatlar, oilaviy munosabat uslublarini egallaydilar. Bu esa, ularning jadallik bilan ijtimoiylashuvlarini



ta'minlab, oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarini kengayishiga ko'maklashadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish metodlaridan ham samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash o'g'il bolalarning ijobiy xatti-harakatlarini maqtash orqali amalga oshiriladi. Jazolash metodi esa, o'g'il bolalarning salbiy xatti-harakatini qoralash, uning oqibatlarini tushuntirish, bunday xatti-harakatlardan saqlanish haqida ularni ogohlantirish orqali tadbiiq etiladi. Ushbu jarayonda pedagoglar o'g'il bolalarning xulq-atvorida salbiy xulq-atvorni o'zlashtirganliklarini anglagan holda uning oqibatlaridan ogohlantirish va saqlash ishlarini amalga oshirishlari lozim. Pedagoglar o'g'il bolalar xulq-atvoridagi salbiy stereotiplarga barham berish uchun jazolash, qo'shimcha majburiyat yuklash, cheklovlar qo'yish kabi chora-tadbirlarni qo'llashlari mumkin. O'g'il bolalarda o'z xulq-atvorini muntazam tahlil qilish, xatti-harakatlarining mohiyatini anglash, o'z jinsiga xos bo'lgan rollarni o'zlashtirish imkonini beradi. Rag'batlantirish natijasida ularda ijobiy motivlar, o'z oldiga maqsad qo'yish, ijodiy faollik ko'rsatish sifatleri shakllanadi. Tarbiyalovchi vaziyatlar yaratish metodi ham o'g'il bolalarda oilaviy munosabatlar tajribasini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu metod o'zida ko'plab faoliyat usullarini mujassamlashtiradi. Sinf rahbarlari tarbiyaviy jarayonlarda mazkur metoddan unumli foydalana olishlari kerak. Ushbu metod o'g'il bolalarda axloqiy tanlovni amalga oshirish imkonini beradi. Ularning oilaviy munosabatlarga oid dunyoqarashini shakllanishiga ko'maklashadi, ijtimoiylashishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Vaziyat orqali o'g'il bolalar uchun muayyan muammo vujudga keltirilishi bilan birga, uni mustaqil echishga yo'naltirilgan sharoit ham yaratiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda muhim o'rin egallaydi. Bunda ular o'qiydigan badiiy asarlarning qahramonlaridan o'mak olgan holda o'z xatti-harakatlarini tartibga soladilar. Ideal tanlaydilar va muayyan maqsad sari intiladilar.

**Xulosa.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda yuqorida sanab o'tilgan metodlardan foydalanish ko'tilgan natijalarni berishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Нишонов С. Шарқ уйғониш даври педагогик фикр тараққиётида баркамол инсон тарбияси: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т., 1998. - 288 б.
2. Pedagogika ensiklopediya. I jild / Tuzuvchilar: jamoa. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. - 320 b.
3. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. - T.: O'qituvchi, 1997. - 93 b.
4. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. - T.: O'zbekiston, 1997. - 354 b.
5. Xayrullayev M. O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida // Xalq pedagogikasi - inson kamolotining asosi. - 1-kitob. - T.: O'zPFITI, 1992. - 110 b.
6. Fitrat Abdurauf. Oila. - T.: Ma'naviyat, 1998. - 112 b.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: O'qituvchi, 1992. - 160 b.
8. Tuychieva I., Aripov S., Madaminova D., Mustaev R. (2021). The pedagogical system of preparing boys for family relationships in general secondary schools: 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).

---

## PEDAGOGIK FAOLIYATLARDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOSLIGI

*Husanov Farrux Oltinboyevich, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsent v.b.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogik faoliyatlarda yuqori natijaga erishish yo'llari, pedagog olimlarning ta'lim texnologiyalariga yondashuvlari, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda o'quv tarbiya jarayoniga ta'lim texnologiyalarni tadbiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** *pedagogik faoliyat, texnologiya, ta'lim texnologiyasi, shaxs, jarayon, protsedura, operatsiya, analitik, refleksiv, konstruktiv, progmatik.*

## ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Хусанов Фаррух Олтинбоевич, и.о.доцента Самаркандского института экономики и сервиса*

**Аннотация.** В этой статье описаны пути достижения высоких результатов в педагогической деятельности, подходы ученых-педагогов к образовательным технологиям, использование передовых педагогических технологий, особенности применения образовательных технологий в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** *педагогическая деятельность, технология, образовательная технология, человек, процесс, процедура, операция, аналитический, рефлексивный, конструктивный, прагматический.*

## FEATURES OF USING EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN PEDAGOGICAL ACTIVITIES

*Husanov Farrukh Oltinboyevich, acting associate professor of Samarkand institute of economics and service*

**Abstract.** This article describes ways to achieve high results in teaching activities, approaches of academic teachers to educational technologies, the use of advanced pedagogical technologies, and features of the use of educational technologies in the educational.

**Key words:** *Pedagogical activity, technology, educational technology, person, process, procedure, operation, analytical, reflective, constructive, pragmatic, process.*

**Kirish.** Pedagogik faoliyatning insonparvarlikka yo'naltirilganligi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining asosidir. Ushbu jarayonda har bir tarbiyalanuvchi shaxs sifatida shakllanib, rivojlanib boradi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida o'quvchi yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosiy prinsip sifatida belgilanishi bugungi kunda o'zbek ta'lim-tarbiya jarayoniga yanada katta e'tibor berilayotganining dalolatidir. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ko'zlangan maqsadlarga erishishda muhim vositalardan biri bu pedagogik jarayonga ta'lim texnologiyalarni tadbiq etishdir. Pedagogik faoliyatlarda yuqori natijaga erishishning muhim yo'llaridan biri, mahalliy hamda xalqaro tajribada tasdiqlangan rivojlanayotgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'lib, ularning paydo bo'lishi va amaliy qo'llanilishining motivatsion sabablari zamonaviy sharoitda: maktabning barcha bosqichlarida o'qitish

usullarini tizimlashtirish; barcha bosqichlarida talabalarga yo'naltirilgan kadrlar tayyorlashga o'tish va bilim va ko'nikmalarni uzatish samaradorligini oshirish; oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlashning rejalashtirilgan natijalariga erishishni ta'minlashi lozim bo'lgan «o'qituvchi-talaba» o'zaro hamkorligining shakli va usullarini ishlab chiqishdir. Pedagogik texnologiyalarning ommaviy joriy etilishi 60-yillarda AQSh va G'arbiy Evropada sodir bo'ldi. Bu jarayon D.Kerroll, B.Bloom, D.Bruner, D.Hamblin, G.Geis va boshqalarning nomlari bilan bog'liq.

**Asosiy qism.** Ta'limga texnologik yondashuvlarning rivojlanishi P.Ya.Galperina, N.F.Talyzina, N.E.Shchurkova, P.M.Erdnieva va boshqalarning asarlarida ham o'z aksini topdi. Turli yondashuvlarni tahlil qilib, ko'p hollarda «texnologiya» tushunchasining mohiyati protsedura va operatsiya tushunchalari bilan bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin. Protседura odatda butun jarayon yoki uning alohida bosqichi amalga oshiriladigan harakatlar majmui sifatida tushuniladi.

Operatsiya deganda, ma'lum bir protsedura doirasida muayyan muammoni to'g'ridan-to'g'ri amaliy hal qilish tushuniladi. Ba'zan pedagogik texnologiyalar o'quvchilar shaxsini shakllantirish jarayonining tavsifi sifatida tushuniladi. Pedagogik faoliyatning ilmiy asoslangan tarkibiy qismlarining tizimi va ketma-ketligi qo'yilgan vazifalarni hal qilishda optimal natijalarga erishishga qaratilgan [1]. Ko'pgina tadqiqotchilar ta'lim texnologiyalarining asosiy xususiyatlari sifatida tizimlilik, ilmiylik, kontseptuallik, integrativlik, o'qitishning samaradorligi va sifati, yangilik, axborot, boshqa sharoitlarda tarqatish kabi imkoniyatlarni ta'kidlaydilar.

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim jarayonining o'zgaruvchan sharoitlarida tashxis qo'yiladigan va bashorat qilinadigan natijani olishni instrumental ravishda ta'minlaydigan tartiblangan harakatlar majmuidir. Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligining o'ziga xos xususiyati nafaqat malakaviy xususiyatlarni, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini ham hisobga olgan holda o'quv amaliyotini o'tkazish bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarini shakllantirish zarurati hisoblanadi. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik standart talablarga muvofiq ta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlar mazmuni orqali ta'minlanadi. Pedagogik faoliyatdagi ta'lim texnologiyalari bo'lajak mutaxassis shaxsini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Bu jarayon o'quvchilarning ham, o'qituvchilarning ham birgalikdagi faoliyati natijasidagina namoyon bo'lib, o'quvchilarning yuqori samarali ta'lim faoliyatini tashkil etish va o'qituvchilarning boshqaruv faoliyatiga asoslanadi. Bunday o'zaro ta'sirning mantig'i V.A.Slastenin, I.D.Bagaeva, Yu.N.Kulyutkin, I.S.Yakimanskaya va boshqalarning asarlarida keltirilgan. So'nggi yillarda ayrim pedagogika oliy o'quv yurtlarida «ochiq ta'lim tizimlari texnologiyasi» muvaffaqiyatli ishlab chiqildi va joriy etildi, bu ta'lim jarayoni va pedagogik faoliyatni tashkil etishda samarali deb hisoblash mumkin.

Ochiq tizimlar o'quv jarayonini shunday tashkil etishni ta'minlaydi, bu talabalarni individual dasturlar bo'yicha tayyorlashga imkon beradi, bu ularga o'quv jarayonining yuqori darajasini, shuningdek, o'quv mazmunini mos ravishda tanlash bilan ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatlarga axborot va kompyuter texnologiyalarini joriy etish yagona axborot makonini yaratish maqsadini ko'zlaydi, buning natijasida auditoriya mashg'ulotlariga ajratiladigan vaqtni qisqartirish mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchining asosiy vazifasi talabalarga ta'lim jarayonining konseptual tarkibiy qismini berishdir. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishga o'tish kontseptual apparatni ma'lum bir modernizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan o'quv fanlari uchun axborot va kompyuter

yordamini ishlab chiqish zarurligiga olib keladi. Zamonaviy oliy pedagogika maktabi faqat axborot texnologiyalarini rivojlantirish va ulardan foydalanishning boshida turibdi. Shu bilan birga, o'qituvchilar ta'limi mazmunini chuqur psixologik-pedagogik tahlil qilish bilan bog'liq ishlar, talabalar va o'qituvchilarni axborot va kompyuter muhitiga integratsiya qilish zarurligini hisobga olgan holda, alohida ahamiyatga ega. Bu boradagi muayyan muvaffaqiyat va yutuqlar allaqachon Ya.N.Vagramenko, V.I.Ovsyannikova, V.G.Kurova, V.V.Kudinova, V.I.Zagvyazinskiy, Yu.I.Shcherbakova va boshqalar tomonidan o'rganib chiqilgan.

O'quv jarayonining ishtirokchilari o'quvchi va o'qituvchidir. Binobarin, ma'lum bir ta'lim texnologiyasining samaradorligi undan foydalanadigan shaxsning o'mi, uning qiziqishlari, xususiyatlarini, moyilliklari, bu faqat uning shaxsiyatiga yo'naltirilgan xarakterini ta'kidlaydi. Pedagogning bunday muammolari hal etishdagi ijodiy faoliyati, agar o'qituvchi yuksak kasbiy pedagogik madaniyat tashuvchisi bo'lsagina mumkin bo'ladi. Ko'pgina tadqiqotchilar: I.F.Isaev, R.M.Asadulin, A.I.Mishchenko, L.S.Podimova, A.N.Xodusov, E.I.Shiyanov va boshqalar oliy maktab o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik madaniyatini shakllantirish haqida gapirar ekan, bu jarayon shaxsning takomillashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish dinamikasini aks ettiradi, uning ijodiy individualligining o'zagi samarali o'zini o'zi anglashdir [2].

O'quvchilarga yo'naltirilgan texnologiyalarni loyihalashda va ularni qo'llashda quyidagi tamoyillarga asoslanish kerak: bo'lajak mutaxassis o'qituvchining umumiy madaniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, kasbiy va shaxsiy rivojlanishining birligi; ochiqlik, o'zgaruvchanlik, o'qituvchilar malakasini oshirish mazmuni va shakllarining bugungi kun talablari va kelajak uchun prognozlariga muvofiq dinamik o'zgarishi; tayyorlashning yaxlitligi, metodologiya, nazariya va amaliyotning birligi; ta'lim xizmatlari bozori va talabalarning o'ziga bo'lgan talablarni hisobga olgan holda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimining moslashuvchanligi; o'qituvchining innovatsion faoliyati modellarini o'quv jarayoniga joriy etishga yo'naltirish.

Ta'lim jarayonida o'quv amaliyotini tashkil etish va o'tkazish jarayonida kerakli natijaga erishishni ta'minlaydigan tartibli harakatlar, operatsiyalar va tartiblar majmuasidir. Pedagogika oliy o'quv yurtlari tajribasida hozirgi vaqtda talabalarga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining har xil turlari qo'llaniladi. Ular orasida quyidagilar mavjud: integrativ-modul, kasbiy o'zini o'zi anglash texnologiyalari, subyektivlikni rivojlantirish texnologiyalari, refleksiv-boshqaruv texnologiyalari, o'qituvchining ijodiy faoliyat uslubini rivojlantirish texnologiyalari va boshqalar.

Yuqoridagi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning ta'sir mexanizmini yaxshiroq tushunish uchun ularning qiyosiy tahliliy yondashuvlar quyidagicha keltirilgan. O'quv jarayonining amaliy qismi va talabalarning o'zlari tomonidan muammolarni mustaqil ravishda shakllantirish va hal qilish. Ko'pgina universitetlar turli xil texnologiyalardan foydalanadilar, ular orasida, qoida tariqasida, aks ettiruvchi texnologiyalar, shu jumladan, «integrativ modulli» texnologiyalar faol qo'llaniladi. Ushbu texnologiyalarning nomi uning mazmuni va mohiyatini to'liq ifodalaydi. Integratsiya bu yerda turli qismlar va elementlarni bir butunga birlashtirib, rivojlanish jarayonining muhim jihati sifatida qaraladi. Bundan tashqari, integratsiya jarayonlari allaqachon tashkil etilgan tizimlarga ham, yangi paydo bo'lganlarga ham xosdir. Pedagogik integratsiya o'quv jarayonining nazariy va amaliy qismlarini tashkil etishning maqsadlari, tamoyillari, mazmuni va shakllarining birligini, uning turli tarkibiy qismlarining o'zaro aloqasi asosida yaxlit pedagogik birliklar yaratishni aks ettiradi. Bu holda o'quv modulini o'quv kursining umumiy mavzusiga bo'ysunadigan

turli xil turlari va shakllari to'plami sifatida ko'rib chiqish mumkin va maqsadga erishishni ta'minlaydigan maqsadli harakatlar dasturi va uslubiy rahbarlikni birlashtiradigan to'liq ma'lumotlar blokidir. Shunday qilib, ushbu modulni shaxsiy-faoliyat moduli deb hisoblash mumkin, uning maqsadi kasbiy mahorat va shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishdir.

Integrativ-modulli turdagi pedagogik texnologiyaning afzalligi fanlararo aloqalarni amalga oshirish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, talabani o'zi ushbu jarayonda faol ishtirok etish, o'z-o'zini tashxislash, o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatidir. Albatta, bu o'z-o'zini rivojlantirish uchun kuchli rag'batdir. Bundan tashqari, integrativ-modulli texnologiya o'quv amaliyoti davomida kasbiy va nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ya'ni professionallikni shakllantirishga imkon beradi. Demak, integrativ-modulli texnologiya pedagogik faoliyatning maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, tashkil etish shakllarining birligini ifodalaydi.

Nazariy va amaliy fanlarning turli modullarini birlashtiruvchi, ularni bir-birlari bilan bog'laydigan va kengaytiruvchi, mazmunli ravishda quyidagi modullarni o'z ichiga oladi: talabani kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, uning bilim va ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan kasbiy diagnostika; ekspert baholash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash va keyinchalik o'z-o'zini tuzatish imkoniyatini o'z ichiga oladi; kasbiy va amaliy, ijtimoiy ish usullari va texnologiyasini, boshqaruv asoslarini egallashga ko'maklashish; shu jumladan, maxsus kurslar, maxsus seminarlar, treninglar, rolli o'yinlar, biznes, simulyatsiya o'yinlari va boshqalar; kasbiy va prognostik, uning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi boshqarish istagi, o'zini o'zi boshqarish, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun o'zini o'zi harakat qilish uchun motivatsion va qadriyat yo'nalishi.

Integrativ-modulli texnologiyalardan foydalanish tahlili shuni ko'rsatadiki, undan foydalanish ijtimoiy o'qituvchilarni, ijtimoiy xodimlarni tayyorlashda, maxsus kurslar, maxsus seminarlar va maxsus seminarlar tizimida eng ko'p oqlanadi. Masalan, «Ijtimoiy o'qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi» maxsus seminari – haqiqiy faoliyatga professional va shaxsiy «kirish», unga funksional-rol tayyorligini rivojlantirish, kasbiy va qadriyat yo'nalishlari, motivatsiyalar, fazilatlar va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish va moslashtirishni namoyish etdi. Bu seminar ishlashga, faoliyat muvaffaqiyatiga, kasbiy ong va o'z-o'zini anglashni shakllantirishga hissa qo'shadi [3]. Talabalar ijtimoiy o'qituvchining malakasi va kasbiyligi, faoliyatga kasbiy va shaxsiy moslashuvi va boshqalar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Integratsion-modulli texnologiyalarda qo'llaniladigan o'quv muammoli vaziyatlar va simulyatsiya holatlari pedagogik faoliyatning ayrim tomonlarini modellashtirishga imkon beradi va amaliy faoliyatda o'quvchining o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi qadrlash va o'z-o'zini tuzatish jarayonlarini faollashtirishga imkon beradi. Ishbilarmonlik, rolli o'yinlar va simulyatsiya o'yinlari davomida shaxsiy rivojlanish texnologiyalarining elementlaridan biri sifatida turli nuqtai nazarlar ko'rib chiqiladi va taqqoslanadi, turli vaziyatlarda xatti-harakatlarning mumkin bo'lgan variantlari baholanadi. O'qituvchining shaxsiy tayyorgarligining ushbu muammolari E.M.Borisovning fikriga ko'ra, amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda va turli xil o'yinlar paytida o'quv amaliyotini tashkil qilishda bir qator psixologik shartlarga rioya qilish kerak, bunda o'qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak [4]: o'yinni loyihalash va o'ynash – o'qituvchi va talabani o'zaro ta'siri bo'lgan ijodiy jarayon; har bir o'yin muammoga yo'naltirilgan bo'lishi kerak; sinfda dialogga ustunlik berish kerak, ya'ni erkin nutq aloqasi: talaba-o'qituvchi, talaba-talaba; kasbiy faoliyat mazmunini model-

lashtirish imkoniyati, roli o'yin harakatlariga taqlid qilishdan – o'quv amaliyoti tashkil etiladigan maktab, bolalar bog'chasi va boshqa ta'lim muassasasining haqiqiy hayotiga o'tish imkoniyati.

Integral-modulli texnologiya nafaqat kasbiy kompetentsiyani egallashga va o'qituvchilik faoliyatiga funksional tayyorgarlikka erishishga imkon beradi, balki kelajakdagi o'qituvchining umumiy madaniyatini shakllantiradi, uning keyingi kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugungi kunda o'qituvchilar ta'limining innovatsion turiga e'tibor tobora kengayib bormoqda.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, pedagogik faoliyatlarda o'quvchi va o'qituvchilarning subyekt-subyekt o'zaro munosabatlarini belgilovchi dialogik yondashuvga asoslangan holda o'quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlarni ta'lim texnologiyalar asosida taqdim qilish zarurligi ayon bo'ladi. O'quvchilarga o'quv materiallarini ilg'or pedagogik ta'lim texnologiyalari orqali tadbqiq qilish natijasida ularda kreativlik, o'quv materiallariga nisbatan mustaqil yondashish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Shuning bilan birgalikda o'quvchilarga yo'naltirilgan bilimlarni texnologiyalar yordamida tadbqiq qilish pedagogik faoliyatning samaradorligiga erishishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Смирнов С.Д. Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности. - М., 1995. - 272 с.
2. Исаев И.Ф. Теория и практика формирования профессиональнопедагогической культуры преподавателя вуза. - Белгород, 2020.
3. Шиянов Е.Н. Теоретические основы гуманизации педагогического образования: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - М., 1991.
4. Борисова Е.М. Профессиональное самоопределение: личностный аспект: Автореф. дис. ... д-ра психол. наук. - М., 1995.

## ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Ким Ирина Николаевна, и.о. доцента ТГПУ, PhD*

**Аннотация.** В статье рассмотрены проблемы и возможности применения цифровых технологий в дошкольном образовании.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, инновационные методы, цифровые инструменты.

## MAKTABGACHA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

*Kim Irina Nikolayevna, TDPU dotsenti v.b., PhD*

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari va imkoniyatlari muhokama qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** raqamli texnologiyalar, innovatsion usullar, raqamli vositalar.

## OPPORTUNITIES AND PROBLEMS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION

*Kim Irina Nikolaevna, acting associate professor of TSPU, PhD*

**Abstract.** The article discusses the problems and possibilities of using digital technologies in preschool education.

**Key words:** digital technologies, innovative methods, digital tools.

**Введение.** В настоящее время цифровые технологии и инструменты занимают все более значительное место в образовании. Они предоставляют уникальные возможности для улучшения процесса обучения, предлагая интерактивные и инновационные методы, которые могут быть использованы во многих областях образования, включая дошкольное образование.

**Основная часть.** Введение цифровых технологий в дошкольное образование может быть связано с некоторыми проблемами и вызовами. Однако, если эти проблемы могут быть преодолены, то цифровые инструменты и технологии могут дать детям новые возможности для обучения и развития.

Одним из видов цифровых технологий, широко применяемых в дошкольных учреждениях, являются интерактивные доски. Они предоставляют возможность визуализации и интерактивного обучения, позволяя детям активно взаимодействовать с предметной областью. Интерактивные доски могут использоваться для изучения букв, цифр, форм, цветов, а также для развития мелкой моторики, зрительного восприятия и усвоения понятий.

Другим полезным видом цифровых технологий являются образовательные приложения для планшетов и смартфонов. Эти приложения могут предоставлять интерактивные игры, задания и упражнения, направленные на развитие различных навыков и умений у детей. Например, они могут помочь в изучении алфавита, математических операций, развитии логического мышления и творческих способностей. Образовательные приложения также могут быть адаптированы для индивидуального обучения, учитывая потребности каждого ребенка [3].

Следующим важным видом цифровых технологий в дошкольном образовании являются интерактивные игрушки или роботы. Они могут помочь детям развить базовые навыки, такие, как управление движением, решение проблем и коммуникация.

Интерактивные игрушки и роботы способствуют развитию фантазии, творчества и усидчивости у малышей, а также могут быть использованы как инструменты для обучения и развития специфических навыков.

Одной из основных проблем использования цифровых технологий в дошкольном образовании является доступность и высокая стоимость таких инструментов. Не все дошкольные учреждения и семьи могут себе позволить приобрести или обеспечить доступ к компьютерам, планшетам или другим электронным устройствам. Это может создать неравенство в возможностях обучения детей [1].

Еще одной проблемой может быть отсутствие обученных учителей, способных эффективно использовать цифровые инструменты и технологии в своей работе. Без должной подготовки и обучения, педагоги могут не использовать возможности этих инструментов полностью или даже использовать неправильно.

Кроме того, использование цифровых технологий и инструментов может вызывать опасения в отношении безопасности и конфиденциальности информации. Многие родители и педагоги опасаются, что дети могут стать жертвами кибербуллинга или потенциально вредного контента. Это требует внимательности и контроля со стороны родителей и педагогов.

Однако, несмотря на эти проблемы, использование цифровых технологий и инструментов в дошкольном образовании также предлагает множество возможностей. Они позволяют детям учиться более эффективно и интерактивно развивать навыки, которые могут быть сложно развить через традиционные методы обучения.

Цифровые инструменты и технологии способствуют развитию креативности, мышления, коммуникации и коллаборации у детей. Они предлагают возможности для участия в интерактивных играх, экспериментах и виртуальных путешествиях, что обогащает процесс обучения и делает его более привлекательным для детей.

Кроме того, использование цифровых технологий поддерживает индивидуализацию обучения, позволяя детям учиться в своем собственном темпе и наиболее эффективным способом. Это, особенно, важно в дошкольном образовании, где каждый ребенок имеет свои особенности и уровень развития.

Вывод. В заключение хочется подчеркнуть, что использование цифровых технологий и инструментов в дошкольном образовании предлагает как проблемы, так и возможности. Правильное использование и интеграция этих инструментов требует решения проблем доступности, обучения педагогов и обеспечения безопасности. Однако, когда эти проблемы решены, цифровые технологии и инструменты могут значительно улучшить процесс обучения и развития детей в дошкольном возрасте.

#### Литература:

1. Гуревич П.С. Цифровизация образования в дошкольном учреждении: проблемы и перспективы // Вестник науки и образования. - М., 2018. - № 4 (56). - С. 12-16.
2. Дмитриева Е.В., Юрова И.В. Использование цифровых технологий в дошкольном образовании: опыт и проблемы // Педагогическое образование в России. - М., 2015. - № 12. - С. 122-129.
3. Казакова Е.Б., Круглова Н.С. Цифровые технологии в дошкольном образовании: современное состояние и перспективы // Современные проблемы науки и образования. - М., 2019. - № 1. - С. 98-104.
4. Лаптиев С.В., Бурлакова Н.А. Использование цифровых технологий в дошкольном образовании: преимущества и недостатки // Концепт. - М., 2016. - Т. 38. - С. 653-657.



---

## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQIY TEATR FAOLIYATLARINING ROLI

**Nurmatova Iroda Toxtasinovna**, *TDPU dotsent v.b.,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bilan musiqiy teatr faoliyatlarni tashkil etish maktabgacha pedagogikaning dolzarb muommolaridan biri hisoblanadi. Musiqiy teatr faoliyatlari jarayonida bolaning ijodiy shaxsi va uning faolligi har tomonlama rivojlanadi. Ushbu maqolada musiqiy teatr faoliyatlarini tashkil etish orqali bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish haqida fikr mulohaza yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, usul, vosita, teatr, spektakl, integratsiya, improvizatsiya, drammatizatsiya.

## РОЛЬ МУЗЫКАЛЬНО-ТЕАТРАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Нурматова Ирода Тохтасиновна**, *и.о.доцента ТГПУ, доктор философии по  
педагогическим наукам (PhD)*

**Аннотация.** Организация музыкально-театральной деятельности с воспитанниками дошкольных образовательных организаций является одной из актуальных проблем дошкольной педагогики. В процессе музыкально-театральной деятельности всесторонне развивается творческая личность ребенка, его активность. В данной статье рассматривается формирование творческой активности детей через организацию музыкально-театральной деятельности.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, педагог, метод, театр, постановка, интеграция, импровизация, инсценировка.

## THE ROLE OF MUSICAL AND THEATRICAL ACTIVITIES IN THE FORMATION OF CREATIVE ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN

**Nurmatova Iroda Tokhtasinovna**, *acting associate professor of TSPU, PhD*

**Abstract.** The organization of musical and theatrical activities with pupils of preschool educational organizations is one of the pressing problems of preschool pedagogy. In the process of musical and theatrical activities, the child's creative personality and activity develop comprehensively. This article examines the formation of children's creative activity through the organization of musical and theatrical activities.

**Key words:** preschool education, teacher, method, theater, production, integration, improvisation, staging.

**Kirish.** Bugungi maktabgacha yoshdagi bolalar, ertangi jamiyatimizning a'zolari bo'lib, ulardan zukkolik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, qat'iyat kabi fazilatlariga ega bolishlik talab etiladi. Inson hayotining dastlabki etti yilini o'z ichiga olgan maktabgacha yosh davr bola hayotida juda ahamiyatli bo'lib, aynan shu yillarda bolada asosiy ijodiy qobiliyat shakllanadi, uning shaxsiyatiga asos solinadi.

**Asosiy qism.** Respublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limini birlamchi muhim bo'g'ini sifatida belgilash, tarbiyalanuvchilarning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga ijtimoiy moslashishi, voqea-hodisalarni mustaqil ravishda tahlil

etishi va mustaqil harakat qilishi, san'at turlariga qobiliyatini rivojlantirish hamda jismonan va ma'nan yetuk shaxs etib tarbiyalash, «ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish» ustuvor vazifa qilib belgilandi. Natijada, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni musiqali sahnalashtirish asosida ijodiy faolligini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» [1], 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-son «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori kabi rasmiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida o'rin egallamoqda.

Bolani ijodkor va faol shaxs qilib tarbiyalash bolalar pedagogikasi va psixologiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Bolalarda ijodiy faollik maktabgacha yoshdagi bolalikdan boshlanishi kerak, chunki ijodiy faol bo'lish qobiliyati insonning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u nafaqat voqelikdan foydalanishga, balki uni o'zgartirishga ham qodir bo'ladi. «Ijodkorlik» tushunchasi turli ilmiy manbalarda mazmun va mohiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi ko'plab ta'riflarni topish mumkin. Ijodiy faollik – shaxsning muhim mezon, uning yaxlit tarzda rivojlanishining omili. Zamonaviy jamiyatga o'zini faoliyatning har xil turlarida namoyon etuvchi ijodiy faol shaxslar kerak. Ijodiy fikrlaydigan shaxs o'ziga qo'yilgan vazifalarni tezroq va tejamkorlik bilan hal qila oladi, qiyinchiliklarni samaraliroq yengib o'tadi, o'z oldiga yangi maqsadlar qo'ya oladi, o'zini tanlash va harakat qilish erkinligi bilan ta'minlaydi, ya'ni tashkilotchilikka ega bo'ladi, shuningdek, jamiyat tomonidan o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal etishda eng samarali usullarni tanlay oladi. Barkamol insonni shakllantirishning zarur shartlari, uning madaniyati, intellektual erkinligi, yuksak axloqiy salohiyati, estetik didi, shaxslararo, millatlararo va ijtimoiy muloqotdagi bag'rikengligi tushuniladi.

Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi. Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, faollik – lotin so'zida «astus» – harakat, «activus» – faol ma'nosini anglatadi. Ijodiy faollik – bu insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiy holati – ilhomlanishi, shuningdek, ruhiy kechinmasi, muammoni jon-jahdi bilan hal etish istaklari majmuasi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi. Psixologiya va pedagogika nuqtayi nazaridan, keng ma'noda ijodkorlik – bu amaliy yoki nazariy faoliyatdir, unda (hech bo'lmaganda faoliyat subyekti uchun) yangi natijalar (harakat usullari, qarorlar, bilim) paydo bo'ladi. Tor ma'noda esa, ijodkorlik – bu ilgari mavjud bo'lmagan va ijtimoiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yangiliklar yaratishga qaratilgan inson faoliyati [2]. «Faollik» tushunchasi «ijodiy faoliyat» turkumiga qaraganda, mazmun jihatdan kengroqdir. Ijodiy faollikni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, fanda bu tushunchaning yagona ta'rifi mavjud emas.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligi deganda, ularning aqliy faoliyatini faollashtirish, uni maqsadga erishish, faoliyat mahsulini yaratishga yo'naltirish qobiliyati tushuniladi. Ijodiy faollik faoliyatda namoyon bo'ladi. Ijodiy faollik fikrlashning mustaqilligi, mulohaza yuritish kengligi, shaxsning haqiqiy qadriyatlarini izlash bilan tavsiflanadi. Sifatlar: yuqori kognitiv salohiyat, qiziquvchanlik, qiziqishlar xilma-xilligi, intellektuallik. Ijodiy faollik – bu mehnatning sifat va miqdoriy natijalarini oshirishga yordam beradigan faoliyat. Ijodiy

faol shaxs atrof-muhitga to'liq moslasha oladi, ijodiy faol inson doimo kelajakka e'tibor qaratadi. Musiqa va teatr faoliyatining o'zaro ta'siri ijodiy faollikning shakllanishi uchun eng qulay shart-sharoitlardan biridir. Tadqiqotchilar ushlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy va teatr faoliyatlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish shartlari muammosi ishlab chiqilgan, shuningdek, musiqiy teatr faoliyatida ijodiy faollikni shakllantirishning eng muhim shartlari aniqlangan. L.S.Vigotskiy «Ijodiy faoliyat»ni: «yangi irod yaratadigan inson faoliyati... bolalar ijodiyotining eng keng tarqalgan turlaridan biri – teatr faoliyatidir. U o'yin bilan bog'liqligi sababli bolaga yaqin va tushunarlidir», deb ta'riflaydi [3]. Musiqiy teatr faoliyati – maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari, fantaziyalari, his-tuyg'ulari, tasavvurlari, xotiralari, shuningdek, ko'plab ko'nikmalar va qobiliyatlarni, kommunikativ, nutqqa oid rivojlantirishlarga qaratilgan faoliyat bo'lib, teatr san'ati bolaning hissiy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatadi, nutq va harakatlarning plastikasini yaxshilaydi, uning e'tiborini rivojlantiradi. Musiqiy teatr faoliyatlarida bolaning ijodiy faolligi, qobiliyati va qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi; qiziquvchanlik, yangiliklarni o'rganish istagi, assotsiativ fikrlash rivojlantiriladi; umumiy rivojlanish; maqsadlilik, umumiy aql-zakovat, qat'iyatlilik, rollarni o'ynashda hissiyotlar namoyon bo'ladi. Bolalarda sezgi, obrazlarni yaratish, zukkolik va improvizatsiya qobiliyati rivojlanadi. A.E.Dmitriyevning fikriga ko'ra, bola, ayniqsa, ijodiy ish bilan band bo'lsa, unga o'ziga xos yangiliklarni olib kiradi. Ijodiy faollik ko'rsatkichlari sifatida mustaqillik va ijodkorlik o'zaro juda bog'liq [7, 23-b.]. Uning ta'kidlashicha, ijodiy faollik boy, ko'p qirrali tajriba va qobiliyatlarga ega bo'lgan insonlarga xosdir.

Bolalarning tomoshabinlar oldida sahnada chiqishlari ularda o'ziga bo'lgan ishonchning ortishiga yordam beradi. Bolaning doimiy ravishda zimmasidagi ijrochi va tomoshabin funksiyalarining almashinuvi, unda mahorat, bilim, tasavvurlari shakllantiradi. V.G.Petrova teatr faoliyati hayot taassurotlarini hayotga tatbiq etish shakli bo'lib, bolalar tabiatiga yaqin va barcha bolalar ijodiyotining ildizi va ijodkorligining ko'plab turlarini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Demak, musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlar murakkab tizim bo'lib, unda ijodkorlik va faoliyat jihatlari namoyon bo'ladi: adabiy sujetlarni talqin qilish, ularni qayta anglash; badiiy obrazni yaratishda turli ifoda vositalari: mimika, intonatsiya, harakat, pantomima, ohanglardan foydalana olish; spektakl bezaklarida - liboslar, dekoratsiyalar, musiqa, dasturlar, afishalar tanlash, ishlab chiqish. Bolada ijodkorlik va ijodiy tashabbuskorlik qobiliyati kuylash, rasm chizish, aktyorlik, raqsga tushish kabi mashg'ulotlarda kattalarga taqlid qilganda, keyinchalik esa, o'zlashtirilgan tajribani kundalik hayotida qo'llaganda paydo bo'ladi [4, 128-b.].

Musiqiy teatr faoliyatida ijodkorlikka intilish to'liq namoyon bo'ladi. Musiqiy teatr faoliyatlaridagi dramatisatsiya o'yin bilan bevosita bog'liqdir, shuning uchun u turli ijodkorlik elementlarini o'z ichiga oladi [5]. N.E.Veraksaning fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy fikrlashini o'rganib, quyidagilarni ta'kidlaydi: bolani muammoli vaziyatga qo'yish fikrlashning rivojlanishiga kafolat bermaydi; birlashish va vositachilik harakatlari ijodkorlik, o'zgartirish qobiliyatining asosini tashkil qiladi [6]. Har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlari ijodiy faoliyatda to'liq namoyon bo'ladi va rivojlanadi, ulardan biri bolalar bog'chasida musiqiy teatrlashtirilgan tomoshadir. Bolalarni san'at bilan o'ziga rom etish, go'zallikni anglashga o'rgatish musiqa rahbarining asosiy vazifasidir. Musiqiy teatr faoliyati bolalarni yangilikni idrok eta oladigan va improvizatsiya qilish qobiliyatiga ega ijodiy shaxs bo'lishga o'rgatadi.

Musiqiy teatr faoliyatining asosiy maqsadi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish manbai bo'lib, quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: har bir bola qalbida go'zallik tuyg'usini uyg'otish va musiqiy teatr san'atga qiziqishini kuchaytirish; bolalarda eshitish qobiliyatini, xotirani, kuzatuvchanlikni, topqirlikni, fantaziyani, tasavvurni rivojlantirish; bolalarning musiqiy qobiliyatlarini va teatr madaniyatini rivojlantirish; bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish; kattalar va bolalar bilan muloqot qilish qobiliyati, nutqiy muloqot qoidalariga asoslanib,

ertakni sahnalashtirish jarayonida rolli dialoglarni qurish qobiliyatini rag'batlantirish; bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun sharoit yaratish; bolalarning so'z boyligini to'ldirish va faollashtirish, bolalarni asosiy teatr atamalari bilan tanishtirish; bolalarni musiqiy teatr faoliyatida o'zini namoyon qilishga o'rgatish; bolalarning drammatizatsiya o'yiniga qiziqishini shakllantirish, teatr, o'yin va musiqa faoliyati orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ fazilatlarini rivojlantirishga ko'maklashish. Bolalar va kattalar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga yordam berish.

**Xulosa.** Musiqiy teatr faoliyati – bu bolalar ijodiyotining eng keng tarqalgan turi va bolalar bog'chasidagi o'yin-kulgi shakli bo'lib, u bolalarning musiqiy va ijodiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu faoliyatda bolalar odamlar, hayvonlar, o'simliklar hayotidagi turli hodisalarning ishtirokchisiga aylanadilar, yaxshi va yomon ishlarni ko'rishni o'rganadilar, qiziquvchan bo'lishadi, o'z fikrlarini aniq shakllantirish va ifodalashni o'rganadi. Musiqiy va teatr faoliyati bola uchun haqiqiy bayram. Musiqi harakatdagi qahramonlarning xarakterini etkazishga yordam beradi, qahramonlar qo'shiq aytadi va raqsga tushadi. Musiqiy taassurotlar, ijodiy faollik, qat'iyat uyg'onadi, musiqaga hissiy munosabat, uyg'unlik hissi, musiqiy va eshitish sezgilari, ritm hissi shakllanadi. Bolalar qo'shiqlarni o'zlari ijro etishni, ertaklardagi harakatlarni va tanish adabiy syujetlarni ijro etishni yaxshi ko'radilar. Musiqi quvonchli his-tuyg'ularni uyg'otadi, bolalarning xotirasini, nutqini, estetik didini rivojlantiradi, ijodiy tashabbusning namoyon bo'lishiga, bolaning shaxsiyatini shakllantirishga, uning axloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi, ritm hissi va harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantiradi; plastik ekspressivlik va musiqiylilik, intonatsiyadan foydalanish qobiliyati, asosiy his-tuyg'ularni ifodalash, bir-biriga hurmatli munosabat shakllanadi. Musiqiy teatr faoliyati bolalarni yangilikni idrok eta oladigan va improvizatsiya qilish qobiliyatiga ega ijodiy shaxs bo'lishga o'rgatadi. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalarini izlash va rivojlantirish bilan tavsiflanadi. Musiqiy teatr faoliyati bolalar bilan muloqotning yangi shakllarini, har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Бердяев Н.А. Смысл творчества (Философия творчества, культуры и искусства). - М., 1994.
3. Выготский Л.С. Искусство и жизнь. - Мн.: Харвест, 2003. - 451 с.
4. Петрова Е.С., Петрова Т.И., Сергеева Е.А. Театрализованные игры в детском саду. - М.: Школьная пресса, 2000. - 128 с.
5. Выготский Л.С. Обучение и развитие в дошкольном возрасте. - М., 1998. - 271 с.
6. Вераксы Н.Е., Комаровой Т.С., Васильева М.А. От рождения до школы. - М.: МОЗАИКА-СИНТЕЗ, 2010. - 304 с.
7. Дмитриев В.А. Развитие творческой направленности у детей в процессе различных видов музыкальной деятельности: Дис. ... канд. пед. наук. - Екатеринбург, 2002. - 23 с.

---

## РАЗЛИЧНЫЕ МОДЕЛИ ТЕМПЕРАМЕНТА: ОСОБЕННОСТИ И СХОДСТВА

*Гафурова Нодира Мирхасиловна, ТПМИ*

**Аннотация.** В статье рассматриваются научные психологические аспекты, приводится систематический обзор традиционной и современной классификации темперамента личности. Раскрывается влияние темперамента на профессиональные достижения личности.

**Ключевые слова:** темперамент, модели темперамента, современные виды темперамента, профессиональные достижения, медицинская профессия, мотивация способности, эмпатия, коммуникативность, гибкость.

### TEMPERAMENTNING TURLI XIL MODELLARI: XUSUSIYATLARI VA O'XSHASHLIKLARI

*Gafurova Nodira Mirxasilovna, TPTI*

**Annotatsiya.** Maqolada ilmiy psixologik jihatlar ko'rib chiqiladi, shaxs temperamentining an'anaviy va zamonaviy tasnifi keltiriladi. Temperamentning insonning kasbiy yutuqlariga ta'siri ochib beriladi.

**Tayanch so'zlar:** temperament, temperament modellari, zamonaviy temperament turlari, kasbiy yutuqlar, tibbiyot kasbi, qobiliyat motivatsiyasi, empatiya, kommunikativlik, moslashuvchanlik.

## DIFFERENT TEMPERAMENT MODELS: FEATURES AND SIMILARITIES

*Gafurova Nodira Mirxasilovna, TPMI*

**Abstract.** The article discusses scientific psychological aspects, provides a systematic review of the traditional and modern classification of personality temperament. The influence of temperament on a person's professional achievements is revealed.

**Key words:** temperament, temperament models, modern types of temperament, professional achievements, medical profession, motivation abilities, empathy, communication, flexibility.

**Введение.** Темперамент – сложное понятие, и его изучение не ограничивается только одной моделью. Комплексный подход к пониманию темперамента учитывает, как врожденные черты, так и взаимодействие этих черт с окружающей средой и личным развитием. В психологии и медицине темперамент относится к врожденным свойствам личности, которые определяют нашу реакцию на различные ситуации и взаимодействия с окружающим миром [1].

**Основная часть.** Существует множество моделей и теорий, описывающих темперамент. Одной из наиболее известных моделей является «четырёхфакторная модель» темперамента, предложенная немецким психологом Х.Эйзенком. Она включает в себя четыре основных фактора темперамента:

1. Экстраверсия (внешний оборотень) – это степень, в которой человек ориентирован на внешний мир, общение с другими людьми и внешние стимулы. Экстраверты обычно энергичны, общительны, ищут соприкосновение с другими и стремятся к новым впечатлениям.

2. Интроверсия (внутренний оборотень) – это противоположность экстравер-

сии. Интроверты предпочитают уединение, внутренние размышления и ограниченное число близких друзей. Они склонны к глубокому мышлению, осторожности и предпочитают меньший объем стимуляции извне.

3. Нейротизм (эмоциональная стабильность) – это мера эмоциональной реакционности и устойчивости. Люди с высоким уровнем нейротизма обычно более чувствительны к стрессу и имеют склонность к более интенсивным эмоциональным реакциям. Низкий уровень нейротизма свидетельствует о более стабильных эмоциональных реакциях и более сбалансированном состоянии.

4. Психотизм (общественная дистанция) – это фактор, описывающий способность человека к саморегуляции и отношению к нормам общества. Люди с высоким уровнем психотизма могут быть более независимыми, иметь меньшую склонность к социальному подчинению и более эксцентричным поведением. Низкий уровень психотизма свидетельствует о большей сосредоточенности на социальной гармонии и поддержании общепринятых норм [2]. Однако стоит помнить, что темперамент – это комплексное понятие, и разные люди могут иметь различные комбинации этих факторов. Каждый человек уникален и имеет свои индивидуальные особенности темперамента.

Традиционно существует концепция, согласно которой выделяются четыре основных типа темперамента: холерик, сангвиник, флегматик и меланхолик. Эта классификация была предложена ещё в древности и имеет историческую ценность в понимании различных типологий личности. Рассмотрим их подробнее:

1. Холерик: холерический тип темперамента характеризуется высокой активностью, энергичностью и вспыльчивостью. Люди с холерическим темпераментом обычно эмоциональны, целеустремленны и стремятся к лидерству. Они способны быстро принимать решения и проявлять инициативу.

2. Сангвиник: сангвинический тип темперамента связывается с оптимистичным и жизнерадостным настроением. Люди с сангвиническим темпераментом обычно общительны, энергичны и спонтанны. Они обладают хорошим чувством юмора и быстро устанавливают социальные контакты.

3. Флегматик: флегматический тип темперамента характеризуется спокойствием, уравновешенностью и инертностью. Люди с флегматическим темпераментом обычно сдержанны, сосредоточены и предпочитают избегать конфликтов. Они могут быть очень надежными и устойчивыми.

4. Меланхолик: меланхолический тип темперамента ассоциируется с глубоким чувством и рефлексивностью. Люди с меланхолическим темпераментом обычно чувствительны, аналитичны и интровертированы. Они могут быть склонны к самокритике и переживанию.

Важно отметить, что эти типы темперамента не являются жесткими рамками, и у каждого человека может быть уникальная комбинация черт разных типов. Более современные исследования в психологии расширили и углубили понимание темперамента, так что существует множество других моделей и подходов к его классификации [3].

В современной психологии темперамент рассматривается более широко и комплексно. Вместо четырех жестко определенных типов, существуют различные модели и теории, которые учитывают многообразие факторов и особенностей личности. Вот несколько подходов и концепций, которые широко используются сегодня:

1. Пятифакторная модель личности (Big Five) предлагает пять основных измерений личности, которые включают экстраверсию, нейротизм, общительность, добросовестность и открытость опыту. Она широко признана и использована в современной психологии для изучения темперамента и личностных черт.

2. Теория Грэя об активационной системе: согласно этой теории, темперамент зави-

сит от активационной системы мозга. Индивиды могут иметь более активную или менее активную систему, что влияет на их уровень других характеристик, таких как андрогенность (спонтанность и риск-ориентированность) и интроверсия-экстраверсия. Андрогенность – это понятие, которое связано с определенными характеристиками темперамента и поведения. В контексте темперамента, андрогенность описывает некоторые черты личности, которые связываются с тем, что обычно рассматривается как типичные мужские характеристики. Некоторые из них включают такие черты, как спонтанность, энергичность, риск-ориентированность, доминантность и стремление к достижению успеха. Однако стоит отметить, что андрогенность не является свойством, присущим исключительно мужчинам. Женщины могут проявлять андрогенные черты в различной степени, и уровень андрогенности может различаться у каждого индивида, независимо от пола. Андрогенность, как и другие черты темперамента, является комплексным и многогранным понятием. Человеческая личность формируется в результате взаимодействия наследственности, биологических факторов и взаимодействия с окружающей средой. Одним из инструментов, которые используют исследователи для измерения андрогенности, являются психологические тесты и опросники, направленные на выявление определенных черт и поведения. Эти инструменты позволяют оценивать, насколько индивид является андрогенным и в какой степени проявляются данные черты в его поведении. Важно понимать, что темперамент и личностные черты уникальны для каждого индивида и могут проявляться в различных комбинациях. Каждый человек имеет свою собственную андрогенность или ее отсутствие, которая объединяется с другими чертами темперамента, формируя его уникальную особенность.

3. Модель темперамента по Киркегору и Марти Ксения: Эта модель предлагает набор типов темперамента, включая гипертимную (живость), циклотимную (колеблющийся настроенность), дистимную (пассивность), анхарическую (беспокойство) и аффективно-эксцитабельную (раздражительность). Она основана на оценке особенностей темперамента через опросники и включает разные аспекты психологической функции. Модель «Ксения» (от греческого слова «ксенос», что означает «гостеприимность») – это одна из моделей темперамента, разработанная российскими психологами А.Азбель и Е.Гавриловой. Она предлагает понимание темперамента через разделение на пять типов, названных по именам святых женских мучениц Ксении Петербургской и Ксении Римской [4].

1. *Гипертимный тип*: люди с гипертимным темпераментом обладают яркой положительной окраской настроения, они энергичны, активны, любят общение и обладают повышенной активностью. Они легко поддаются эмоциям и могут быть склонны к вспышкам энтузиазма или раздражительности.

2. *Циклотимный тип*: люди с циклотимным темпераментом характеризуются периодическими колебаниями настроения. Они могут испытывать фазы эйфории и полной активности, а затем переходить в фазы пониженного настроения, депрессии или сдержанности. Этот тип темперамента связывается с повышенной чувствительностью к изменениям внешней среды и сильными эмоциональными реакциями.

3. *Меланхолический тип*: люди с меланхолическим темпераментом обладают тонкой внутренней организацией и высокой чувствительностью к окружающему миру. Они склонны к глубоким размышлениям, могут быть перфекционистами и стремиться к идеалам. Меланхолики могут испытывать подавленное настроение и иногда тяжело приспособляться к изменениям.

4. *Дистимный тип*: люди с дистимным темпераментом характеризуются более пассивным и сдержанным поведением. Они могут быть низкими на инициативу, малоэнергичными и медленными в проявлении эмоций. Дистимники склонны к предпочтению комфорта, стабильности и привычности.

5. *Аффективно-эксцитабельный тип*: люди с аффективно-эксцитабельным темпераментом характеризуются повышенной чувствительностью к раздражителям и быстрой эмоциональной реактивностью. Они могут быть склонны к повышенной раздражительности, нервозности и вспышкам эмоций.

Модель «Ксения» предлагает исследование темперамента через применение различных психологических тестов и опросников, направленных на выявление предпочтений и поведенческих особенностей в каждом из типов темперамента. Стандартизированные опросники, такие как «Опросник Ксении» и «Метод Ксении», используются для измерения предпочтений и черт темперамента в соответствии с моделью «Ксения». Важно отметить, что модель «Ксения» является одной из многих моделей темперамента и фокусируется на психологической традиции. Как и в случае с другими моделями, представленные типы темперамента не являются жесткими и неисчерпаемыми рамками, и каждый индивид может проявлять уникальную комбинацию черт и особенностей [5].

Темперамент человека может оказывать влияние на его профессиональные достижения. Темперамент определяет многие аспекты личности, такие как мотивация, способности, предпочтения и стиль работы, которые могут быть связаны с успешностью в определенных профессиональных областях. Однако важно понимать, что успех в работе зависит от множества факторов, включая образование, опыт, умения и внешние условия. Вот несколько примеров того, как темперамент может влиять на профессиональные достижения:

1. *Экстраверсия и коммуникативность*: люди с более выраженной экстравертированностью, которые легко устанавливают контакты с другими людьми, обычно хорошо работают в коммуникационных профессиях, таких как маркетинг, продажи или общественные отношения. Они могут проявлять высокую социальную активность и легко адаптироваться к различным группам и ситуациям.

2. *Точность и системность*: люди с более аккуратным и добросовестным стилем работы могут благоприятно проявлять себя в профессиях, требующих высокой степени точности и ответственности, таких как бухгалтерия, юриспруденция или научные исследования. Они обычно обладают организационными способностями и готовностью к деталям, что способствует эффективному выполнению задач.

3. *Инициатива и рискованность*: люди с большей склонностью к риску и высокой мотивацией к достижениям могут эффективно работать в предпринимательстве или менеджменте. Они могут проявлять предпринимательские черты, такие как смелость, решительность и стремление к достижению целей.

4. *Гибкость и адаптивность*: люди, которые с легкостью приспосабливаются к новым ситуациям и изменениям, могут успешно работать в быстро меняющихся областях, таких как информационные технологии, реклама или консалтинг. Они способны быстро осваивать новые навыки и приспосабливаться к требованиям рынка.

Однако стоит отметить, что темперамент — это только один из факторов, влияющих на профессиональные достижения. Возможности, образование, обучение и личные умения также играют важную роль в успехе в карьере. Кроме того, каждая конкретная профессия имеет свои уникальные требования и предпочтения, и некоторые черты темперамента могут быть более соответствующими для одних профессий, чем для других.

**Вывод.** Важно помнить, что успешность в работе зависит от комбинации различных качеств и умений. Индивидуальные черты темперамента могут быть важными ресурсами, которые могут быть развиты и использованы в конкретной профессиональной области. В медицине успешны могут быть люди с различными типами темперамента, и каждый тип может вносить свою уникальность и ценность в эту профессию. Однако некоторые черты темперамента могут быть особенно полезными в медицинской сфере.



Приведем несколько примеров: 1. Эмпатия и коммуникативность: врачам важно иметь хорошие коммуникативные навыки и способность эмпатии, т.е. способность понять и разделить чувства и эмоции пациентов. Люди с более социально ориентированным темпераментом, способные установить доверие и укрепить связь с пациентами, могут быть успешными в этом аспекте. 2. Организованность и дисциплинированность: медицинская работа требует высокого уровня организации, точности и управления временем. Врачи должны быть в состоянии эффективно управлять своим временем, планировать и координировать множество задач. Люди с добросовестным и дисциплинированным темпераментом могут быть хорошо приспособлены к этим требованиям. 3. Стрессоустойчивость и эмоциональная стабильность: практика медицины может быть часто связана с высоким уровнем стресса и потенциально тяжелыми эмоциональными ситуациями. Люди с хорошей стрессоустойчивостью и эмоциональной стабильностью могут лучше справляться с этими вызовами и сохранять ясность мышления и способность принимать решения в сложных ситуациях. 4. Критическое мышление и аналитические способности: медицина требует высокой степени критического мышления, способности анализировать информацию, делать диагнозы и разрабатывать планы лечения. Люди с аналитическим мышлением и стремлением к изучению новых концепций и теорий могут отличаться в этом аспекте. Важно отметить, что успешность в медицине зависит не только от темперамента, но и от образования, умений, опыта и этических принципов. Каждая медицинская специальность также может предоставлять свои уникальные требования и предпочтения, и соответствующие комбинации темперамента могут быть более пригодными для некоторых специализаций.

#### **Литература:**

1. Васильева Е.Ю. Основы психологии для медицинских вузов: Учебное пособие. - М.: КноРус, 2020. - 154 с.
2. Константинов В.В. Методологические основы психологии: Учебное пособие для академического бакалавриата. - М.: Юрайт, 2019. - 200 с.
3. Коржова Е. Психология личности: Учебное пособие. Стандарт 3-поколения. - СПб.: Питер, 2020. - 544 с.
4. Корнилова Т.В. Экспериментальная психология: Учебник для академического бакалавриата. В 2-х ч. - Ч. 2. - М.: Юрайт, 2019. - 174 с.
5. Леонтьева В.Л. Психология: Учебное пособие для СПО. - М.: Юрайт. 2019. - 152 с.

---

## INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLARINI O'QITISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi**, ChDPU katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi davr talablari asosida boshlang'ich ta'lim muassa-salarida inklyuziv ta'limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati, pedagogik-psixologik yondashuv, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi, imkoniyat masalasiga katta e'tibor qaratgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, integrativ, o'qitish, fanlar, innovatsion, o'quvchi, jarayon, metod, ta'lim, pedagog, tarbiya, shaxs.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТОВ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Матупаева Шохсанам Зарипбой кизи**, старший преподаватель ЧГПУ, д.ф.п.н. (PhD)

**Аннотация.** В данной статье большое внимание уделено вопросу социальной значимости инклюзивного образования в начальных образовательных учреждениях для детей с ограниченными возможностями здоровья, педагогико-психологическому подходу к учащемуся с особыми образовательными потребностями и возможностями, исходя из требований текущего периода.

**Ключевые слова:** образование, интегративность, обучение, науки, инновационный, ученик, процесс, метод, образование, педагог, воспитание, личность.

## DIDACTIC POSSIBILITIES OF TEACHING SUBJECTS IN PRIMARY EDUCATION IN INCLUSIVE EDUCATION

**Matupayeva Shokhsanam Zaripboy daughter**, senior lecturer of ChSPU, PhD

**Abstract.** In this article, much attention is paid to the issue of the social significance of inclusive education in primary educational institutions for children with disabilities, pedagogical and psychological approach to students with special educational needs, opportunities based on the requirements of the current period.

**Key words:** education, integrative, learning, sciences, innovative, pupil, process, method, education, teacher, upbringing, personality.

**Kirish.** Hozirgi kunda integrativ o'qitish texnologiyalari turli texnologiyalarning ko'plab belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Bunday texnologiyalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: integrativlik – bu o'rinda o'quv jarayoni va uning tarkibiy qismlari integrativ xarakter kasb etadi.

**Asosiy qism.** Ta'limning globallashuvi sharoitida fanlararo integratsiyadan keng foydalanish lozim. Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Integrativ yondashuvga asoslangan o'quv jarayonining tizimlilik xarakteri o'quv jarayonining tizimli xarkterga egaligi bilan ham bevosita bog'liq hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda fanlarni integrativ o'qitish uslubi yanada ahamiyatga ega bo'lib boradi. U zamonaviy intellektual shaxsni tarbiyalashda yaxlit ta'limning barcha jihatlarini (aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigiyenik, huquqiy, jismoniy tarbiya) qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Integrativ o'qitish – bu bir nechta fanlarni birlashtirib, ular orasidagi alohidaliklarni yo'qotish va ularni bir-biri bilan bog'lanishini o'rganish usulidir.

Integrativ o'qitish orqali quyidagi yo'nalishlarni amalga oshiradi:

1. Fanlararo bog'lanishni ta'minlash: integrativ o'qitish, fanlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlaydi. Misol uchun, matematika va fizika, yoki tarbiya va tabiiy fan kabi fanlar o'rtasidagi bog'lanishni aniqroq ko'rish mumkin.

2. O'qitish jarayonini birlashtirish: ushbu usul fanlarni o'zaro integratsiya qilish, ularni birga o'qitish va bir-biriga mos keladigan sohalarda o'rgatishdir. Bu o'quvchilar uchun o'rganish jarayonini osonlashtiradi va ularni fanlararo bog'lanishlarni o'rganishga undaydi.

3. O'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni oshirish: integrativ o'qitish o'quvchilarni bir-biriga yordam berishi va birga ishlashga rag'batlantiradi. Bu o'quvchilarni hamkorlik, g'oya almashtirish va bir-biriga ta'sir qilishga rag'batlantiradi.

4. Real hayotga oid bilim va ko'nikmalarni o'rganish: integrativ o'qitish o'quvchilarni real hayot masalalari bilan bog'lanish uchun tayyorlaydi. Bu ularning o'rganishini yangi darajaga ko'taradi va fanlar bilan bog'lanishini samarali qiladi.

5. Mavzularni o'rganish: integrativ o'qitish o'qituvchi va o'quvchilarning turli mavzularni kengaytirishiga yordam beradi. Bu yangi fanlar o'rganish va bir nechta fanlar o'rtasida aloqani ko'rishning yangi usullarini o'rganishga yordam beradi.

6. Texnologiya yordamida uchraydigan yangiliklar: texnologiyadan foydalangan holda, integrativ o'qitish turli fanlarni birlashtirish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning o'rganishini samarali qiladi va ular uchun yangi bilimlarni o'rganishning qiziqarli usulini yaratadi.

7. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni ta'minlash: integrativ o'qitishning muhim jihati, o'qituvchilar va o'quvchilarning bir-biriga nisbatan tushunchasini yaxshilash. Bu faqat fanlar o'rtasidagi aloqalarni emas, balki o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi aloqalarni ham o'z ichiga oladi. Bunday yo'nalishlarni ishlab chiqarish o'quvchilarda fanlararo bog'lanishni his qilish, samarali o'rganishning ko'nikmalarini shakllantirish, yangi bilim va ko'nikmalarni o'rganish hamda hayotda muvaffaqiyat ko'rishga yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim davri – bu o'quvchilarning eng moslashuvchan va o'ziga xos xususiyatlari tashkil etishda muhim davr hisoblanadi. Fanlarni bu davrda o'qitish uchun turli didaktik imkoniyatlar mavjud.

1. Tushunchalar va gipotezalar dunyosi: ushbu davr zaruriy tushunchalar va gipotezalani yaratish uchun eng moslashuvchan deb hisoblanadi. O'qituvchilar o'quvchilarning g'oyalarini o'zgartirish va ularda yangi tushunchalar yaratishga yordam berishi kerak.

2. O'rganishning tajriba asosida amalga oshirilishi: boshlang'ich ta'limdagi o'quvchilarda tajribaviy bilimlar juda muhim ahamiyatga ega. Hayotdan olingan o'maklar, o'yinlar, eksperimentlar va tajribaviy vazifalar bu o'quvchilarni o'rganishga rag'batlantirish uchun juda samarali hisoblanadi.

3. Fanlararo integratsiya: o'quv rejalarida fanlararo munosabatlar va ularning bir-biriga bog'liqligi ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarni tushunishning hayotiy shaklini rivojlantiradi va ta'lim davomida fanlararo aloqa va tushunchalarini yaxshilaydi.

4. Vizual va amaliy materiallar: bu o'quvchilar uchun eng tushunarli va samarali vositadir. O'quvchilarning aniq ko'rish, eshitish va qo'l bilan tekshirish orqali o'zlarining tushunchalarini ochiqroq ifodalashiga yordam beradi.

5. Foydalanishga oid vazifalar: real hayotga oid vazifalar asosan fanlarni o'rganish uchun ishlatiladi. Bu o'quvchilarga fanlar bilan bog'lanishni tushunishga yordam beradi va ularning o'rganishini samarali qiladi.

6. O'z-o'zini qadrlash: o'quvchilarning o'zlarining o'qishini, vazifalarni yechishni va o'zlarining tushunchalarini nazorat qilishga yordam beriladi.

7. Texnologiyani ishlatish: texnologiya va AKTlar ta'limni yangi darajaga ko'taradi.

O'yinlar, interaktiv darsliklar, o'quv loyihalari va tayanch tushunchalar orqali o'quvchilar bilan ishlash juda samarali bo'ladi.

8. Hayotiy munosabatlar: ta'lim jarayoni o'quvchilarning real hayot bilan bog'langanida samarali bo'ladi. Bunyodkorlik, muhit muhofazasi, integratsiya, ishlab chiqaruvchanlik, hayotiy masalalar va h.k.da o'rgatilishi kerak.

Didaktik imkoniyatlar bilan jihozlangan o'qituvchi o'qitish jarayonini samarali va o'quvchilarga ma'no beradigan qila oladi. Har bir o'quvchining biror bir jihatdan yetukligini hisoblashning eng muhimi didaktik imkoniyatlardan foydalana olishidir.

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish uchun muhim maqsad, har bir o'quvchining ma'lumot va talablariga moslashuvchi yangiliklar tashkil etish bilan munoslik qilishdir. Inklyuziv ta'limda boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishning effektiv metodik tizimini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan amalga oshirish mumkin.

Inklyuziv ta'limda muhokama va aloqa quvvatlari asosiy rol o'ynaydi. Inklyuziv ta'lim sharoitidagi boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda tasniflashtirish tizimidan foydalanish mumkin. O'quvchilarning ma'lumot darajalariga moslanadigan guruhlar yaratilishi va fanlarni nazorat qilish uchun differentsiatsiya yoki me'yoriy muhokamalik nazorati organizatsiyasi qo'llanadi. Shunday ko'rinadi, har bir o'quvchi belgilangan ma'lumot mahsulotlari bo'yicha o'z ishlarini belgilashi kerak. Bu natijada muallimlar o'quvchilarga belgilangan maqsadlarga yetakchilik qilib, ularni yaratish va davom ettirish imkoniyatini beradi. Inklyuziv ta'limda tahdidsiz muhokama va organizatsion qo'llanishlar ishlatiladi. Bunga yollangan kasbiy belgilovchilar, modellar, qayerda o'qitish, masalalar yoki amaliy mashg'ulotlar joriy qilinishi misollariga nisbatan aniqlash mumkin. Bu masalalarni e'tiborga olish, inklyuziv ta'limda boshlang'ich fanlarini o'qitishdagi metodik tizimni muvofiqlashtirganda barcha o'quvchilarning ma'lumotlaridan foydalanish va ularni qonunan ko'rsatilgan dasturdagi maqsadlarida foydalanish va davom ettirish imkoniyatini berishi mumkin.

Integrativ ta'lim – bu mukofotli va rag'batlantiruvchi bir ta'lim tarzidir, bu ulardan biri o'quvchilar uchun hamma fanga oid mavzularni muloqot, muammo hal qilish va tanlov jarayonida juda oson qilib beruvchi mukofot beruvchi. Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim fanlarini integrativ ma'noda o'qitish uchun quyidagi metodik tizimni tashkil etish mumkin: fanlar, o'z navbatida, o'quvchilar uchun ta'limni osonlashtirish uchun bir-biriga bog'langan bo'lishi mumkin. Matematika, ilmiy fanlar, adabiyot va ijtimoiy fanlar – bu hammasi amaliyotda bir-biriga bo'lgan aloqasini ko'rsatishi mumkin; o'quvchilar bilan amaliyotga olib kelish, ya'ni ularga biror global muammoni hal qilishda integratsiya bo'yicha amaliy tajribalar bilan ta'minlashning ahamiyati darajasini o'rgatish mumkin. Boshlang'ich sinflar uchun osonroq yondashuvlar va instruksiylar tuzish orqali integrativ ta'limni boshlash juda foydali bo'lishi mumkin. Muammo hal qilish, bevosita va kommunikativ so'rovlar, eng muhim vazifalar va erishilgan natijalar – bu hammasi integrativ ta'limni kechiruvchi jahon bilan aloqani o'rganishning muhim yo'li hisoblanadi. Integrativ ta'lim yoqimli, sezgir va aniq bo'lishi kerak. O'quvchilarni markazga qo'yish va ularga o'z talablari asosida berilgan maslahatlarni fahmlashga yordam berish kerak. Integratsiyalangan tarzida ta'lim yo'lida har bitta tadbirkorlikni hisobga olish, boshlang'ich ta'limda fanlarni integratsiyalashtiruvchi ta'lim tizimini ishlash yo'riqnoma sifatida xizmat qilishi mumkin. Buni amalga oshirish uchun ta'lim muallimlari, o'quvchilar va ota-onalar orasidagi o'zaro samarali hamkorlikni qo'llash kerak bo'ladi. Inklyuziv ta'lim, to'g'ri raqamli va ma'naviy qobiliyatga ega bolalar, alohida ta'lim talab qiladigan bolalar, darajasi bilan turi va asbob-uskunalar darajasi bilan boshqalar, o'xshash o'quvchilarning ehtiyotli yordamga asoslangan darajalarini, ish stoli yoki texnikani o'zgartirish orqali hamma o'quvchilar uchun munosib va samarali o'quv jarayonini ta'minlash uchun yaratilgan ta'lim tizimini anglatadi. Inklyuziv ta'lim muhiti, barcha o'quvchilarni o'zlarining individual ehtiyojlarini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini va ma'lumotlarini hisobga olgan holda birlashtirish yordamida to'liq va samarali o'rganishni

qo'llab-quvvatlaydi. Inklyuziv ta'lim o'quvchilar orasida farqlilikni qabul qilish va ularning ta'lim olishi uchun hamkorlik muhitini yaratishga qaratilgan yondashuvdir. Barcha o'quvchilar to'liq va samarali o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun inklyuziv darsda didaktik imkoniyatlar mahsuliy va samarali qo'llanishi kerak.

Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning ayrim didaktik imkoniyatlari quyida keltirilgan:

1. Differentsial ta'lim: har bir o'quvchi uchun moslashgan o'qitish strategiyalari, metodlar va resurslarni tanlash uchun muallimning nazoratini talab qiladi. Bu, o'quvchilarning o'qish osonligini ko'zda tutgan holda, qiyinlik darajasini moslashtirishni va o'quvchilar o'zlarining o'qish darajasida o'rganishlari uchun kichik guruhlarini tuzishni tushunishni o'z ichiga oladi.

2. Uslubiy murakkablik: o'quvchilarni to'liq va samarali o'rganishga yo'naltirish uchun turli xil o'qitish usullarini qo'llash. Bu o'quv materiallarini vizual, auditiv va amaliy shaklda berish (shuningdek, talabalarning o'qish, yozish, tinglash va nutq qobiliyatlari bo'yicha) va ularning tushunish darajasiga mos keladigan vazifalar berishni o'z ichiga oladi.

3. O'z-o'zini baholash va nazorat qilishni rivojlantirish: o'quvchilarga o'z o'rganish jarayonlarini nazorat qilish va o'z-o'zini baholash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Bu, o'quvchilarga o'rganishda ishtirok etish, tanqid va o'zlarining o'rganish natijalariga nisbatan fikrlarini bildirish qobiliyatlari beriladi.

4. Doiraviy ta'lim: fan o'qitishda o'quvchilar o'zlarining yaqin atrofida bor hajmli muhitdan quyidagilar orqali foydalanishga rag'batlantiriladi: hayotiy situatsiyalar, shahar, bog', sanoat muhitlari, muzei, kitobxona va boshqalar.

5. Texnologiya: inklyuziv ta'limning turli xil komponentlarini amalga oshirish uchun texnologiyani ishlatish. Masalan, o'quv xizmatlari uchun maxsus dasturmanlar, ta'limda axborot-kommunikatsiyaviy texnologiyalarni (AKT) ishlatish, o'quv va shug'ullanish uchun o'yinlar.

6. Baholash: inklyuziv fan o'qitishda baholash jarayoni, shuningdek, muhim ahamiyatga ega. Bu, o'quvchilarning natijalarini aniqlash uchun formativ (jarayonni izlash) va summativ (jarayonning yakunini baholash) metodlarni joriy qilishni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limni amalga oshirish bu har bir o'quvchining ta'lim va tarbiya jarayonidan to'liq darajada foydalanishini ta'minlashga qaratiladigan muhim vazifa. O'qituvchilarning quyidagi kabi didaktik imkoniyatlar bilan jihozlanishi va ularni amalga oshirishi talab qilinadi: o'quvchilar orasidagi farqlarni hisobga olgan holda o'qitish; o'quvchilarni o'zlarining o'rganish jarayonlariga ishtirok etishga rag'batlantirish va ta'lim jarayoni bo'yicha boshqaruvni o'zgartirish.

**Xulosa.** Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash yuqori natijalarga olib keladi. Unda nafaqat fanlarni o'zaro bog'lash orqali, balki o'zaro uyg'unlashishi mumkin bo'lgan va bolaga ijobiy ta'sir etadigan obyektlar orqali ham bolalarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga ko'maklashishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. G'afforova T. va boshq. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. - Qarshi: Nasaf, 2003.
2. Зуннунов А. Педагогика назарияси. - Т.: Ало'ачи, 2006.
3. Matupayeva Sh.Z. Teaching elementary teachers to use academis case clusters in the sciences // Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853, Vol. 11. Issue 11. November 2022. SJIF 2022 = 8.179.

---

**TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI**

**Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna**, O'zPFITI «Tabiiy fanlarni o'qitish texnologiyalari» bo'limi mudiri, p.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

**Annotatsiya.** Davlatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Tayanch so'zlar: o'quvchilar, xalqaro baholash dasturi, tadqiqot dasturlari, tadqiqotchilik ko'nikmalari, tadqiqotchilik kompetensiyasi, tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish, biologiya darslari, tabiiy fanlar, dars samaradorligi, ta'lim mazmuni uzluksizligi, PISA, TIMSS xalqaro baholash dasturlari.

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ПРОГРАММ ОЦЕНКИ В РАЗВИТИИ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ВО ВРЕМЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА**

**Караханова Лобархон Мусахоневна**, заведующая кафедрой «Технологии преподавания естественных наук» УзНИПН, д.ф.п.н.(PhD), старший научный сотрудник

**Аннотация.** В то время, когда наша страна стремительно развивается по пути инновационного развития, важно всесторонне поддерживать творческие идеи и творчество молодых людей, являющихся наследниками нашего будущего, формировать их знания, навыки и квалификацию на основе государственных образовательных стандартов, а также усовершенствовать систему оценивания на основе передового зарубежного опыта, международных критериев и требований.

**Ключевые слова:** ученики, международная программа оценки, исследовательские программы, исследовательские навыки, исследовательская компетентность, развитие исследовательской компетентности, уроки биологии, естественные науки, эффективность урока, непрерывность содержания образования, международные программы оценки PISA, TIMSS.

**EFFECTIVENESS OF USING INTERNATIONAL ASSESSMENT RESEARCH PROGRAMS IN DEVELOPING RESEARCH COMPETENCE IN STUDENTS DURING THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Karakhanova Lobarkhon Musakhonovna**, head of the department «Teaching technologies of natural sciences» of UzSRIPS, PhD, senior researcher

**Abstract.** At a time when our country is rapidly developing on the path of innovative development, it is important to comprehensively support the creative ideas and creativity of young people, who are the successors of our future, to form their knowledge, skills and qualifications based on state educational standards, and to improve the evaluation system based on advanced foreign experiences, international criteria and requirements.

**Key words:** pupils, international assessment program, research programs, research skills, research competence, development of research competence, biology lessons, natural sciences, lesson effectiveness, educational content continuity, PISA, TIMSS international assessment programs.

**Kirish.** Ta'lim tizimiga xalqaro baholash tadqiqotlarining kirib kelishi XX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. 1958-yilda bir qator Yevropa davlatlari va AQSh tomonidan Gamburg shahrida IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement – Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi)ga asos solindi. Mazkur uyushma davlatga aloqador bo'lmagan ilmiy tashkilot hisoblanar edi. Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi tuzilgunga qadar ham turli xil davlatlarda ta'limni tadqiq etuvchi olimlar o'quv jarayoni ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy jihatdan tadqiq etib chiqishgan. 1960-yilda Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi (IEA) tomonidan birinchi xalqaro taqqoslash tadqiqotlari o'tkazila boshlandi. 1964-yilda Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi tomonidan birinchi xalqaro matematika fani bo'yicha baholash tadqiqoti – FIMS (The First International Mathematics Study) o'tkazildi. Mazkur baholash tadqiqotining asosiy tashkilotchilaridan biri – Germaniya xalqaro pedagogik tadqiqotlar insituti (DIPF Deutsche Institut fu'r Internationale Pa'dagogische Forschung) bo'ldi. Ushbu baholash dasturi 7-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

**Asosiy qism.** 1966-yildan 1973-yilgacha 21 ta davlat ishtirokida dunyoga ta'lim bo'yicha mashhur, jumladan, Y.B.Karoll singari olimlar tashabbusi bilan «Oltita fanlar bo'yicha tadqiqot» (Six Subjects Survey) o'tkazildi. Mazkur baholash dasturida 6 ta fanlar: tabiiy fanlar, adabiyot, o'qish, ingliz tili, fransuz tillari chet tili sifatida, shuningdek, siyosiy ta'lim fanlari bo'yicha baholash tadqiqoti o'tkazildi. 1990-yillar boshida esa, Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi – IEA tashkiloti tomonidan 9-14 yoshli o'quvchilarga mo'ljallangan savodxonlik bo'yicha baholash tadqiqoti (Reading Literacy Study) o'tkazila boshlandi. Keyinchalik esa, bu tadqiqot PIRLS/IGLU baholash tadqiqotini o'tkazilishiga turtki bo'lgan. 1991-yildan buyon 21 davlatni qamrab olgan Xalqaro kattalar uchun mo'ljallangan savodxonlikni baholash tadqiqotlari (IALC – International Adult Literacy Survey) 16 yoshdan 65 yoshdagilar uchun o'tkazila boshlandi. 2010-yildan boshlab, Xalqaro katta yoshdagilarni kompetensiyalarini baholovchi xalqaro baholash tadqiqotlari (PIAAC – Programme for the International Assessment of Adult Competencies) o'tkazilmoqda. Mazkur baholash tadqiqoti iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tashkillashtiriladi va bu kattalar ko'nikmalari bo'yicha eng katta so'rov hisoblanadi. 1995-yildan buyon o'tkazilayotgan Uchinchi xalqaro matematika va fan tadqiqotlari (TIMSS – Third International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash tadqiqoti har to'rt yilda Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish tashkiloti – IEA tomonidan o'tkazilib kelinadi. Mazkur tadqiqot boshlang'ich ta'lim, in der Sekundarstufe I und II da matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'tkazilib kelinadi. Mazkur tadqiqotning uchinchi xalqaro tadqiqot deb yuritilishi esa, avvallari o'tkazilgan va yuqorida ta'kidlab o'tilgan baholash tadqiqotlari: FIMS (The First International Mathematics Study, 1964, 12 davlat) va Ikkinchi Xalqaro Matematika tadqiqotlari SIMS (Second International Mathematics Study, 1980-1982, 20 davlatlar), shuningdek, Birinchi va Ikkinchi fan bo'yicha baholash tadqiqotlari (First and Second International Science Study, 1968-1972 and 1982-1986)larning davomi sifatida o'tkazilgan. Hozirda mazkur xalqaro baholash dasturi TIMSS (Third International Mathematics and Science Study) Xalqaro matematika va tabiiy fanlar sifati deb yuritiladi. Bugungi kunda IHTT va IEA kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning ta'lim tizimida olib borilayotgan xalqaro baholash dasturlari bir nechta bo'lib, ular o'quvchilar bilimlarini xalqaro ta'lim standartlari asosida baholash va tahlil qilishda muhim sanaladi. Davlatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lidagi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil yetilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin. Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'lsirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng

miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta'lim jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lim sifatiga ta'lsir yetuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi. Bir necha yillardan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o'tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda, ta'lim olish jarayonida yerishgan yutuqlarini baholab karmoqda.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb yetadi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil yetish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida «Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi» tashkil yetildi. Aynan shu qarorga kura quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil yetish vazifa yetib belgilangan: Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun; The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun; ushbu qaror ijrosi yuzasidan yurtimizda xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish, ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. O'z navbatida, «Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi»ga ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy yetishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi. Shu bilan bir qatorda, Milliy markaz direktori – Xalqaro tadqiqotlarning milliy loyiha menejeri hisoblanib, xalqaro tadqiqotlarni tashkil yetish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok yetishi belgilab qo'yildi. Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (Agreement for participation programme for international student assessment – PISA 2021) ishtirok yetish to'g'risidagi kelishuvga erishildi. Xususan 2022-yilda O'zbekiston PISA – o'quvchilarni savodxonlik darajasini baholovchi ta'lim tadqiqotlarida birinchi bor ishtirok yetdi. IYEA tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o'quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg'unlik asosida baholashni o'z ichiga oladi, bu esa, dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

O'quvchilarning yerishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan yemas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki otalardan so'rovnoma o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlana-yotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o'tkaziladi. Shuningdek, o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Ushbu dasturning ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to'radi. Bu tadqiqotlarni o'rganib chiqib ayrimlaridan ilmiy tadqiqot ishlarimizda



foydalanishni lozim topdik. Masalan: Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun; The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun o'tkaziladi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dasturlar zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkazilishi lozim bo'lgan (pandemiya sababli 2022-yilda o'tkazildi) tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim yetishni rejalashtirganini aytish o'rinnidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga yerishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil yetish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. PISA (Programme for International Student Assessment) – o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish, (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini turli xil testlar yordamida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashi, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Har uch yilda amalga oshiriladigan PISA dasturi mamlakatlarga ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratib, ta'lim siyosati sohasida qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA kabi xalqaro tadqiqotlar O'zbekiston ta'lim tizimida ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni to'g'ri, samarali va obyektiv o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. PISA xalqaro baholash dasturi, shuningdek, o'quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi, o'quvchilarda muammoni hal qila olish kabi ko'nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal yetishda o'quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari, ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi. PISA – xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi. PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki targ'ib qilmaydi yoki umumiy e'tirof yetishni taqozo yetmaydi. Ishtirokchi mamlakatlar yekspertlari va iqtisodchilarining fikricha, o'quvchilarda tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikma darajalari shakllanishi, mustahkamlanishi davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim datslabki qadamlar deb hisoblanishini e'tirof yetadi. Umumta'lim fanlari bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribadan foydalanish, TIMSS – matematika va tabiiy-ilmiy ta'lim sifatini tadqiqot etadigan xalqaro monitoringdan iborat. Unda 4-, 8-, 11-sinf o'quvchilari ishtirok yetadilar. 1995, 1999, 2003, 2007, 2008, 2011, 2015-yillarda o'tkazilgan. 2008-yilda TIMSS Advanced monitoring tadqiqotlari matematika va fizikani chuqur o'rganadigan maktab-larning o'quvchilari o'rtasida o'tkazgan. Bu ikki predmet o'sib kelayotgan avlodning yangi texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirish qobiliyatlarini hamda mamlakatning intellektual potensialini baholashda usuvor soha hisoblanadi. PISA 1990-yillar oxirida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan muntazam ravishda xalqaro qiyosiy tadqiqotlar olib borish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, u IHTTga a'zo mamlakat-larda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashning yuqori sifatli indikatorlarini yaratish uchun mo'ljallangan loyihadir. PISA, IHTTga a'zolik maqomiga ega bo'lgan davlatlar, ya'ni IHTTga a'zo, hamkor va ishtirokchi davlatlar bilan birgalikda hamda Parij shahrida joylashgan kotibiyat orqali boshqariladi. PISA tadqiqoti – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot

tashkiloti IHTT (OECD - Organisation for Yeconomic Co-operation and Development) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanib bunda: o'quvchilarning «hayotga tayyorlik» darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalarini hayot qo'llay olish layoqati baholanadi; o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy yo'nalishdagi fanlar va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanadi; tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'planadi.

O'zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega: O'zbekistonda umumta'lim maktablari bitiruvchilarining ta'lim olishni davom yettirishga qay darajada tayyorligini aniqlash; mamlakatdagi umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash; o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish amalga oshiriladi.

Tadqiqotda savodxonlik, hayot davomida o'rganish ham ko'rib chiqiladi.

Savodxonlik: PISA muayyan maktab o'quv dasturlarining usuligini o'rganish o'miga, o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash, muloqot qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqiladi.

Hayot davomida o'rganish: o'quvchilar maktabda o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsani to'liq o'zlashtira olmaydi. Samarali o'rganuvchi bo'lish uchun nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ular qanday hamda nima uchun o'rganilishi haqida xabardor bo'lishi lozim.

PISA va TIMSS o'rtaidagi asosiy farq. PISA va TIMSS dasturlarining asosiy farqi, eng avvalo, ularning turli xil yosh va sinflar to'lfasida o'tkazilishidan iboratdir. Masalan, PISA 15 yoshli o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan bo'lsa, TIMSS esa, muayyan yoshdagi o'quvchilarning yemas, balki to'rtinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholaydi. Shu bilan birga, TIMSS baholashlari o'quv dasturlariga asoslangan bo'lsa, PISA esa, o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini real muammolarni hal qila olishlarini baholashga qaratiladi. TIMSS aynan maktab bilimlarni o'zlashtirish darajalarini baholasa, PISA bilim va ko'nikmalarni maktabda, uyda va jamoatchilik orasida qo'llay olish darajalariga alohida e'tibor qaratadi. PISA tadqiqotlarida shunday savollar beriladiki, bu qaysidir bir faktga asoslangan bo'lmaydi. Bitta savolda bir nechta fanlar elementlari jamlangan va unda kimyo, fizika, biologiya ham bo'lishi mumkin. Test bolalarning mustaqil hayotga nechog'lik tayyorligini baholaydigan sinov. PISA ta'limni qanday qilib takomillashtirish mumkin bo'lgan barcha savollarga javob tizimi hisoblanadi. Bu, albatta, katta tayyorgarlik talab etadi. Juda ko'p mutaxassislar buning ustida ishlaydi. Lekin yakunda biz obyektiv ma'lumotni olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

**Xulosa.** Xalqaro baholash dasturlari, ya'ni xalqaro ta'lim tadqiqotlarida ishtirok etish ko'pgina afzalliklarga ega bo'lib, avvalo, ta'limning xalqaro standart va talablariga moslashuv jarayoni yuz beradi. Ta'limni xalqaro standartlar asosida tashkil etish, monitoring qilish, boshqa davlatlar ta'lim tizimi va darajasi bilan solishtirish orqali ta'limdagi kamchiliklar aniqlanadi va o'rganiladi, kelgusidagi ta'lim rivojlanishi uchun rejalar tuziladi. Ta'lim tizimimiz uchun muhim bo'lgan milliy baholash tizimini yaratish va ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar:

1. Верига С.В. Мактаб ўқувчилари билан тадқиқот фаолиятини ташкил этишнинг самарали шакллари // Исследовательская работа школьников. - М., 2003. - № 3. - С. 41-43.
2. Кошелева Е.А. Совершенствование методики проверки знаний и умений учащихся. - М.: Педагогика, 2010. - 189 с.
3. Рогова И.А. Научно-исследовательская работа учеников в школьном образовании // Профильная школа. - М., 2008. - № 5. - С. 14-19.

## BO'LAJAK CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK O'QITUVCHISINING HARBIY PEDAGOGIK MADANIYATINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

**Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li**, *TDPU dotsent v.b., pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining pedagogik faoliyati uchun zarur hisoblangan axloqiy sifatlar, pedagogik madaniyat va mahoratni rivojlantirish yo'llari va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda o'tkazishda zarur kompetensiyalar keng doirada tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** *tashkilotchilik, kommunikativlik, kuzatuvchanlik, pedagogik tafakkur, bilimdonlik, zukkolik, ziyolilik, harbiy texnika, izlanuvchanlik, kasbiy mahorat.*

## ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ВОЕННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНОЙ ДОПРИЗЫВНОЙ ПОДГОТОВКИ

**Вахобов Анвар Абдусаттор угли**, *и.о.доцента ТГПУ, доктор философии  
(PhD) педагогическим наукам*

**Аннотация.** В данной статье в широком спектре анализируются этические качества, считающиеся необходимыми для педагогической деятельности учителя начальной допризывной подготовки, пути развития педагогической культуры и умений, а также необходимые компетенции в организации и проведении образовательного процесса.

**Ключевые слова:** *организованность, коммуникабельность, наблюдательность, педагогическое мышление, знания, изобретательность, интеллект, военная техника, любознательность, профессиональные навыки.*

## THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE MILITARY PEDAGOGICAL CULTURE OF FUTURE TEACHER OF PRE-CONSCRIPTION PRELIMINARY TRAINING

**Vakhobov Anvar Abdusattor corner**, *doctor of philosophy (PhD) in pedagogic  
sciences of the TSPU*

**Abstract.** This article describes demoral qualities, ways of developing pedagogical culture and skills, and necessary competences in organizing and conducting the educational process, which are considered necessary for the pedagogical activity of future teacher of pre-conscription preliminary training are analyzed in a wide range.

**Key words:** *organization, communicativeness, observation, pedagogical thinking, knowledge, ingenuity, intelligence, military equipment, searchability, professional skills.*

**Kirish.** Respublikamizda harbiy ilm-fanni rivojlantirish, uni zamonaviy talablar va jahon standartlariga mos keltirish vazifasiga, chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashga, ularning harbiy mahoratini oshirishga davlatimiz rahbariyati tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Yangi O'zbekiston strategiyasi» [1] nomli asarida ta'kidlanganidek, harbiy ilmni rivojlantirish borasida harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini hamda milliy harbiy san'at tarixini chuqur o'rganish va uni amaliyotda takomillashtirish muhim vazifalardan biridir. Qurolli Kuchlar akademiyasi, harbiy ta'lim fakultetlari, «Temurbeklar

maktabi» harbiy akademik litseylari, umumiy o'rta ta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda harbiy-vatanparvarlik yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyati tashkil etilgani yuqori professional salohiyatga ega harbiy pedagoglarning ehtiyojiga sabab bo'lmoqda.

**Asosiy qism.** Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining pedagogik madaniyatini chuqur harbiy bilimlarsiz ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozirgi zamon ofitseri zamonaviy harbiy texnika va qurollarni yaxshi bilish va samarali qo'llay olishi, umumharbiy nizomlar talablariga kundalik xizmat jarayonida rioya qilishi va buni boshqalardan talab qilish lozim. Pedagogik madaniyat murakkab tuzilishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir: pedagogik yo'naltirilganlik (pedagogik faoliyatga moyillik, qat'iy pedagogik ishonch, qo'l ostidagilarga hurmat, g'amho'rlik va shu kabilar); keng dunyoqarash; yuksak axloqiylik; bilimdonlik, zukkolik va ziyolilik; pedagogik mahorat; ta'lim-tarbiya ishlarini ilm izlanishlar bilan uyg'unlashtira olish qobiliyati; yuksak muomala madaniyati, so'zlashish odobi; o'ziga nisbatan talabchanlik, izlanuvchanlik, kasbiy mahorati va bilimi. Pedagogik madaniyatning sanab o'tilgan tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib, rivojlantirib boradi va pedagogik faoliyat jarayonida yagona tizimda namoyon bo'ladi.

Shaxsning pedagogik yo'naltirilganligi – ta'lim-tarbiya faoliyatiga bo'lgan munosabatlarni anglatuvchi, maqsad, intilish, hissiy jarayonlar, qarashlar faoliyatning mazmuniga va natijalariga ta'sir etuvchi omildir. Mohiyatiga ko'ra, pedagogik yo'naltirilganlik bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi shaxsining kasbiy yo'naltirilganligi hisoblanadi. Chunki, bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonining tashkilotchisi va amalga oshiruvchisi sanaladi. Shuning uchun bo'lajak harbiy pedagog shaxsining umumiy kasbiy yo'naltirilganligining muhim tarkibiy qismi sifatida pedagogik yo'naltirilganlik uning dunyoqarashi, bilimi, malakasi va ko'nikmalari tizimi, ma'naviy-axloqiy dunyosi, umumiy ma'rifiy va madaniy saviyasi bilan belgilanadi. Yuksak madaniyatli pedagoglar pedagogik faoliyatga moyilligi, qiziqishi, o'z kasbiga muhabbati, oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga nisbatan o'ta mas'uliyatli munosabati bilan ajralib turadi. Faqat shundagina bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi hamkasblari, boshliqlari va bo'ysunuvchilari oldida hurmatga sazovor bo'la oladi, o'z mehnatidan qoniqish hosil qiladi, yangi natijalarga intilib yashaydi.

Keng dunyoqarash – yuksak madaniyatli pedagogga xos tushunchadir. Bu tushunchaga lug'atlarda berilgan ta'rifi umimlashtirgan holda aytish mumkinki, dunyoqarash kishilarning tabiat va jamiyatga, tevarak atrofdagi voqeelikka, o'z-o'zlariga va boshqa odamlarga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi hamda ularning shu qarashlar asosida shakllangan e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillaridir. Dunyoqarash qancha keng bo'lsa, inson yuz berayotgan voqea va hodisalarga, kechayotgan jarayonlarga shuncha obyektiv baho berish imkoniyatiga ega bo'ladi, ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy jihatdan kamol topa boradi.

Pedagogik madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan yana bir yuksak axloqiylik bo'lib, uning mohiyati va asosiy mazmuni bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining pedagogik faoliyati uchun zarur hisoblangan axloqiy sifatlari bilan ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarining, umumharbiy nizomlar talablarining bo'lajak o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilishi hamda ularning turmush tarziga aylantirilib, so'zsiz bajarib borilishi, bu borada hamkasblariga va bo'ysunuvchilariga doimo ibrat bo'lishi harbiy pedagogikaga xos xususiyatdir. Professional pedagogik axloq bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchi shaxsining kasbiy takomillashuvi va axloqiy bilimlarini egallashi asosida hosil bo'ladi.

Bilimdonlik, zukkolik va ziyolilik hozirgi zamon bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri. Bilimdonlik madaniyatlikning bosh mezonidir. O'z mutaxassisligini chuqur bilgan, boshqa sohalardan ham yetarli tushunchaga ega bo'lgan, zamonaviy axborot oqimi ma'lumotlarini to'g'ri talqin qila oladigan pedagoggina o'z hamkasblari va tarbiyalanuvchilari ko'z o'ngida obro'-e'tiborga ega bo'ladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish, turli tadbirlar o'tkazish jarayonida materialni tinglovchi ongiga yetkaza olish, tuziladigan savollarga hozir javoblik bilan javob berish murakkab ishdir. Bunda pedagogdan yaxshi xotira, ma'lum tizimga solingan bilimlar zahirasi, tajriba va sharoitga qarab yo'l tuta olish qobiliyati talab qilinadi. Bilimdonlik, zukkolik, ziyolilik insonga o'z-o'zidan kelmaydi. Bularga bilim, ko'nikma va malakalarni doimiy ravishda takomillashtirib borish, ma'lumotni oshirish yo'lidagi tinimsiz mehnat, izlanish oqibatida erishiladi. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarining professional faoliyatida qo'l ostidagilar, kursantlar yohud talabalarga rahbarlik qilish, ularga ta'lim berish va tarbiyalash asosiy o'rin egallaydi. Bunda bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikni, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ham har bir bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat talab qilinadi.

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining pedagogik mahorati – uning psixologik-pedagogik tafakkuri, o'z xizmat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimi, malakasi va ko'nikmalari hamda hissiy-irodaviy sifatleri birligi bo'lib, u bo'lajak ofitser shaxsining yuksak taraqqiy etgan g'oyaviy, kasbiy, axloqiy, jangovar, tashkilotchilik va harbiy pedagogga xos xislatlari bilan uyg'unlikda ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Pedagogik mahorat murakkab tarkibga ega. U harbiy-pedagogik faoliyat tarkibi va mazmuni bilan belgilanadi.

Tarkibiy jihatdan pedagogik mahorat o'qituvchi (metodist) mahorati va tarbiyachi mahoratiga ajratiladi. O'qituvchi mahorati bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining harbiy-pedagogik jarayonning qonuniyatlarini, xususiyatlarini, shaxsiy tarkibga ta'lim berish jarayonining maqsad va vazifalarini chuqur bilishida namoyon bo'ladi. Pedagogik mahoratning bu elementi bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining o'z mutaxassisligini, harbiy ishni, psixologiya va pedagogika fanini, didaktika prinsiplarini va metodlarini, o'z o'quv fani metodikasini chuqur bilishga, boshqa fanlardan tushunchaga, keng dunyoqarashga ega bo'lishga asoslanadi. Bilimlarni egallash, harbiy mutaxassis uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirishda rivojlantirish jarayonining mohiyatini chuqur bilish va tushunish mahoratli pedagogga xos xususiyatdir. Hayotning obyektiv sharoitlari, ilmiy-texnik taraqqiyot, xizmatning qisqa muddati davomida murakkab harbiy mutaxassislikni egallash, zamonaviy qurol-yarog' va jangovar texnikani o'rganish, katta axborot oqimini tahlil qilish kabi dolzarb vazifalar pedagogik mahoratni takomillashtirishning zarur shartlari sifatida ofitserdan ta'lim jarayoni psixologiyasini, askarni va harbiy jamoani hozirgi zamon urushida muvaffaqiyatli harakat qilishga tayyorlash qonuniyatlarini bilishni va amal qilishni talab etadi.

Tarbiyachi – bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi mahorati o'quvchilar tarbiyasining qonuniyatlari, prinsiplarini, metodlarini, maqsad va vazifalarini, asosiy yo'nalishlarini bilishi va bu bilimlardan amalda to'g'ri foydalana olishi bilan ifodalanadi. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda pedagog obyektga, pedagogik ta'sir etish vositalarini, tarbiya prinsiplarini har tomonlama va chuqur bilsagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Shuning uchun harbiy-pedagogik mahoratning yuksak cho'qqilariga erishmoqchi bo'lgan ofitser o'quvchi shaxsi va psixologiyasini, bo'ysunuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, shuningdek, axloqiy va huquqiy normalarni, umumharbiy nizomlar talablarini, Mudofaa vazirining buyruq va direktivalarini bilishi va amaliy faoliyatda, kundalik turmushda qo'llay olishi lozim. O'zining ichki tarkibi bo'yicha tarbiyachi mahorati yuksak darajada rivojlangan oddiy va murakkab aqliy ko'nikmalar va malakalar, psixologik pedagogik bilimlar asosida shakllangan va rivojlangan hissiyotlar va iroda, amaliy faoliyat va odamlar bilan muloqot davomida shakllangan hislatlar, dunyoqarash birligidir. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining pedagogik mahoratida pedagogik texnika asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Umumiy holda pedagogik texnika o'z ichiga quyidagilarni oladi: a) o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, turli tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish texnikasi; b) bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining o'z bo'ysunuvchilarining u yoki bu harakatlariga bo'lgan munosabatini ifodalay namoyon qila olishi; v) nutq texnikasidan, so'z kuchidan foydalana olish; g) tarbiyaviy materiallar, ya'ni tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari, jamoa xususiyati va boshqalarni o'rgatish va ularni hisobga olish texnologiyasi; d) ta'limning va tarbiyaning texnik vositalaridan, ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanish; e) o'quvchilarning davomatini hisobga olish va nazorat qilib borish. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlaridan biri pedagogik takt, ya'ni bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining har qanday, hatto, ziddiyatli vaziyatlarda ham bo'ysunuvchilar bilan bo'ladigan munosabatida pedagogga bosiqlik, vazminlik va aql-idrok bilan o'zini tuta olish qobiliyati juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisidan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'tkazishda quyidagi kompetensiyalar talab qilinadi: 1. Tashkilotchilik kompetenti – bo'linma pedagogik jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantira olish va o'z ishini to'g'ri tashkil eta olish (o'z ishini to'g'ri rejalashtirish va nazorat qila bilish, konkret sharoitlarga moslasha olish va hokazo). 2. Kommunikativ (muomala) kompetenti – bo'ysunuvchilar, boshliqlar, turli toifadagi harbiy xizmatchilar va ishchi xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari, askarlarning ota-onalari, jamoatchilik vakillari bilan pedagogik va psixologik nuqtai nazardan o'zaro munosabatlar o'rnatish. 3. Didaktik kompetenti – o'quv materialini tushuntira bilish, tinglovchi ongiga yetkaza bilish, ilmiy izlanuvchanlik, fan va texnika yangiliklaridan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalana olish qobiliyati. 4. Kuzatuvchanlik kompetenti – bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining o'z o'quvchilarining ruhiy holatini, ichki kechinmalarini, ulardagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni seza olish qobiliyati. 5. Obro' orttira olish kompetenti – bo'ysunuvchilariga va xizmatdoshlariga o'zining amaliy faoliyatiga, xizmat burchiga mas'uliyatli munosabati, muomalasi, kundalik turmushdagi va oilasidagi ibratli xulqi orqali bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda o'zi haqida ijobiy fikr uyg'ota olish qobiliyati. 6. Kelajakni ko'ra bilish kompetenti – o'z faoliyatining, harakatlarning natijasini oldindan ko'ra bilish, rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlab, muvaffaqiyatga erishishga ishonch qobiliyati. 7. Diqqatni taqsimlay olish kompetenti – pedagogning diqqatning barcha xususiyatlarini, hajmi, kuchini idora qilish, safarbar eta olish qobiliyati.

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchining pedagogik mahorati samaradorligini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud: 1. Pedagogik faoliyatda qo'llanilayotgan usul, vosita, shakl va metodlarining ilmiy asoslanganligi. 2. Pedagogik

amaliyotning pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar yangiliklari va yutuqlari bilan hamohangligi. 3.Uzoq vaqt davomida o'zgarib turuvchi sharoitda ijobiy natijalarning barqarorligi, dolzarbligi, optimalligi va kelajakka yo'naltirilganligi. 4.Pedagog o'zining va boshqalarning ilg'or ish tajribasini umumlashtira olishi va ommalashtirishi.

Pedagogik mahorat ko'p qirrali va keng mazmunga ega tushuncha bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqt davom etadi. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining harbiy-pedagogik hislatlarini va professional-pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish ichki qarama-qarshiliklarga ega hamda ko'pgina omillarning ta'sirida kechuvchi jarayondir. Bu jarayon o'z-o'zidan kechmaydi, balki boshqariladigan bo'lib, birinchi navbatda, har bir bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining bilimi saviyasi, dunyoqarashi, aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishi darajasiga bog'liqdir. Pedagogik mahoratining shakllanish va takomillashuvi bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchi shaxsining professional, ijtimoiy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishdagi qarama-qarshiliklarni yengish orqali erishiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu qarama-qarshiliklar quyidagilardan iborat: bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining bilimlari, umumiy ma'lumotliligi va xulqiy tajribasi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar; bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining nimani va qanday bajarshi kerakligini tushunish va amaliy harakatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar; turli sharoitlar va vaziyatlarda bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining o'zini tutishi bilan bog'liq qarama-qarshiliklar; pedagogik jarayonning rivojlanganligi darajasi to'g'risidagi bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining shaxsiy bahosi va boshliqlari, hamkasblarining fikri, bergan bahosi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va boshqalar. Bunday qarama-qarshiliklarni hal etishning muhim sharti sifatida kasbiy shakllanish va rivojlanishning murakkab jihatlari, bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalash vazifalarini hal etishga xalaqit berayotgan omillarni bartaraf etish yo'llarini tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tomonidan to'g'ri tushunishni ko'rsatish mumkin. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining professional sifatlarning, pedagogik mahoratining shakllanishiga jamiyatdagi turmush tarzi, kundalik faoliyat, jamoadagi ma'naviy-ruhiy muhit va boshqa omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi hayoti va faoliyatini tahlil qilgan holda, bu jarayon bir necha bosqichlarni o'z ichiga olishini ko'rsatib o'tish mumkin. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarida harbiy-pedagogik hislatlarning shakllanishiga va rivojlantirilishiga oliy o'quv yurtidagi o'qish davrida asos solinadi. Talabalarda bo'lajak harbiy-pedagogik faoliyatga nisbatan moyillik va qiziqish shakllantiriladi. Bu davrda harbiy kasbiy-pedagogik faoliyatning, ta'lim-tarbiya ishlari jarayoni metodikasining barcha masalalari bo'yicha zarur bo'lgan bilimlar asoslari beriladi, boshlang'ich malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilari pedagogik mahoratini takomillashtirishda ularning o'quv muassasalaridagi faoliyatlarini amalga oshirish jarayoni muhim o'rin egallaydi. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi faoliyatining birinchi yillari ularning o'qituvchi va tarbiyachi sifatida shakllanishidagi muhim va mas'uliyatli davri hisoblanadi. Chunki u endi – egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llashi lozim bo'ladi va buning uchun shaxsiy javobgarligini his etadi.

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining pedagogik mahoratini takomillashtirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarni kerakli ilmiy bilimlar bilan qurollantirish. 2. Turli vositalar va metodlar yordamida bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi shaxsiga maqsadli va tizimli pedagogik ta'sir ko'rsatish. 3. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini umumharbiy nizomlar talablari asosida tashkil etish. 4. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarini ta'lim-tarbiya jarayoniga kengroq jalb etish. 5. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining o'z bilimlari, umumiy madaniy saviyasini, harbiy-pedagogik mahoratini oshirish maqsadida o'z ustida mustaqil ishlashish, o'z faoliyati, xulqini nazorat qilishini tashkil etish va boshqalar. Pedagogik mahorat bevosita bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi nufuziga bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra, rus pedagogi A.S.Makarenko: «O'z nufuziga ega bo'lmagan tarbiyachi, tarbiyachi bo'lishi mumkin emasligi mutlaqo ayondir», – deya ta'kidlaydi.

**Xulosa.** Pedagogik madaniyatning komponentlari o'rtasida murakkab aloqa va bog'liqlar mavjud. Ular bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi shaxsining psixik xususiyatlari va inson hamda xizmatini o'taydigan mutaxassis sifatida shakllangan shart-sharoitlar bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham asosiy komponentlar birligida bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining pedagogik madaniyati doimo individual ravishda betarkrordir.

#### Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 457 б.
2. Холиқов А. Педагогик маҳорат: Дарслик. - Т.: Иқтисод-молия, 2011. - 420 б.
3. Зиёмухаммедов Б. Педагогик маҳорат асослари: Ўқув қўлланма. - Т.: Тиб китоб, 2009. - 183 б.
4. Муслимов Н.А. Модулли-компетентли ёндашув асосида касб таълими ўқитувчиларини касбий махсус компетентлигини шакллантириш технологияси: Методик қўлланма. - Т., 2014. - 115 б.
5. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчиларида маънавий маданиятини ривожлантиришнинг педагогик асослари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т.: ТДПИ, 1993. - 364 б.



## BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA TA'LIM ASOSIDA EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODEL

**Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich**, *Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish va hal etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va biologik xilmaxlilik, iqlim o'zgarishi, tabiatni muhofaza qilish, ekologik tushunchalar, amaliy mashg'ulotlar orqali talabalarida ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli talabalarni atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lgan faol va mas'uliyatli global fuqarolar bo'lish imkoniyatni rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

**Таянч so'zlar:** *boshlang'ich ta'lim, talaba, ekopedagogika, kompetentlik, rivojlantirish, bilim, ko'nikma, biologik, iqlim, tabiat, muhofaza, ekologik, amaliy mashg'ulot, modeli, atrof-muhit, mas'uliyat, global imkoniyat, konstruktivizm, integratsiya.*

## МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЭКОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОБУЧЕНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Кучкинов Абдумалик Юлдашович**, *доцент Чирчикского государственного педагогического университета, доктор философских педагогических наук (PhD)*

**Аннотация.** Данная статья посвящена развитию экопедагогической компетентности у учащихся начальных классов посредством знаний, навыков и биоразнообразия, необходимых для развития и решения проблем экопедагогической компетентности, изменения климата, охраны природы, экологических концепций, модели практического обучения для развития возможности быть активными гражданами мира, которые бережно относятся к окружающей среде.

**Ключевые слова:** *начальное образование, студент, экопедагогика, развитие компетентности, знания, навыки, биология, климат, природа, охрана, экология, практическая подготовка, модель, окружающая среда, ответственность, глобальные возможности, конструктивизм, интеграция.*

## A MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF ECOPEDAGOGICAL COMPETENCE BASED ON LEARNING FROM PRIMARY EDUCATION STUDENTS

**Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich**, *associate professor of Chirchik state pedagogical university, doctor of philosophical pedagogical sciences (PhD)*

**Abstract.** This article is devoted to the development of ecopedagogical competence among primary school students through knowledge, skills and biodiversity necessary for the development and solution of problems of ecopedagogical competence, climate change, nature conservation, environmental concepts, practical learning models for the development of the opportunity to be active citizens of the world who take care of the environment.

**Key words:** *primary education, students, ecopedagogy, competence development, knowledge, skills, biology, climate, nature, conservation, ecology, practical training, model, environment, responsibility, global opportunities, constructivism, integration.*

**Kirish.** Yangi O'zbekistonda zamonaviy ta'lim muassasalaridagi integratsiyalashgan ta'lim, o'quvchining bilim faoliyati va mustaqillik fikrlash hamda o'quv amaliyotida yo'naltirish ta'lim sifatida yangi natijalarga erishishga yordam beradi.

**Asosiy qism.** Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida belgilab berilgan atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi yangi O'zbekistonning ekologik ta'lim-tarbiyasida

«Yangi O'zbekistonni barpo ekologik tarbiyalashda atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida belgilangan «Aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish». Shu munosabat bilan O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi, 2019-2030-yillarda «yashil» iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategiyalar, yangi davlat boshqaruvini shakllantirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Barqaror rivojlanish sohasida ekologik ofatlarning oldini olish kabi ulkan maqsadlarni amalga oshirishda o'quvchilariga ekologik ta'lim berish texnologiyasini taqdim etish. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ekologik-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modelining nazariy asoslari ekologik ta'lim va pedagogika fani bilan bog'liq. Ushbu model talabalarni ekologik muammolarni tushunish va hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar bilan qurollantirishga qaratilgan. Barqarorlik kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini buzmasdan, hozirgi kun ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini anglatadi. Ekologik pedagogik kompetentligini boshlang'ich ta'limga integratsiyalash orqali biz atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirmoqdamiz va barqaror amaliyotlarni ilgari surmoqdamiz. Ushbu modelni ma'lum qiladigan yana bir nazariy nuqtai nazar konstruktivizmdir. Konstruktivizm talabalarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari orqali dunyo haqidagi o'z tushunchalarini faol ravishda qurishlarini taklif qiladi. Ekologik-pedagogik kompetensiya kontekstida bu talabalarning atrof-muhit muammolarini o'rganish va ma'nosini tushunish imkonini beradigan amaliy, tajribaviy o'quv faoliyati bilan shug'ullanishi kerakligini anglatadi.

Bundan tashqari, model ijtimoiy ta'lim nazariyasi tamoyillariga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, odamlar boshqalarni kuzatish va taqlid qilish orqali o'rganadilar. Ekopedagogik kompetensiya kontekstida talabalarda atrof-muhitga mas'uliyatli xulq-atvorni namoyon etuvchi namuna bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Talabalarning atrof-muhitga munosabati va xulq-atvorini shakllantirishda o'qituvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilik hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Umuman olganda, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ekologik-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli barqarorlik, konstruktivizm va ijtimoiy ta'lim nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariy asoslarni ta'lim amaliyotiga kiritish orqali biz yosh talabalarni atrof-muhitga oid bilimdon va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib etishish imkoniyatini berishimiz mumkin.

Maqsad – boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ekologik pedagogik kompetentligini rivojlantirish modelining maqsadi ularni atrof-muhit masalalarini tushunish va ular bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar bilan qurollantirishdan iborat. Ushbu model atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirish va ularning kundalik hayotida barqaror amaliyotlarni targ'ib qilishga qaratilgan. Boshlang'ich ta'limga ekopedagogik tamoyillarni kiritish orqali talabalarda tabiat, biologik xilma-xillik, ekotizimlar va inson faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur anglash rag'batlantiriladi. Ular atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, o'rmonlarning kesilishi va resurslarning kamayishi kabi muammolarni o'rganadilar va bu muammolarni barqaror amaliyotlar orqali hal qilish yo'llarini o'rganadilar. Model atrof-muhit muammolari bilan bog'liq tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Talabalarga o'z harakatlarining atrof-muhitga ta'sirini tahlil qilish va zararni kamaytiradigan va tabiatni muhofaza qilishga yordam beradigan muqobil echimlarni o'rganish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ekologik-pedagogik kompetentligini

rivojlantirish modeli talabalarda tabiiy dunyoga nisbatan empatiya va mas'uliyat hissini rivojlantirishga undaydi. Ular o'zaro bog'liqlik haqida bilib oladilar.

Mazmuni – boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ekologik-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasi ularning atrof-muhit muammolarini tushunish va xabardorligini oshirishga, shuningdek, ularni barqaror tanlov qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan qurollantirishga qaratilgan. Rivojlanishning ushbu modeli ekologik-pedagogik tamoyillar va amaliyotlarni o'quv dasturiga integratsiyalashuviga, atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat va boshqaruv hissini tarbiyalashga urg'u beradi. Ushbu metodologiyaning mazmuni ekologik-pedagogik kompetentligini har tomonlama rivojlantirishga hissa qo'shadigan turli komponentlarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ekologik-pedagogik kompetentligini rivojlantirish ekologik ongi va barqaror amaliyotni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bu kompetentligini rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ba'zi namunaviy vositalar: ekologik ta'lim o'quv dasturi. Ekologik ta'limni fan, ijtimoiy fanlar va til san'ati kabi turli fanlar bilan birlashtiradigan o'quv dasturini ishlab chiqish. Ushbu o'quv dasturida ekologik tushunchalar, atrof-muhit muammolari va tabiatni muhofaza qilish amaliyotlarini tushunishga yordam beradigan darslar, tadbirlar va loyihalar bo'lishi kerak. Tabiatga asoslangan ta'lim, mahalliy bog'lar, qo'riqxonalar yoki botanika bog'lariga sayohatlar tashkil qilish orqali ochiq havoda va tajribaviy o'rganishni rag'batlantirish. Bu amaliy tajribalar talabalarga tabiat olamini kuzatish va o'zaro munosabatda bo'lish imkonini beradi, atrof-muhit bilan chuqurroq bog'lanishni kuchaytiradi. Yashil maktab tashabbuslari, maktabda qayta ishlash dasturlari, energiyani tejash choralari va barqaror bog'dorchilik loyihalari kabi ekologik toza amaliyotlarni o'rnatish. Talabalarni ushbu tashabbuslarga jalb qiling, ularga maktabning atrof-muhitga ta'siri uchun mas'uliyat va egalik hissini bering. Talabalarni ekologiyaga yo'naltirilgan loyihalarda hamkorlik qilishlari mumkin bo'lgan ekologik klublarni tashkil etishga undash. Ushbu klublar daraxt ekish, chiqindilarni kamaytirish kompaniyalari yoki xabardorlikni oshirish kabi tadbirlarni tashkil qilishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ta'limga asoslangan ekologik-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli yosh talabalarda atrof-muhit va barqarorlikni chuqur tushunish va qadrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Bunday yondashuv bolalarda mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirishga yordam berib, ularni sayyoramizning faol boshqaruvchisi bo'lish imkoniyatini bergani uchun erta yoshdanoq ekologik ongni tarbiyalash muhimligini e'tirof etadi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan turli tadbirlar bilan shug'ullanadilar. Ushbu tadbirlar tabiatda sayr qilish, bog'dorchilik, qayta ishlash loyihalari va atrof-muhit masalalari bo'yicha muhokamalarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu tajribalarda faol ishtirok etib, talabalar tirik organizmlarning o'zaro bog'liqligi va inson harakatlarining atrof-muhitga ta'siri haqida bevosita bilimga ega bo'ladilar. Masalan, tabiatga sayr qilish jarayonida talabalar turli o'simlik va hayvonlar turlarini, ularning yashash joylarini, biologik xilma-xillikning ahamiyatini kuzatishi va bilishi mumkin. Shuningdek, ular suv aylanishi, iqlim o'zgarishi va ifloslanish ta'siri kabi tushunchalarni o'rganishlari mumkin. Bog'dorchilik kabi amaliy tajribalar orqali talabalar nafaqat o'simliklarning hayot aylanishlari haqida bilibgina qolmay, balki qimmatli ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar. Ta'limga asoslangan ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida bir nechta ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Ushbu model ekologik ongni, barqarorlikni va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat hissini rivojlantirishga qaratilgan. Ekopedagogik amaliyotlar bilan shug'ullanuvchi

talabalar biologik xilma-xillik, iqlim o'zgarishi, tabiatni muhofaza qilish kabi ekologik tushunchalarni chuqur anglaydilar. Ular atrof-muhit muammolari haqida ko'proq xabardor bo'lib, o'z harakatlariga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilimlarni rivojlantiradilar. Model talabalarni kundalik hayotlarida barqaror amaliyotlarni qabul qilishga undaydi. Bunga qayta ishlash, chiqindilarni kamaytirish, energiyani tejash va ekologik toza mahsulotlardan foydalanish kiradi. Ushbu amaliyotlarda faol ishtirok etish orqali talabalar atrof-muhitga mas'uliyatli boshqaruvchi bo'lishni o'rganadilar. Ekopedagogika talabalarni atrof-muhit muammolarini tahlil qilish va baholashga undash orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ular atrof-muhit muammolarining sabablari va oqibatlari, shuningdek, potensial echimlar haqida tanqidiy fikrlashni o'rganadilar. Bu ularning muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ekologik-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli bir nechta asosiy xulosalarga ega. Bu, birinchidan, ta'lim jarayoniga ekologik va pedagogik bilim va ko'nikmalarni integratsiyalash muhimligini ta'kidlaydi. Demak, talabalar nafaqat ekologik tushunchalar va masalalarni o'rganishlari, balki bu bilimlarni pedagogik sharoitda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak. Misol uchun, talabalar qayta ishlashning ahamiyati haqida bilib olishlari mumkin va keyin o'z maktablarida qayta ishlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish topshirilishi mumkin. Ikkinchidan, model amaliy, tajribali o'rganishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Unda talabalarning o'z atrof-muhit bilan bevosita munosabatda bo'lishlari va ekopedagogik bilimlarini qo'llashlari mumkin bo'lgan amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari tavsiya etiladi. Bu tabiiy yashash joylariga sayohatlar, maktab bog'ida eksperimentlar o'tkazish yoki jamiyatning ekologik loyihalarida ishtirok etishni o'z ichiga olishi mumkin.

**Xulosa.** Talabalarda ekologik mas'uliyat va qadrlashni rivojlantirish, uni asrash uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga rag'batlantirish zarurligi ko'rsatilgan. Bunga o'simliklar, hayvonlar va ekotizimlarga nisbatan hamdardlikni rag'batlantiradigan tadbirlar orqali erishish mumkin. Nihoyat, modelda o'qituvchilarning ekologik-pedagogik kompetentligini rivojlantiradi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni. - T., 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni.
3. Yuldashovich K.A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness // European International Journal of multidisciplinary research and management studies. - 2022. - T. 2. - № 11. - S. 01-05.
4. Kuchkinov A.Y. Boshlang'ich sinf oquvchilarini tabiatni ezozlash ruhida tarbiyalash: Oqituvchilar uchun metodik qollanma. - T.: Fan va texnologiya, 2012. - T. 88.
5. Sousa, D.A., Pilecki, T. (2013). From STEM to STEAM: Using brain-compatible strategies to integrate the arts. Thousand Oaks: Corwin Press.

---

## ПРОБЛЕМЫ САМОАКТУАЛИЗАЦИИ ПОДРОСТКОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

**Оразбаева Гульбахар Жолдасовна**, старший преподаватель  
Каракалпакского государственного университета

**Аннотация.** В статье освещены основные тенденции развития субъект-субъектного влияния родителей на развитие субъективности и личностного потенциала при активизации включения родителей в школьную жизнь в Республике Каракалпакстан и приоритетности воспитания в выработке единых действий (цели, средства и методы обучения).

**Ключевые слова:** самоактуализация, ученик, школа, родители, педагогический коллектив, ребенок, отношения.

## ZAMONAVIY JAMIYATDA O'SMIRLARNING O'Z-O'ZINI NAMOYON QILISH MUAMMOLARI

**Orazbayeva Gulbahar Joldasovna**, Qoraqalpoq davlat universiteti  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida ota-onalarni maktab hayotiga qo'shishni faollashtirishda ota-onalarning subyekt-subyekt ta'sirini rivojlantirish va subyektivlik hamda shaxsiy salohiyatni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari va umumiy harakatlarni rivojlantirishda ta'limning ustuvorligi yoritilgan (ta'imning maqsadlari, vositalari va usullari).

**Tayanch so'zlar:** o'z-o'zini namoyon qilish, o'quvchi, maktab, ota-onalar, pedagogik jamoa, bola, munosabatlar.

## PROBLEMS OF SELF-ACTUALIZATION OF ADOLESCENTS IN MODERN SOCIETY

**Orazbayeva Gulbahar Zholdasovna**, senior teacher  
of Karakalpak state university

**Abstract.** The article highlights the main trends in the development of the subject-subject influence of parents and the educational system on the development of subjectivity and personal potential of the educational system with the activation of the inclusion of parents in school life in the Republic of Karakalpakstan and the priority of education in the development of unified actions (goals, means and methods of teaching).

**Key words:** self-actualization, pupil, school, parents, teaching staff, child, relationships.

**Введение.** Многие дети и подростки, к сожалению, подвержены влиянию таких факторов, как неблагополучие в семье, в частности, имеет место быть так называемый «кризис отцов», который проявляется чаще в неполных семьях, но может отражать и отрешенность отца в семье от воспитания ребенка или его физическим отсутствием, пьянством.

**Основная часть.** Авторы, которые изучают данное явление, как и многие другие неблагоприятные явления в жизни ребенка, отмечают, что у данного явления – сразу несколько причин. Во-первых, родители могут в принципе быть не совместимы по педагогическим принципам воспитания (по приверженности им): когда мать использует одни методы воспитания, а отец – другие, это вызывает дистанцирование ребенка от них обоих. Подобная несовместимость, прежде всего, отражается на ребенке. В ре-

зультате вместо положительного воспитания получается точная противоположность. Кроме того, подобные различия в методах воспитания матери и отца вызывают у ребёнка недоумение и непонимание того, чего от него хотят. Во-вторых, некоторые семьи, к сожалению, применяют слишком жёсткие методы воспитания, в результате чего ребенок начинает бояться своих родителей (чаще — отцов), и любыми способами пытаются ограничиться от данного воздействия, поскольку оно, в основном, связано с физическим насилием. Это особенно ярко проявляется в подростковом возрасте, когда у ребёнка начинаются естественные возрастные изменения, находящие «ответ» в том числе во внутреннем протесте по отношению к миру. Поэтому такие явления, как «кризис отцов» и ему подобные являются колеблющими для благополучия семьи, оказывая отрицательное воздействие на ключевые факторы воспитания и развития ребенка. В данном случае у педагогов есть некоторые инструменты, с помощью которых они могут добиваться определенной коррекции в поведении даже у родителей.

Сегодня в качестве факторов и маркеров, служащих для определения достижения цели воспитания ребёнка в семье, может являться хорошая успеваемость, проявление трудолюбия, ответственного отношения к делу, творчества, заботы, здорового образа жизни. Если ребёнок занимается физической закалкой, имеет развитый художественный вкус, для него оказываются важными общественная активность, а также он способен проявлять дисциплинированность и силу воли с одновременным отсутствием таких отрицательных качеств, как хитрость, жадность, стремление к наживе, меркантильность, вещиизм и это позволяет в достаточно большой степени утверждать о том, что среда, в которой воспитывается ребёнок, является благополучной. Другой вывод, следующий из подобного утверждения — наверняка, воспитание, которое дают родители конкретного ребенка, является правильным, так как способствует гармоничному развитию личности ребенка. Между тем, не только родители, но и школа принимает активное участие в воспитании подрастающего поколения. В данном отношении важным инструментом влияния школы на воспитание ребёнка является взаимодействие с семьёй и родителями. Взаимодействие может происходить в различных формах, например, в создании комитетов, советов, ассоциаций, обществ. Каждое из указанных объединений обычно имеет свой Устав и правила, которые знают все входящие в эти объединения участники. Воспитание гармоничной и социализированной личности, способной нести ответственность за свои поступки и проявлять творчество в труде — это основная задача взаимодействия родителей и образовательного учреждения. На базе общеобразовательных учреждений для родителей могут проводиться круглые столы, конференции, на базе некоторых общеобразовательных школ Республики Узбекистан и Каракалпакстана создаются «родительские школы» и другие формы объединений, которые помогают родителям в вопросах воспитания детей. Задача школы в данном случае — это просвещение и организация различного рода консультаций в целях решения наиболее трудных вопросов, связанных с воспитанием детей. В частности, по преодолению ситуаций конфликта и неблагополучия в семье (с привлечением органов социальной защиты населения).

В образовательных учреждениях поддерживается покупка родителями педагогической литературы, а педагог может посоветовать конкретную литературу, а также статьи в педагогических газетах и журналах. Классный руководитель является основным звеном в данной системе. На него ложится основная нагрузка по воспитанию и развитию детей и подростков в условиях обучения в общеобразовательном учреждении. Учителя, которые работают параллельно с классным руководителем, также имеют роль,

но уже менее значимую, поскольку не проводят «классные часы» и другие воспитательные внеурочные мероприятия. В школах может практиковаться личное посещение учителей домов обучающихся с целью фиксации изменений в неблагоприятную сторону условий их проживания. Такие мероприятия находятся в рамках закона Республики Узбекистан, так как обуславливают предотвращение нежелательных педагогических эффектов воспитания, связанных с бытовыми условиями жизни ребёнка и подростка. Просвещенческая функция остаётся главной и служит достижению целей по воспитанию гармоничной личности ребёнка [5; с. 35-36].

По литературным источникам XX и XXI веков, концепция самореализации находит разные отражения в различных источниках. Тем не менее, не существует единой концепции, которая бы давала точное представление о сути данного процесса и определённости самого понятия «самореализация». В настоящее время, однако, есть единый подход относительно классификаций подходов к категории «самореализация». Интересны представления зарубежных психологов о сущности самореализации, которые рассматривали её через духовное становление личности. В частности, эти идеи принадлежат таким исследователям в области психологии как А.Адлер, А.Маслоу, Г.Олпорт, К.Роджерс, В.Франкл, К.Хорни, Э.Эриксон, К.Юнг и др. Психологи-гуманисты предлагают своё понимание сущности самореализации, которая связана с непосредственным развитием человека как личности (это направление развивали А.Маслоу, Г.Олпорт, К.Роджерс, В.Франкл и др.). Согласно гуманистической концепции теории самореализации, человек является существом не пассивным, а очень активным, способным проявлять творчество в деятельности. Исходя из этого, очевидно, что человек может сам выбирать собственную судьбу в соответствии с теми потребностями и ценностями, которые он несет и которые приносят им определенную степень удовлетворения. Субъективный мир человека находит отражение в самоактуализации и самореализации, в частности, именно сам человек как личность и индивид определяет, куда он будет развиваться, и по какому направлению будет осуществлять своё развитие.

Таким образом, исходя из данной концепции самореализации, представляется, что саморазвитие — это ни что иное, как сознательный выбор изменений на субъективном уровне. А.Маслоу считает, что потребность в самореализации и самоактуализации является высшей потребностью. При этом, чем совершеннее результаты его деятельности, тем значительнее будет переживаться человеком процесс самореализации. Недостижение какого-либо базового уровня в аспектах самореализации и самоактуализации будет приводить к тому, что человек не сможет перейти на следующий уровень удовлетворения потребности в пирамиде Маслоу. Согласно ему, выделено всего 5 групп потребностей, которые представляют собой блоки частных потребностей, составляющих основные жизненные и духовные запросы личности. При этом под самоактуализацией А.Маслоу понимает желание человека быть тем, кем бы он хотел стать (идеал, образ).

Не все люди стремятся к реализации высшего уровня потребностей. Стоит даже говорить о том, что есть некоторые индивиды, которые заботятся лишь о физиологических потребностях и обеспечивают свою социальную защищенность, то есть для них вполне достаточно удовлетворения первых двух уровней в пирамиде Маслоу, при одновременном отсутствии стремления к высшим ценностям, таким, как доброта, совершенствование, красота, эстетика. Между тем, многие психологи отмечают, что при отсутствии данных стремлений, то есть к высшему, пятому уровню в пирамиде Маслоу, человек «теряет» сам себя, часть своей души, как говорят философы.

Практикующие специалисты в области психологии утверждают о том, что всё же необходимо прислушиваться к себе и своим потребностям высокого уровня, то есть человек может их не замечать, но при этом – развивать. Отметим также, что потребности в самоактуализации и самореализации как способностей могут быть реализованы далеко не у большого количества людей в общей популяции, поскольку являются достаточно сложным и многогранным процессом, и сложно определить критерии достижимости того или иного эффекта достижения самоактуализации.

По мнению психолога-терапевта К.Роджерса, в каждом индивидуе, напротив, заложено стремление к самосовершенствованию и развитию. Однако некоторые люди просто не могут освободиться от более низших потребностей и зацикливаются на них. В соответствии с различиями индивидуальных особенностей, для разных типов людей Роджерс предложил разные типы обучения, которые помогут любой личности самоактуализироваться, в зависимости от того, в какой степени развиты у него эти потребности. Согласно К.Роджерсу, ключевым является направление реализации «Я-концепции», которая согласуется с личностным индивидуальным развитием в его тесной взаимосвязи с окружающей средой. На личностное развитие, согласно К.Роджерсу, оказывают воздействие различные внешние факторы. Саморегуляция поведения является в человеке внутренней способностью, тем не менее, полноценно любая личность может проявить себя именно во внешних проявлениях, например, во взаимодействии с другими субъектами. Отражение самореализации находится и в том, каким образом личность выражает те или иные эмоции и чувства по отношению к окружающей его действительности.

Применяя положения концепции К.Роджерса на педагогическую практику, следует отметить, что каждый педагог должен стремиться к такой ситуации, чтобы суметь увидеть в каждом обучающемся его личностные индивидуальные характеристики развития. То есть индивидуальный подход здесь является ключевым, целевым для практики педагогической деятельности. В самом человеке, по мнению Роджерса, заложены предпосылки для его личностного развития и роста. Исходя из этого, главная задача педагога – научить ребёнка и подростка разбираться в своих проблемах при участии взрослого, понять самого себя, с тем, чтобы он смог мобилизовать свои внутренние силы и развить свои внутренние способности.

**Вывод.** Таким образом, ребенок может получить «толчок» для саморазвития и самореализации сейчас и в будущем. Самоактуализация духовного становления учащихся - это вопрос, который уходит в самую глубь педагогики. Согласно многим авторам, каждому ребёнку естественно стремление к удовлетворению этой потребности, прежде всего, в свободном выражении творчества. Исходя из этого, в педагогике стоит острая проблема реализации творческих способностей с тем, что необходимо «выполнять согласно заданной школьной программе». Педагог должен находить баланс между «необходимым» и «желаем» самим учеником.

#### Литература:

1. Роджерс К.Р. Становление личности. - М.: Институт общегуманитарных исследований, 2018. - 241 с.
2. Маслоу А.Х. Мотивация и личность. - СПб.: Питер, 2014.
3. Солиева Х.О. Ўқувчилар тарбиясини шакллантиришда ота-оналарга педагогик билим бериш тизимининг аҳамияти // Замонавий таълим. - Т., 2018. - Б. 59-61.



**О МЕТОДИЧЕСКИХ АСПЕКТАХ ПОНЯТИЯ «ПРЕДЕЛЬНОГО ПЕРЕХОДА»**

**Менгнарв Холмурат Эргашович**, старший преподаватель ЧГПУ

**Аннотация.** В истории предельный переход как прием мыслительной деятельности результат признания существования актуальной бесконечности. В «недрах», в основании математического мышления, что тождественно теоретическому мышлению, находится поиск ответа на вопрос «почему так?». Возможно возникновение этого вопроса лежит в основании возникновения науки, в стремлении постижения мира, а также в необходимости накопления опыта как задачи обустройства человеком «окружающей» его среды. Однако понятие «окружающая» среда зависит от направления взгляда человека – «в себя» или «во вне». Эти направления противоположны, но парадокс в том, что именно в мыслительной деятельности их векторы направлений пересекаются, и, прежде всего, в процессе образования нового человека – носителя знаний, форм деятельности, умений, навыков.

**Ключевые слова:** предметные задачи, научный предмет, эпициклы и эндоциклы знаний, реализующие формы учебной деятельности, эпицикл, эндоцикл.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari nisbatan ko'p vaqtni kompyuter yoki mobil aloqasi vositasi bilan munosabatda bo'lishmoqda. Buning natijasida turli ruhiy va jismoniy illatlarga duch kelishayotgani sir emas. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda kompyuter, mobil aloqa vositasi kabi texnikalar bilan munosabatda bo'lishning me'yoriy asoslarini tarkib toptirishdan iborat. Negaki, 1-sinfdan boshlab kompyuter savodxonligi mashg'ulotlari amalga oshirilmoqda. Aynan mana shu mashg'ulotlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnik vositalardan oqilona foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mazkur pedagogik asoslarni o'zlashtirishi muhimdir. Buning uchun mutaxassislik o'quv fanlari innovatsion texnologiyaning pedagogik asoslari bo'yicha tegishli mavzular bilan boyitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogik ta'lim jarayonida barcha o'quv fanlari bo'yicha professor-o'qituvchilar innovatsion texnologiyalarning turlaridan unumli foydalanishga xarakat qilishadi. Lekin buning uchun, eng avvalo, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslariga rioya qilinishi kerak. Aynan oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik asoslarni o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi-



larining kelgusi faoliyatida muhim o'rin tutadi va u kasbiy kompetensiyaning tarkiblaridan biri sifatida qabul qilinishi kerak.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik asoslari bo'yicha nazariy, metodik va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda, ayniqsa, «Talabalar akademiyasi» vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ana shu masalalar bo'yicha ilmiy-tadqiqotchilikka jalb etish kutilgan samarani beradi. Umuman, bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning yangicha yondashuvlarga asoslangan pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Shu sababli mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan ko'nikma tarzida o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish asosi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki ko'pchilik talabalar texnik vositalardan foydalanishni bilgani holda, ularga, asosan, ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish asoslari bo'yicha etarli ko'nikmaga ega emas. Shu jihatdan, bu borada quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi: a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini turli, qulay va oson innovatsion texnologiyalar bilan tanish-tirish; b) innovatsion texnologiyalarning texnik va pedagogik asoslarini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'rgatish; v) tanlangan innovatsion texnologiyaning ijobiy va salbiy xususiyatlari to'g'risida tushuncha berish; g) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini tadriijiy tarkib toptirib borish [4]. Bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonining amaliy mashg'ulotlari va to'garaklari imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning innovatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmasini o'zlashtirish uchun mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. Unga ko'ra, professor-o'qituvchilar imkon qadar har bir talaba bilan individual tarzda innovatsion texnologiyalar asoslari bo'yicha tadbirlarni amalga oshirib borishi muhimdir. Bunda talabalar tashabbuslariga tayanish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish asoslari bo'yicha topshiriqlar berish, ularni turli jihozlar va ishlanmalar yaratishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mustaqil ta'lim vositasida innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmasini o'zlashtirish qiziqarli va amaliy jihatdan samarali kechadi. Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning qo'llay olish asoslari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ular bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

**Xulosa.** Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ta'lim muhiti asosi, pedagogik asosi va ularni qo'llay olish asosi mavjud. Mazkur masalalar ko'nikma shaklida o'zlashtirilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini kengaytiradi.

#### Adabiyotlar:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi: [www.Ziynet.uz](http://www.Ziynet.uz)
2. Yershova N. va boshq. Psixologiya. - T., 2021.
3. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. - T., 2021.
4. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. - T., 2023.

---

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA  
RIVOJLANTIRILADIGAN TABIIY-ILMIY TAFAKKUR MAZMUNI**

**Ochilov Fariddun Izatulloevich**, *pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), ChDPU*

**Annotatsiya.** Maqolada tabiiy-ilmiy tafakkur mazmuni, uni umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida rivojlantirish masalalari to'g'risida fikr yuritilgan va metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, ilm, tabiiy-ilmiy tafakkur, fikr, bilim, mazmun, ko'nikma, zaruriyat.

**СОДЕРЖАНИЕ ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНОГО МЫШЛЕНИЯ, РАЗВИВАЕМОГО  
У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ**

**Очилов Фариддун Изатуллоевич**, *доктор философии (PhD)  
по педагогическим наукам, ЧГПУ*

**Аннотация.** В статье рассматривается содержание естественно-научного мышления, вопросы его развития у учащихся общеобразовательных школ и даны методические рекомендации.

**Ключевые слова:** образование, наука, естественно-научное мышление, мысль, знание, содержание, умение, необходимость.

**THE CONTENT OF NATURAL SCIENCE THINKING DEVELOPED  
BY STUDENTS OF SECONDARY SCHOOLS**

**Ochilov Fariddun Izatulloevich**, *doctor of philosophy (PhD)  
in pedagogical sciences, ChSPU*

**Abstract.** The article discusses the content of natural science thinking, issues of its development among students of general education schools and provides methodological recommendations.

**Key words:** education, science, natural science thinking, thought, knowledge, content, skill, necessity.

**Kirish.** «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»da mamlakatimizda 2022-2026 yillarda sifatli ta'limga erishish vazifasi qo'yilgan [1]. Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish ham sifatli ta'limga erishish omillaridan biri hisoblanadi. Bu o'rinda e'tiboringizni tabiiy-ilmiy tafakkur mazmuni tahliliga tortamiz.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari»da «umumiy o'rta ta'limning turlari, bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi»ni ta'minlash alohida belgilangan. Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, kimyo va fizika tabiiy o'quv fanlari umumiy o'rta ta'limning keyingi bosqichida davom etadigan fanlarining o'ziga xos bosqichi, uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash predmetlari hisoblanadi. Bularning barchasi o'quvchilarda tabiiy-ilmiy tafakkurni turli yondashuvlar asosida o'rgatishning zaruriyatligini belgilaydi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy-ilmiy tafakkurni yuksak darajada va kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatish taqozo etiladi.

Mazkur masalaning turli jabhalari o'zbekistonlik olimlar tomonidan maqsadli tarzda tadqiq etilgan. Jumladan, M.B.Raximqulovanning nomzodlik dissertatsiyasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari jarayonda ekologik qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari hal etilgan [2]. Sh.M.Mirzaxmedovanning nomzodlik ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan [3]. N.J.Isaqlovanning tadqiqot ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil etilgan [4]. G.N.Najmiddinovanning tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari yoritilgan [5]. M.K.Shirinovning tadqiqotida boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tabiatshunoslik fanini o'qitish uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirilgan [6]. R.Ibragimovning doktorlik dissertatsiyasida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari ishlab chiqilgan [7].

Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy bilimini shakllantirishga qaratilgan va ayni paytda mazkur masala tabiiy-ilmiy tafakkurning asosi sifatida ta'kidlab o'tilgan.

Pedagogik manbalar va tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, tabiiy-ilmiy bilimlar majmuini quyidagilar tashkil etadi: 1) tabiat va borliq haqida ilmiy tushunchaga ega bo'lish; 2) tabiiy hodisalar haqida tushunchalarni egallash; 3) hayvonot va o'simliklar olami haqida kerakli darajada bilimli bo'lish.

Bunday yondashuv asosida shaxsda tabiiy-ilmiy bilimlar kutilgan darajada hosil bo'ladi. Mazkur yondashuv taqiotimizda metodologik asos sifatida qabul qilindi va tahlillarda asosiy e'tibor ana shu masalaga qaratildi. Shu jihatdan ta'kidlangan tabiiy-ilmiy bilimlarning tarkibi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan «Atrofimizdagi olam» va «Tabiatshunoslik» o'quv fanlarida o'z aksini topgan. Mazkur fanlar vositasida tabiiy-ilmiy bilimlarni o'quvchilarga berish 1-4 sinflar xususiyatlariga adaptiv ravishda bosqichma-bosqich takomillashtirilib borilgan. Bu boradagi bugungi asosiy vazifalardan biri – kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirib borishdan iborat. Mavjud ilmiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim mazmuni va o'qitish metodikasiga nisbatan turli-tuman yondashuvlar mavjud. Ta'lim nazariyasiga oid ishlarni har tomonlama o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim mazmunini belgilashda jamiyat hayotining ijtimoiy rivojlanishi ustuvor ahamiyat kasb etadi [9]. Ushbu masalaga dastlab faylasuflardan Platon, Aristotel va Sitsironlar e'tibor qaratgan. O'quvchilarni «nimaga o'rgatish kerak?», – degan savolga javob izlash jarayonida pedagogikaning butun tarixi davomida ta'lim mazmuniga oid turli nazariyalar va ta'lim muassasalari vujudga kelgan.

Tafakkur tushunchasi mazmuni. «Tafakkur» so'zi arabcha bo'lib, fikrlash, aqliy bilish va anglash ma'nolarini anglatadi [8]. Shu sababli pedagog olimlar tafakkur tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishadi: «tafakkur – insonlarning aqliy faoliyati va ongli harakatlarining yuksak shakli hisoblanib, ijtimoiy muhitni va mavjud jarayonlarning vujudga kelish sabablarini hamda voqelikni anglash vositasidir». Shu jihatdan tafakkurda quyidagilar o'ziga xos o'rin tutishini ta'kidlash lozim: 1) tafakkurda voqelik umumlashgan holda aks etadi. Bunda hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga narsa va hodisalarning mohiyatini anglash imkonini beradi; 2) tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi. Unda yangi bilimlar tajribaga aylanadi va kishida fikrlashning ko'nikmasi paydo bo'ladi; 3) tafakkur insonning ijodiy faoliyatidir. Bunda narsa va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish

amalgaga oshadi; 4) tafakkur til bilan uzviy aloqadadir. Unda kishida paydo bo'lgan fikr til vositasida ifodalanadi.

E'tibor berilsa, tafakkur – bu keng va chuqur fikrlashning hosilasidir. Shu jihatdan psixologlar tafakkurni miyada sodir bo'ladigan jarayon sifatida qabul qilishadi [9]. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning tafakkuri umumiy o'rta ta'lim jarayonida shakllantiriladi. O'quvchilar umumiy o'rta ta'lim jarayoniga qadar oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida narsa va hodisalar to'g'risida fikrga ega bo'lishadi. Umumiy o'rta ta'lim jarayonida ana shu fikr tafakkurga aylantiriladi.

O'quvchilarning tafakkurini tarkib toptirishda o'quv fanlarining ahamiyati kattadir. Shu jihatdan bu borada tabiiy fanlarning o'rni ham muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) geografiya, biologiya kabi tabiiy fanlarning mashg'ulotlarini qiziqarli va samarali o'tkazish vositasida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini shakllantirish; 2) maktabdan tashqari mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini shakllantirish; 3) o'quvchilar bilan individual tarzda ishlash vositasida ularning tabiiy-ilmiy tafakkurini shakllantirish.

Bunday yondashuv umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkurini maqsadli rivojlantirish imkonini beradi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, adabiyotlarda «tafakkur» tushunchasi bilimdonlik, ongillik va g'oyaviylik ma'nolarida ham ishlatiladi. Chunki bu tushunchaning negizini «fikr» so'zi tashkil qiladi [8]. Shu jihatdan tafakkur tushunchasini, eng avvalo, muayyan soha bo'yicha bilimdonlik ma'nosida tushunish lozim bo'ladi. Bunda, asosan, chuqur bilimga ega bo'lish nazarda tutiladi. Barcha shaxs bilimli bo'lishi mumkin, biroq muayyan soha bo'yicha chuqur va keng bilimga ega bo'lish bilimdonlik ma'nosini anglatadi. Tafakkur tushunchasining ongillik ma'nosi muayyan fan sohasi bo'yicha shaxsning keng ko'lamli tushunchalarga ega bo'lishini bildiradi. Shu ma'noda ongillik umumiy o'rta ta'dim maktablari o'quvchilarining bizning tadqiqotimiz mavzusi bo'yicha tabiiy fanlarning asoslarini kutilgan darajada tushunishi bilan belgilanadi. Bunda ongillikning o'quvchi shaxsida va faoliyatida muhim o'rin tutishiga e'tibor berish lozim. Xuddi, shuningdek, g'oyaviylik tafakkur tushunchasining navbatdagi ma'nosini anglatadi. Unda tabiiy fanlar bo'yicha maqsadli yondashuvga ega bo'lish, ularning asoslarini o'zlashtirishga tayyorgarlik va muayyan darajada layoqatlik nazarda tutiladi. Shu ma'noda g'oyaviylik o'quvchilarning tabiiy fanlar asoslarini idrok etish ko'nikmasiga ega bo'lishini bildiradi.

E'tibor berilsa, bilimdonlik, ongillik va g'oyaviylik tafakkur tushunchasining ma'nosini tushuntiradi, aynan mana shu tarkiblarga, asosan, tafakkur tushunchasi idrok etiladi. Shu jihatlari bilan tafakkur tushunchasi fikr tushunchasidan farq qiladi. Bu o'rinda tabiiy-ilmiy tushunchalarning ham ma'nosini izohlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Tabiiy tushunchasi mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan va jonli predmet ma'nolarini anglatadi. Aynan bu tushuncha tabiatga xos bo'lib, u borliqning mavjudligini va borliq tabiiy qonuniyatlariga, asosan, mavjud ekanligini nazarda tutadi. Shu sababli tabiat va uning hodisalariga nisbatan tabiiy tushunchasini qo'llash ilmiy va metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Shu ma'noda ilmiy tushunchasi ham o'ziga xos ma'noni anglatadi. Unga ko'ra, asoslarga ega bo'lgan va ma'lumotlar bilan isbotlangan bilimlar majmui ilmiy hisoblanadi.

Kezi kelganda eslatib o'tish lozimki, mazkur tushuncha ham arabcha bo'lib (alif+lom=ilm) ma'nosini anglatib, bu tushuncha pedagogikamizda XX asming 20-yillarida ilmiy atama sifatida ishlatila boshlangan. Shu ma'noda ilmiy tushunchasining negizini ma'lumot asosida isbotlangan ilm tashkil qiladi. Diqqat qilinsa, aynan tabiiy va ilmiy

tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lib, u tabiiy fanlarning asoslarini tashkil etadi. Shu sababli tabiat va borliq bilan bog'liq predmetlar «tabiiy fanlar» (tabiiy ilmlar) deb yuritilishini eslatib o'tish joiz. Mazkur tushunchalarga bunday yondashish o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurga ega bo'lishi yondashuvining ma'nosini to'g'ri idrok etish imkonini beradi. Unga ko'ra, o'quvchilar tabiat va borliq to'g'risida tabiiy qonuniyatlarga asoslangan bilimlilik, ongillik va g'oyaviylik ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Aynan mana shunday yondashuv o'quvchilarning «tabiiy-ilmiy tafakkuri» tushunchasining ma'nosini anglatadi.

Eslatib o'tish joizki, xorij pedagog olimlari mazkur masala bo'yicha individual yondashuvlarga ega [10]. Misol uchun, rossiyalik pedagog olimlar V.Pakulov va V.Kuznesova o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tushunchalarini tarkib toptirish uchun asosiy e'tiborni metodikaga qaratadi. Ularning fikricha, tabiiy-ilmiy tushunchalarning tarkib topishida oddiylilik va murakkablik masalalariga e'tibor berish lozim. Unga ko'ra, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tushunchalari boshlang'ich ta'lim jarayonida oddiylilik tamoyiliga, asosan, tarkib topadi va keyingi sinflarda mazkur tushunchalar murakkablik tamoyiliga binoan rivojlanib boradi [10, 58-b.]. Ushbu tushunchalarning rivojlanib borish jarayonida botanika, zoologiya, biologiya, anatomiya, fiziologiya va geografiya fanlarining muhim o'rin tutishini pedagog olimlar alohida ta'kidlab o'tishadi. Misol uchun, ular yozishadi: «Geografiya tabiat to'g'risidagi tabiiy-ilmiy bilimlarni, biologiya tabiiy mavjudotdagi xususiyatlarni va anatomiya insonning tabiiy borlig'ini tushuntirish bilan o'quvchilarda tabiiy-ilmiy bilimlarni tarkib toptiradi» [10, 59-b.]. Mazkur yondashuv bizning tabiiy-ilmiy tafakkur tushunchasi va masalasiga bo'lgan yondashuvimizga mos keladi. Shu jihatdan xorijlik pedagog olimlarning yondashuvlarini hisobga olgan holda tabiiy-ilmiy tafakkur masalasini to'g'ri idrok etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularning barchasi tabiiy-ilmiy tafakkur tushunchasi ma'nolarini keng tushunish imkonini beradi.

Tabiiy-ilmiy tafakkur xususiyatlari. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkuri o'z xususiyatlariga ega bo'lishini ta'kidlab o'tish lozim. Bunda quyidagilar yaqqol ko'zga tashlanib turadi: 1) o'quvchilarning bilimlarni his-tuyg'u vositasida o'zlashtirishi; 2) narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga intilishi; 3) o'quvchilarda bilish vositasida fikrlash ko'nikmasining tarkib topishi. E'tibor berilsa, bu xususiyatlar o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkur tarzini ifodalaydi. Shu sababli mazkur xususiyatlarga asosan o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni uchun o'ziga xos ta'lim muhitini yaratish taqozo etiladi. Unga ko'ra, ta'lim muhiti o'quvchilarda narsa, voqelik va hodisalarni tabiiy qabul qilish, ularning mohiyatini o'rganishga intilish hamda fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirish imkoniyatlarini berishi lozim. Buning natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida tabiiy-ilmiy tafakkurning tarkib topishiga erishiladi. Pedagog olimlarning umumiy fikricha, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkuri shakllanish va rivojlanish bosqichida bo'ladi [10]. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari tabiiy-ilmiy tafakkurining shakllanish va rivojlanib borish xususiyatlari muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida mazkur xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga egadir.

Tabiiy-ilmiy tafakkur ko'nikmasi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkuri ko'nikma shaklida tarkib toptirilishi muhim amaliy ahamiyatga ega. Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkuri ko'nikmasida quyidagilar mavjud bo'ladi: 1) borliq, narsa, hodisa va voqeliklarni tabiiy qabul qilish; 2) borliq, narsa, hodisa va voqeliklar mohiyatini ilmiy bilishga intilish; 3) borliq, narsa, hodisa va voqeliklar to'g'risida tajriba o'ttirib borish. Shu sababli o'qituvchilar, ayniqsa, tabiiy fanlar o'qituvchilari mazkur masalalarga diqqat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchilarning

tabiiy-ilmiy tafakkur ko'nikmasida tabiiylik, ilmiylik va tajriba uyg'un namoyon bo'ladi. Buning uchun o'quv fanlarini o'qitish jarayonida tabiiylik, ilmiylik va samaradorlik tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiqdir. E'tibor berilsa, «tabiiy-ilmiy tafakkur» tushunchasi o'ziga xos mazmun va xususiyatlarga egadir. Mazkur masalalar bo'yicha oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ko'nikmasini tarkib toptirish muhimdir.

**Xulosa.** Shunday qilib, tabiiy-ilmiy tafakkur mazmunida bilish, his qilish va tajriba o'rtirish muhim o'rin tutadi. Mana shunday yondashuv asosida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkuri idrok etiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi: [www.Ziynet.uz](http://www.Ziynet.uz)
2. Raximqulova M.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari jarayonda ekologik qadriyatlar ruhida tarbiyalash: Ped. fanl. nomz. ... Dis. - T., 2000.
3. Mirzaxmedova Sh.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. nomz. ... Dis. - T.: O'zPFITI, 2006.
4. Isaqulova N.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fanl. nomz. ... dis. Avtoref. - T., 2006.
5. Najmiddinova G.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Ped. fanl. nomz. ... Dis. - T., 2006.
6. Shirinov M.K. Tabiatshunoslik fanini o'qitish uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish (boshlang'ich ta'lim yo'nalishi misolida): Ped. fanl. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... dis. Avtoref. - Chirchiq, 2021. - 42 b.
7. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. - T.: O'zPFITI, 2005. - 265 b.
8. Ma'naviyat – asosiy tushunchalar izohli lug'ati. - T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. - 540 b.
9. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: Fan va texnologiya, 2009. - 490 b.
10. Пакулова В.М., Кузнецова В.И. Методика преподавания природоведения. - М.: Просвещение, 1990. - 192 с.

---

## KASBIY SO'NISH SHIFOKOR-PEDAGOG SHAXSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARIDAN BIRI SIFATIDA

**Shoyimova Shoxista Sanakulovna**, *psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**Annotatsiya.** Maqolada shifokor-o'qituvchining kasbiy charchashi haqida gap boradi.

**Tayanch so'zlar:** shifokor, o'qituvchi, kasb, charchash, faoliyat.

## ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ВЫГОРАНИЕ КАК ОДНА ИЗ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ ВРАЧА-ПЕДАГОГА

**Шойимова Шохиста Санакуловна**,  
*кандидат психологических наук, доцент*

**Аннотация.** В статье речь идёт о профессиональном выгорании врача-педагога.

**Ключевые слова:** врач, педагог, профессия, выгорание, деятельность.

## PROFESSIONAL BURNOUT AS ONE OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF A DOCTOR-TEACHER

**Shoimova Shohista Sanakulovna**, *candidate of psychological sciences,  
associate professor*

**Abstract.** The article deals with the professional burnout of a doctor-teacher.

**Key words:** doctor, teacher, profession, burnout, activity.

**Kirish.** Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga, asosan, uning sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu muammoning yechimini hal qilish asosida pedagogik jarayonga innovatsion texnologiyalarni faol kiritish yotadi. Joriy o'zgarishlar uchun faqatgina pedagogning yuqori professional bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi talab etilib qolmasdan, balki uning shaxs sifatida rivojlanganligi va psixologik o'zini qanday his qilishi ham e'tiborga olinadi.

**Asosiy qism.** Pedagoglarga qo'yiladigan barcha yangi talablar o'z ustida doimiy ishlash, kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish, malaka oshirish, ichki resurslarni to'la safarbar etishni talab yetadi. Kasbiy faoliyat jadalligi pedagogik ish har doim stressli vaziyatlarning yuqori darajada to'yinganligi bilan tavsiflangan bo'lishiga qaramay, psixofiziologik funksiyalar barqarorligining pasayishida, emotsional beqarorlik, zo'riqish holatida namoyon bo'ladi. Pedagog ish qobiliyatining pasayishi, hissiy toliqishi, faoliyat natijasining yomonlashuvi, xotira susayishi, diqqatsizlik, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarishning buzilishi – bu pedagogik faoliyatga uzoq muddat davomida stresslarga sabab bo'luvchi salbiy omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladi. Natijada, pedagog o'z kasbiga nisbatan noroziligi, emotsional va jismoniy toliqishi namoyon bo'ladi. Bularning barchasi kasbiy so'nish sindromini xarakterlaydi. Mazkur muammo psixologik adabiyotlarda va tadqiqotlarda (M.V.Agapova, V.V.Boyko, M.V.Borisova, N.YE.Vodopnova, M.A.Vorobyova, K.A.Dubinitzskaya, V.YE.Orel, T.V.Formanyuk, YE.G.Kapitanets va h.k.) o'rganilgan bo'lsada, ushbu holatning namoyon bo'lishidagi omillarni aniqlash, ularni oldini olish va bartaraf etish masalasi dolzarbligicha qolmoqda [1, 2, 3].

Kasbiy «so'nish» – (ing. «burnout», psixologik adabiyotlarda rus tilida «vigoraniye», o'zbek tilida esa, «so'nish», «kuyish» yoki «yonish» degan ma'nolarni anglatadi. Hozirgi vaqtda professional so'nish va uning tuzilmasining mohiyati bo'yicha yagona nuqtai nazar mavjud emas. So'nggi ma'lumotlarga tayangan holda, «kasbiy so'nish» deganda, emotsional sohali kasblarda kuzatiluvchi fiziologik, hissiy va aqliy toliqish, zo'riqish holati tushuniladi [4, 5]. «Kasbiy so'nish»ning xavf guruhlariga shifokor, psixolog, pedagog, menejer, xuquqni himoya qilish organ xodimi, mansabdor shaxs, tez-tez ish safarlariga chiqadigan kasb egalari, xizmat ko'rsatish soha vakillari kiradi. Pedagoglarda «hissiy toliqish sindromi»ning yuzaga kelish sabablari: imkoniyatlariga ortiqcha baho berish – «qahramonlik», mukammallikka intilish; kasbiy faoliyatini amalga oshirishda pedagogdagi yuqori javobgarlik; faoliyatga nisbatan yuqori emotsional yondashish; «O'z o'mini topa olmaslik» hissi; dam olishni bilmaslik; ish joyidagi salbiy ijtimoiy sharoit va psixologik muhit; ish kuni davomidagi yuklamaning ko'pligi; qat'iy vaqti chegaralangan faoliyat; shaxsiy emotsional holatni boshqara olishni bilmaslik; o'qitish jarayoni va olinadigan natija bilan aniq o'zaro aloqaning mavjud emasligi, sarflangan mehnat uchun mos kelmaydigan natijaning bo'lishi; muloqotga kirishish va talabalar, hamkasblar, ma'muriyat bilan konfliktli vaziyatlarda to'g'ri muloqot yo'lini tanlash ko'nikmalarining yo'qligi; pedagogik faoliyatni tashkil qilishning to'g'ri «boshqarilmasligi» (yuklama, dars jadvali, xona, ma'naviy va moddiy qo'llab quvvatlash); ma'lumotlarning haddan ortiq ko'pligi.

Psixolog N.V.Samoukinaning fikriga ko'ra, «kasbiy so'nish» sindromini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: psixofiziologik, ijtimoiy-psixologik va hulq-atvorga oid.

Psixofiziologik simptomlarga quyidagilar kiradi: doimiy, o'tib ketmaydigan charchoq hissi, kunning kechki paytidan tashqari yana ertalab va uyqudan keyin ham kuzatilishi (surunkali charchash simptomi); emotsional va jismoniy charchoq hissi; tashqi muhit o'zgarishlariga nisbatan javob berish va ularni anglab yetishning pasayishi (yangiliklarga nisbatan qiziquvchanlikning susayishi yoki havfli holatlarda qo'rquvning bo'lmasligi); umumiy astenizatsiya (holsizlik, aktivlikning pasayishi, qon biokimyoviy va gormonal ko'rsatkichlarning yomonlashishi); tez-tez sababsiz bosh og'rish, oshqozon-ichak tizimidagi doimiy buzilishlar; tana vaznining to'satdan kamayishi yoki oshishi; to'liq yoki qisman uyqusizlik (tez uxlab qolish va tonggi uyqusizlik soat tongi 4 dan boshlab, yoki aksincha, kechasi tungi soat 2-3 ga qadar uxlay olmaslik va ertalab «qiyin» uyg'onish); doimiy uyquchanlik holati va butun kunni uyqu bilan o'tkazishni xohlash; jismoniy yoki emotsional zo'riqishda hansirash; ichki sezgilarning sezilarli darajada pasayishi: ko'rish, eshitish, hid sezish va taktil sezgilarning pasayishi, ichki tana sezgilarining yo'qolishi.

Ijtimoiy-psixologik belgilarga quyidagilar kiradi: beparvolik, zerikish, passivlik va depressiya (emotsional tonusning pastligi); arziyas muammolarga nisbatan ham kuchli asabiylashish; tez-tez asabiy zo'riqishlarning bo'lib turishi (muloqotdan bosh tortish); tashqi sabablar bo'lmasa ham doimiy salbiy his bilan yurish (o'zini ayblash, shubhalanish, uyalish); sababsiz bezovtalik hissi va o'ta darajada ko'p tashvishlanish («nimadir o'z o'rnida emas» degan hissiyotning bo'lishi); yuqori javobgarlik hissi va doimiy «amalga oshmay qoladi» yoki «eplay olmayman» qabilidagi hissiyotning bo'lishi; hayotiy va kasbiy hodisalarga nisbatan umumiy negativ qarashlar («qancha harakat qilsang ham baribir hech narsa o'zgarmaydi» qabilidagi fikrlar).

Hulq-atvorga oid simptomlariga quyidagi ko'rinishdagi o'zini tutish belgilari kiradi: ishning borgan sari qiyinlashishi va uni amalga oshirishning ham borgan sari qiyinlashib borish hissi; xodimning o'z ish kun tartibini sezilarli darajada o'zgartirishi (ishga erta kelish va kech ketish yoki aksincha, ishga kech kelib erta ketish); zarur bo'lganda xodim



doimiy ravishda ishini uyiga olib ketishi va uni uyda amalga oshirmaslik; boshliqning turli qarorlar qabul qilishdan bosh tortishi va buni boshqalarga tushuntirishni xohlamasligi; samarasizlik hissi, ishga nisbatan entuziazmning susayishi, natijalarga nisbatan befarqlik; asosiy va muhim ishlarning amalga oshirilmay qolishi, lekin ko'p vaqt talab qiladigan va muhim bo'lmagan mayda ishlarga «o'ralashib» qolish [3, 5, 6].

Ishni tashkil qilish bilan bog'liq kasbiy so'nishning uch omili ajratib ko'rsatiladi: 1) Shaxsiy omil. Ish joyidagi rivojlanish, avtonomlik va boshqaruvdagi shaxsiy ahamiyatlilik hissi. Agar inson mehnat jamoasida o'zini ahamiyatli his etsa, u holda hissiy so'nishga nisbatan turg'un bo'ladi. Aksincha bo'lsa, u holda ushbu sindrom tezroq rivojlanadi. Shuningdek, kasbiy o'sishdan qoniqmaslik, atrofdagilarning fikriga ortiqcha qaramlik va erkinlikning yetishmasligi ham sabab bo'lishi mumkin. 2) Rolli omil. Ushbu holat xodimlarning mas'uliyatini taqsimlashdagi noaniqlikda yuzaga keladi. Shuningdek, hamkasblarning umumiy fikri muayyan vaziyatlarda bir-biriga to'g'ri kelmaganda ham sodir bo'ladi. Jamoa bilan kelishilgan holda vazifa va mas'ulliklar to'g'ri taqsimlanishi, ish yuklamasi bir qancha yuqori bo'lsa ham xodimlarda hissiy so'nish sindromi rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. 3) Tashkiliy omil. Ko'pgina tadqiqotlarda ko'rsatishicha, bu sindromning rivojlanishiga noaniq, ko'p soatlik vazifa (funktional majburiyatlari aniq belgilab berilmagan) yoki ular yetarlicha baholanmasligi sabab bo'ladi. Bu holatda boshqarish usuli emas, balki rahbar tomonidan xodimning mustaqil ishlashiga yo'l qo'yilmaligi («tashabbusga jazo» ko'rinishida) va oqibatda uning qilayotgan ishiga javobgarlikning yuqolishiga olib keladi [7].

**Xulosa.** Pedagogning kasbiy so'nish sindromi jihatlari, bosqichlari va omillarini bilishi uning ushbu holat rivojlanishi vaqtida profilaktik chora ko'rishiga yordam beradi. Pedagogda emotsional so'nishning profilaktikasi kompleks, psixologik, tashkiliy va psixik buzilish holatini to'g'irlashga qaratilgan va zarur bo'lganda jamoaviy psixologik muhitni yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan pedagoglarning ruhiy salomatligini saqlash bo'yicha aniq maqsadli ishlarni tashkil etishga katta e'tibor berilishi kerak.

### Adabiyotlar:

1. Агапова М.В. Возможности социально-психологической реабилитации специалистов помогающих профессий, имеющих синдром эмоционального выгорания // Вестник интегративной психологии. - Ярославль, 2004. - С. 19-21.
2. Бабич О.И. Профилактика синдрома профессионального выгорания педагогов: диагностика, тренинги, упражнения. - Волгоград: Учитель, 2009. - 116 с.
3. Бодров В.А. Психология профессиональной деятельности. - М.: PerSe. - 2001. - 511 с
4. Орел В.Е. Феномен «выгорания» в зарубежной психологии: эмпирические исследования и перспективы // Психологический журнал, 2001, Т.22, № 1, С.90-101.
5. Умаров Б.М., Шойимова Ш.С. Касбий психология: Дарслик. - Т.: LESSON PRESS, 2018. - 278 б.
6. Воробьева М.А. Исследование эмоционального выгорания у педагогов // Образование и наука. Изв. Урал. отд-ния Рос. Акад. образования. - 2006. - № 1. - С. 70-75.
7. Филина С.В. «О синдроме профессионального выгорания» и технике безопасности в работе педагогов и других специалистов социальной сферы // Школьный психолог. - М., 2003. - № 36. - С. 12-13.

**IRODA SIFATINI EKSPERIMENTAL O'RGANISH**

**Sagindikova Nargiza Jubatkanovna**, QDU dotsenti, PhD, Bekbergenova Dilfuza, QDU magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarda irodaviy sifatlarining psixologik o'ziga xosligi. Iroda sifatlarini eksperimental o'rganish va psixodiagnostik metodikalar yordamida olingan ma'lumotlarning empirik qiymatlari keltirib o'tilgan. Tadqiqot mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda irodaviy sifatlarning maktab oquvchilaridagi farqlarini yoritishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, irodani rivojlantirishga doir tavsiyalar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** iroda, faollik, mas'uliyatlilik, o'z-o'zini baholash, qat'iyatlilik, matonat, rolli o'yinlar, sabr-bardoshlilik, tirishqoqlik, g'ayratlilik, ziyraklik.

**ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КАЧЕСТВА ВОЛИ**

**Сагиндикова Наргиза Джубаткановна**, доцент КГУ, PhD, Бекбергенова Дилфуза, магистрант КГУ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается психологическая специфика силы воли у студентов. Приводятся экспериментальные исследования волевых качеств и эмпирическое значение данных, полученных с помощью психодиагностических методов. Исходя из сущности исследования, уделено внимание выяснению различий волевых качеств у школьников. Кроме того, приведены рекомендации по развитию воли.

**Ключевые слова:** воля, активность, ответственность, самооценка, решительность, настойчивость, ролевые игры, терпение, энтузиазм, интеллект.

**EXPERIMENTAL STUDY OF THE QUALITY OF WILL**

**Sagindikova Nargiza Dzhubatkanovna**, associate professor of KSU, PhD, Bekbergenova Dilfuza, master's student of KSU

**Abstract.** This article examines the psychological specifics of willpower in students. Experimental studies of volitional qualities and the empirical significance of data obtained using psychodiagnostic methods are presented. Based on the essence of the study, attention was paid to clarifying the differences in volitional qualities among schoolchildren. Recommendations for the development of will are also given.

**Key words:** will, activity, responsibility, self-esteem, determination, perseverance, role-playing games, patience, enthusiasm, intelligence.

**Kirish.** Psixologiya fanida iroda kategoriyasi kishilik jamiyati ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixologik taraqqiyotining har bir bosqichida muayyan darajada o'rganilgan. Chunki taraqqiyotning har bir davri uchun shaxs kamoloti alohida ahamiyat kasb etgan, uning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan irodaviy sifatlar, ularning turmushdagi o'rni qat'iy ta'kidlangan.

**Asosiy qism.** Jamiyat farovonligini harakatlantiruvchi kuchi sifatida shaxsning yuksak darajada ulug'lanishi va baholanishi unga nisbatan diqqat-e'tibor sira pasaymagan. Shuning uchun iroda falsafa va psixologiya fanlarining tadqiqot predmetida puxta o'rin egallaganligi uning dolzarb mavzu ekanligini bildiradi. Hozirgi davrda mamlakatimizda barkamol avlod shakllanishiga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi tufayli mazkur muammo keng ko'lamda tadqiq qilinishga loyiq. Jahonda irodaviy faollikni rivojlantirish masalasi

shaxs kamolotini ta'minlovchi omil sifatida e'tirof etilmoqda. Darhaqiqat, insonning har qanday faoliyatda iroda yetakchi o'rin egallaydi. Shu jihatdan bugungi kunda yoshlarni irodali, mas'uliyatli, sabr-bardoshli qilib tarbiyalashga e'tibor ortib bormoqda. Bu borada psixologik tajribalar doirasida, shaxslilik xususiyatlar bilan irodaviy faollik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Shaxsning irodaviy sifatlarini baholash, ularda aqliy va ixtiyoriy boshqaruvning tarkib topishi, o'zini o'zi nazorat qilish, irodaviy faollik va shaxslilik xususiyatlarining o'zaro mutanosibligini tahlil qilish, psixologik tadqiqotlarning o'ziga xos muhim yo'nalishi sanaladi. Shuningdek, shaxsning irodaviy sifatlarini rivojlanishida turli omillarning ta'sirini aniqlash, ular xulqidagi hissiy-irodaviy nomutanosiblikni korrektsiya qilish dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda. Shu munosabat bilan yurtimizda o'sib borayotgan yoshlarning ijtimoiy faolligini ta'minlashga, ularning tashabbuskorligini yuksaltirishga, tanqidiy tahlil, intizomlilik, vatanparvarlik, shaxsiy javobgarlik tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Iroda muammosini bugungi kunda dolzarbligini inobatga olib tadqiqotlarimizni oliy ta'lim muassasalari talabalarining irodaviy faolligini vaziyatli va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratdik. Bizning asosiy maqsadimiz o'quvchilarda irodaning namoyon bo'lishi va shaxslilik xususiyatlar bilan bog'liqlik jihatlarini aniqlab olishdan iborat edi.

Zamonaviy iroda g'oyasi ushbu kontseptsiyaga qo'shimcha xususiyatlarni kiritish orqali boyidi. Masalan, Yum irodani «biz tanamizning qandaydir yangi harakatini yoki ruhimizni yangi idrok etishni ongli ravishda yuzaga keltirganimizda biz boshdan kechiradigan va ongli bo'lgan ichki taassurot», – deb ta'riflab, aslida iroda ongini iroda ongiga ega ekanligini ko'rsatdi. Insonga xos bo'lib, u tajriba xarakteriga ega, iroda harakatlari ongli ravishda amalga oshiriladi, iroda ifodasi harakatdan oldin keladi. Iroda «irodaviy sifatlar» deb ataladigan xarakter tuzilishiga kiruvchi ma'lum shaxsiy fazilatlarni shakllantiradi. Shaxsning ixtiyoriy xususiyatlari – bu hayotiy tajriba orttirish jarayonida shakllangan va irodani amalga oshirish va hayot yo'lidagi to'siqlarni engib o'tish bilan bog'liq bo'lgan shaxs xususiyatlari.

Hozirgi kunda o'quvchilarda iroda sifatlaridan mas'uliyatni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, kichik maktab yoshi o'quvchilarida mas'uliyatni shakllantirish natijasida biz bolalarda halollik, adolat, prinsiplarga sadoqat, o'zlar harakatlarining oqibatlar uchun mas'ul bo'lishga tarbiyalaymiz. Iroda hususiyatlar tug'ilgannan payda bo'lmaydi, biz ularni yosh davrlariga va situatsiyalarga bog'lagan holatda ko'rishimiz mumkin. O'z harakati va qilmishining yakunlovchi natijasini avvaldan ko'ra bilish, mas'uliyatni o'zlar zimmasiga olishi va o'z harakatlarini boshqarish qobiliyati, L.I. Bajovich, «Iroda – hamma rivojlangan, etuk shaxslarga tegishli emas» degan. Psixologlarning fikriga ko'ra, agar siz irodani bolalikdan rivojlantirsangiz va o'rgatsangiz, katta yosh davrlarida o'zlaringizni boshqarishda ko'proq yuqori natijaga erishingiz mumkin.

Mas'uliyatning yoshga aloqadorliging o'rganishdagi yonalishning asoslovchisi Jon Pijae hisoblanadi. Uning «Bolaning ma'naviy fikrlashi» fundamental tadqiqot asosida har xil tajriba ishlarini o'tkargan. Bundan tashqari, u ilgari surgan ma'naviy rivojlanish ikkita bosqichli teoriya mundarijada va modifikatsiyalashtirilgan. 1958-yilda Xayder mas'uliyatni ta'riflovchi besh saviyani taklif etdi. O'sha yilning o'zida Kolberg ma'naviy rivojlanishning olti boshqishini ko'rsatadi. Rus amaliy psixologi S. Yu. Golovining lug'ati shuni aniqlaydi: inson foaliyatini nazorat sifatida mas'uliyat inson tomonidan ilgari qabul qilingan me'yor va qoidalar yordamida turli sirtqi ko'rinishlari yoki jamiyatta bor bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, mas'uliyatning ikkita shakli ajratiladi: «sirtqi» mas'uliyat, jazalanish va boshqalarini nazarda tutadi va «ishki», masalan, mas'uliyat hissi (burch) va boshqalar. Psixologiya va pedagogikaning entsiklopedik lug'ati mas'uliyatning bir nechta ta'riflarini ko'rsatadi.

Mas'uliyat tariflari: 1. Jamiyatta qabul qilingan pozitsiyadan o'zlarini-o'zlari nazorat qilish me'yorlar va qoidalar. 2. O'zlari harakatlari uchun mas'ul bo'lmoqqa tayyorlik va qobiliyati. 3. Xarakter sifati.

M.Y.Matyuxina va S.G.Yorikovalarning fikriga ko'ra, faoliyatda mas'uliyatning paydo bo'lishining asosiy kriteriyalari quyidagilar bo'lishi mumkin: o'qituvchining talablarini tezlik bilan va tugallamasiga qadar bajarish qobiliyati; o'z faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirish qobiliyati; darsda va uy vazifasini tayorlashda mustaqilligini ko'rsatish qobiliyati; o'z xulq-atvori va tengdoshlarining xulq-atvoriga etikaliq baho berish qobiliyati; o'qitishga va o'qituvchining talablariga ijobiy munosabatning paydo bo'lishi, o'rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishdan qoniqish; topshiriqni bajarishda xohlagan ixtiyorli harakatlardan foydalanish. Javobgarlikli o'quvchi ta'limning social qadriyatlarin tushinadi, o'qishga bo'lgan munosabatini, xulq-atvorini, individual fazilatlarini baholashda tanqidiy qaraydi va xatolarini to'g'ri e'tirofni biladi.

A.S.Makarenko birinshilardan bo'lib shaxsning etikaliq fazilatlarini o'rgangan va mas'uliyatni tarbiyalashning asosiy ahamiyatini ko'rsatgan. Uning fikrisha, «mas'uliyat» – bu ko'p muammolarning yechishda tarbiyaviy vositadir va mas'uliyat tajribasi eng katta qiyinchilik bilan jamoada tarbiyalanadi, lekin u tarbiyalanganda ajoyib ishlar va o'z vazifalarini ishlaydi.

J.Piaje bolalarda mas'uliyat haqidagi ideyalar, fikrlar paydo bo'lishi bilan shug'ullangan. Muallifning fikriga ko'ra, har qaysi etika qoidalar tizimi bo'lib, uning mohiyati o'sha qoidalarga hurmat, ehtiromga erishishdan iborat. Etika qoidalarining ko'pchiligi bola kattalardan oladi. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchidan, bolalar har xil bolalar o'yinlari qoidalarini bilish va bajarish orqali social xulq-atvor ko'rinishlarin o'rganadi.

O'yin qoidalariga kelsak, J.Piaje ikkita hodisani xarakteristikalaydi:

1. «Amaliy qoidalar». Bu turli yoshdagi bolalarda qoidalarni qo'llash uslublari. Amaliy qoidalarni o'zlashtirish jarayoni bir nechta bosqichlarga bo'linadi.

2. «Qoidalardan voqiflik». Bu o'yining tabiyaati haqida balada bor bo'lgan bilim, ideyalar. Piaje bolalarning o'yin qoidalarini bilish bosqichlarini ajratib ko'rsatadi.

Bolaning qoidalarga munosabati o'zgarishsiz qolmaydi. J.Piaje o'zlar ishlarida bolalarning etikaliq fikrlaridagi genetik o'zgarishlarni o'rganishga katta e'tibor beradi. Muallif mavzularga ikkita hikoyani taklif qiladi. Ularning har birining qahramoni etik mohiyatga ega bo'lgan harakatni ro'yobga shiqaradi.

Bolaning iroda fazilatlarini, xususan, mas'uliyatni shakllandirishda o'yinning ahamiyati katta ekanligi psixologlar tomonidan aytilgan. L.I.Bajovich o'zining «Ontogenezdada irodaning rivojlanishi» asarida aytib o'tadi: O'yinda bola aniq qoidalarga bo'ysunishi zarur: u yoki bu ro'lni o'zlari uchun tanlagan bola, darhaqiqat bu rollar qoidalarga bo'ysinadi; u o'zlarini shunga mos tutishi zarur. Ona rollarida o'zlarini qanday tutishini, qiz bola «bolasiga» g'amxo'rlik, e'tibor, mehr ko'rsatadi, unga g'amxo'rlik qiladi, ovqat tayyorlaydi, yotqizadi. Muallif bolaning bu qoidalarga bo'ysunishini aytadi. Majburiy emas, balki o'z-o'zlaridan paydo bo'lgan qoidalar. O'yin vaqtida bolalar qoniqish va quvonchni sezadi va bu qoidalarining o'zlarida yorqin hissiy iz qoldiradi, opa-singilar o'zlarini tutishi zurur bo'lgan

kabi tutishga harakat qiladi. Bu shuni ko'rsatadi, o'yin nafaqat harakat rejasiga ega, balki u haqiqiy munosabatlarni o'rnatadi.

Tajribalarimiz Nukus shahri maktablarida tahsil olayotgan jami 100 nafar o'quvchilar sinovdan o'tkazildi. Tadqiqotda o'quvchilarning o'z irodasi hususiyatlarini baholashning o'ziga xosligi aniq dalillarga ega bolishi katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun o'quvchilardan «O'z-o'ziga hurmat iroda hususiyatlarini baholash» metodikasi o'tkazildi. Bu metodika kichik maktab yoshi o'quvchilarining shaxsiy poziyatlarni baholash uchun Dambo-Rubinshteyin shkalasining o'zgartilgan turi. Bu metodikada kichik maktab yoshi o'quvchilari ishtirok qilishdi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarining o'z irodasini baholash analizi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining o'z irodasi haqida fikrlari tekshirildi va tadqiqotda qatnashgan o'quvchilarning ko'pchiligi (44%) o'z irodasini yuqori baholaydi. Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining irodasini baholashda kattalar fikriga (boshqa o'quvchilarning natijalari bilan taqqoslash, maqtash va baholash)ga asoslanadi. Tadqiqotda qatnashgan o'quvchilarining (79%) quyi baholashini xohlamasligini bildirdi. O'quvchilarning faqat (9%) o'zlarining irodasining paydo bo'lishin quyi deb baholadi. Boshlang'ich maktab yoshi o'quvchilari, yani 1-2 sinf va 3-4 sinf o'quvchilarining natijalari nisbiy analiz qilindi va bunga ko'ra 1-2 sinf o'quvchilarida o'z fazilatlarini endi tusinib boshlaianligi sababli ular yuqori natijja 3-4 sinfga solishtirganda bir muncha yuqori, o'rtacha natijja esa, 3-4 sinf o'quvchilari natijasi 1-2 sinfga solishtiranda bir qancha yuqoriladi bundan tadqiqot shuni aniqlaydi 3-4 sinf o'quvchilari o'z-o'ziga bahosi o'rtacha, yani ularda o'zlariga tug'ri baho qo'yib bilishini ko'rishimiz mumkin. Kichik maktabi yoshi o'quvchilari, yani 1-2 sinf va 3-4 sinf o'quvchilarining natijalari nisbiy analiz qilindi va bunga ko'ra, 1-2 sinf o'quvchilarida o'z fazilatlarini endi tusinib boshlaganligi sababli ular yuqori natijja 3-4 sinfga solishtirganda bir muncha yuqori, o'rtacha natijja esa, 3-4 sinf o'quvchilari natijasi 1-2 sinfga solishtiranda bir qancha yuqoriladi. Bundan tadqiqot shuni aniqlaydi: 3-4 sinf o'quvchilari o'z-o'ziga bahosi o'rtacha yani ularda o'zlariga to'g'ri baho qo'yib bilishini ko'rishimiz mumk?n.

**Xulosa.** Kichik maktabi yoshi o'quvchilarida irodani shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilarning ko'pchilik kichik maktab yoshi o'quvchilarida iroda va mas'uliyat haqida tushunchalar kam. O'quvchilarning mas'uliyatini, sabr-bardoshini, qatiyatligini rivojlantirish uchun ota-ona, maktab va bola birgalikda zarur ishlarni amalga oshirishi kerak.

#### Adabiyotlar:

1. Матюхина М.В., Спиридонова С.Б. Развитие личности и познавательных процессов в младшем школьном возрасте: Учебное пособие. - В.: Перемена, 2005. - 215 с.
2. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. - М., 1995.
3. Xayriev I. Iroda psixologiyasi. - T.: Fan, 2010.

---

## DARS JARAYONIDA KREATIV TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

**Yusupova Kamola Nuriddinovna**, *TITU dotsent v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dars jarayonida kreativ ta'lim muhining ahamiyati, kreativ pedagogika va ta'lim jarayonida kreativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va mashqlardan foydalanish samarasi to'g'risida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** kreativlik, kreativ muhit, ijodkorlik, ta'lim, ta'lim jarayoni, kreativ ta'lim metodlari, texnologiyalar.

## ЗНАЧЕНИЕ СОЗДАНИЯ КРЕАТИВНОЙ АТМОСФЕРЫ В ТЕЧЕНИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

**Юсупова Камола Нуриддиновна**, *доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, и.о.доцента ТУЭТ*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение креативной образовательной среды в процессе урока, эффективность использования креативной педагогики, методов и упражнений, служащих развитию креативного мышления в процессе обучения.

**Ключевые слова:** креативность, креативная среда, образование, образовательный процесс, креативные методы обучения, технологии.

## THE PRINCIPLE OF ORGANIZING A CREATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN THE COURSE OF THE LESSON

**Yusupova Kamola Nuriddinovna**, *acting associate professor of TUET, doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD)*

**Abstract.** This article examines the importance of a creative educational environment in the lesson process, the effectiveness of using creative pedagogy and methods and exercises that serve to develop creative thinking in the learning process.

**Key words:** creativity, creative environment, education, educational process, creative teaching methods, technologies

**Kirish.** Atrofga nazar solsangiz inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual olam, internet va shu kabilar. Bulaming barchasi inson tafakkuri mahsulidir. Mana shunday ijodiy tafakkurni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonidan boshlanadi.

**Asosiy qism.** Zamonaviy jamiyatda kreativ shaxslarga nisbatan talab ortib bormoqda, sababi, ular yuqori darajadagi moslashish va ijtimoiylashuv xususiyatiga ega bo'lib, muntazam o'zgarib boradigan va yangilanayotgan dunyoga ko'proq mos keladi. Bu borada turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitlarida o'quvchi shaxsining kreativ imkoniyatini aniqlash va rivojlantirish masalasiga qaratilgan. Bunda zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi asoslarini ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi. O'quvchini qanday ijodiy fikrlashga o'rgatish mumkin? O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish, darslarni yangi texnologiya va metodlar orqali o'tish o'quvchida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga ulardagi ijodiylik, yaratuvchanlik qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

**Abstract.** The article examines the content of the introduction of innovative technologies into higher military education, the development of knowledge with their help, the deepening and expansion of the content of the disciplines studied, its effective updating, the use of more effective teaching methods, as well as a significant expansion of the educational opportunities of each military personnel.

**Key words:** innovative educational technologies, non-traditional education, modern achievements, systematization of knowledge, motivation, problematic situation.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab nizo va to'qnashuvlar davom etayotganligi va ularning mintaqamizga ko'chish xavfi O'zbekistonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarni yanada samarali tashkil etishni taqozo etmoqda.

**Asosiy qism.** Ta'lim jarayonida olingan harbiy kasbiy bilimlar ba'zan harbiy xizmatchilar o'zlarining vazifalarini bajarishga tayyor bo'lgandan ko'ra tezroq eskiradi. O'zbekistonimizning jadal sur'atlarda rivojlanishi va yangilanishiga mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat, xavfsizlik sohasidagi xatar va tahdidlar tobora kuchayib borayotganligi o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, albatta, shu boisdan, jahon hamjamiyatida rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi har tomonlama etuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor, yuqori malakali professional harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning intellektual salohiyati, texnologik kompetentligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Albatta, bu islohotlar zamirida Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan, barcha say-harakatlarimiz inson uchun, inson

qadri uchun, degan ezgu g'oya yotibdi. Davlat rahbarining oliy harbiy ta'limga, ilm-fan rivojiga, umuman, yangi O'zbekiston yoshlarining bilimli, zakovatli bo'lib voyaga yetishiga qaratayotgan yuksak e'tibori bu o'zgarishlarga kuch bermoqda. Bundan tashqari, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida oliy harbiy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish to'g'risidagi PF-4732-son Prezident farmoni aynan oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonlarini takomillashtirishning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining rolini oshirish bilan tavsiflanadi. Harbiy xizmatchilar tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishining ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Oliy harbiy ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari deganda, ta'limda fanning zamonaviy yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan usullar tushuniladi. Ular talabalarning ijodkorligi va mustaqilligini rivojlantirish orqali o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan va onlayn ta'lim olish imkonini beradi, kursantlarning o'rganilayotgan fanga qiziqishini oshirish, o'qishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirish (samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, tez o'zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashish, psixologik stressga chidamliligini oshirish, nizolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish va boshqalar), yangi sotsiologik bilimlarni olish usullarini o'rgatish.

Oliy harbiy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalar belgilab berildi [1]. Prezident raisligida 2021-yil 16-iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi dolzarb masalalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalar ham ayni davr zamonaviy ta'lim tizimining o'lchovlariga mos keladi. Ya'ni, bugun miqdor o'zgarishlaridan, sifat o'zgarishlariga o'tish vaqti keldi. Navbatdagi muhim masala – ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish, zamonaviy, mustaqil fikrga ega, o'z kasbining mahoratli egasi bo'lgan mutaxassislarni yetishtirishdan iborat. Yangi g'oyalar yaratish – ochiq muhokamalar, sovrinlar, ilg'or xodimlarning va boshqalarning fikrlarini aniqlab olish hamda e'tiborga sazovor g'oyalarni kengaytirishga qaratilgan muntazam jarayonlardir. 2. Kelajakda samara keltiradigan istiqbolli g'oyalarni yaratish va rivojlantirish. 3. Tahlil qilish va o'rganish – doimiy baholab borish, kutilmagan natija olinganda, tahlil qilish va o'rganish. Bugungi globallashtiruv jarayonlarida va kuchli raqobat sharoitida har bir mamlakat ta'lim tizimida o'z innovatsion rivojlanish yo'nalishini belgilab olmoqda [2].

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining mehnat bozori subyektlari va institutlari, davlat, viloyat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoatchilik tashkilotlari bilan o'zaro integratsiya qilinishi alohida ahamiyat kasb etib, ushbu jarayonning barcha ishtirokchilarining manfaatlarini muvofiqlashtirishdan iborat. Demak, kasbga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim sohasida ijtimoiy hamkorlik – bo'lajak ish beruvchilar (kadr iste'molchilari), oliy harbiy ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar vakillari hamkorlarning mintaqada ta'limning barqaror rivojlanishi yo'lidagi say-harakatlarini birlashtirish maqsadida ilm-fan rivoji yo'lidagi o'zaro foydali manfaatlariga, konstruktiv va uzoq muddatga mo'ljallangan strategik rejalar jamlanmasidir. O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, maktabgacha ta'lim vazirligi, ta'lim tizimi xodimlari kasaba uyushmasi, rektorlar kengashi, harbiy sohasida muvofiqlashtiruvchi kengash, ta'limning yo'nalishlar va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv-metodik kengash kabi samarali amal qilayotgan jamoatchilik kengashlari, ta'lim tizimini boshqarish organlari va ta'lim tizimi xodimlari kasaba uyushmasining mintaqaviy qo'mitalari, jamoatchilik uyushmalari va boshqalar; tuman, shahar darajasida – tuman (shahar) ta'lim bo'limlari va tegishli kasaba oliy harbiy ta'lim har bir inson va umuman jamiyat taraqqiyoti uchun bag'oyat bebaho ahamiyatga ega. Boshqa omillar bilan birgalikda ta'lim ijtimoiy o'zgarishlar uchun kuchli katalizator vazifasini bajaradi. Bu, o'z

navbatida, oliy harbiy ta'limning hududlarda ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishdagi rolini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Zero, davlat rahbarining bir muddat ilgari jon kuydirib aytgan so'zlari hamon dolzarb: «Bir narsani bilishimiz kerak: ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo'ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz. Hisobot uchun emas, natija uchun ishlash kerak». Afsuski, oliy harbiy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlarning samaradorlik darajasini yuqori, deb ayta olmaymiz. Mamlakatimizda bugun ilgari surilayotgan ilmiy tadqiqotlar milliy taraqqiyot, xususan, ishlab chiqarish sohalarida ertaga qanday samara berishi haqida ilm ahlining tahlillari, jon kuydirishi borasida oqsayotganimiz rost. Xalqaro ilm maydonida ham sifat nuqtai nazaridan yuqori ko'rsatkichlarni qayd etyapmiz, deb maqtana olmaymiz. Bu kamchilikning tub ildizi yagona ma'lumot almashinuvi tizimlari mavjud emasligi, tajribalar almashinuvi sustligiga borib taqaladi. Raqamli kommunikatsiya zamonida olimlar, oliy harbiy ta'lim muassasalarining malakali mutaxassislari ta'lim va ilm-fanda erishgan yutuqlari haqida tez boxabar bo'lishning imkonini yetarli. Ammo, ma'lum darajaga erishmoqlikning tadriji qanday? Bu yo'lda qanday to'siqlarga duch kelish mumkin yoki afzal, noafzal uslublar haqida batafsil ma'lumotlar, chuqur ilmiy tahlil, monitoring ko'rsatkichlari borasida taqchillik yaqqol ko'zga tashlanar edi [1].

O'quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli so'zsiz katta. Pedagogdan tayyor ma'lumot olgandan ko'ra, mustaqil faoliyat jarayonida olgan bilimni o'zlashtirish nisbatan ancha yaxshi natija beradi. Hozirgi davrda ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish, kursantlarning mustaqil ravishda o'quv materiallarini o'zlashtirishi, ularning kasbiy o'sishini rag'batlantirish, ularda ijodiy faollikni tarbiyalashda pedagoglarning mas'uliyatini oshirish zarur. Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan harbiy ta'lim jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan o'ndan ortiq metod mavjud bo'lib, ulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz [3]:

1. *Modulli ta'lim texnologiyasi*. Bu harbiy xizmatchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. *Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi*. Uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatish, ular o'rtasida o'zaro yordam va fikr almashinuvinin vujudga keltirish.

3. *Muammoli ta'lim texnologiyasi*. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalarning to'g'riligini tasdiqlashdir.

4. *Interfaol metod texnologiyasi*. Harbiy xizmatchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini yaratish. Buning uchun sinf kichik guruhlariga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. *Didaktik o'yinlar texnologiyasi*. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

6. *Sinov darslari*. O'quvchilarning ma'lum bilim va ko'nikmalarini sinash maqsadida o'tkaziladigan darslar bo'lib, ular test topshiriqlari yoki nazorat varaqalari orqali o'tkaziladi. Pedagogik texnologiya tamoyillari umumdidaktik prinsiplari (onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, ta'lim-tarbiyaning uzviyligi hamda uzluksizligi, tushunariligi, bilimlar puxtaligi va h.k.) bilan uyg'unlikda o'rganiladi [4].

Innovatsion texnologiya asosida ishlashda harbiy pedagog va harbiy xizmatchi munosabatlarining o'zgarish darajalari [4]: harbiy pedagog bilimni tashuvchi, yetkazuvchi emas, kursantni o'qish bilim olishda yordamchi, maslahatchi, tashkilotchi rahbarga aylanadi. Uning uchun pedagog-konstruktorlash, loyihalash, algoritmlash, sharayotida ish yuritishga o'rganib boradi. Ikki tomonlama faol, ma'suliyatli, ijodkorlik asosida ish yuritish malakasi shakllanadi. Kursantni o'zini-o'zi o'qitish, faol ishlashida yakka, juft,



kichik guruhlarda mustaqil ishlash muhiti yordam beradi; o'quv jarayoni individuallashtiriladi, ta'lim natijalari kafolatlanadi. Har qanday pedagogik texnologiya yo'llovchi (yo'naltiruvchi), bajaruvchi nazorat qiluvchi va tuzatuvchi harakatlarni birlashtiradi [4]. «Aqliy hujum», «Muammoli ta'lim», «6x6x6» kabi metodlar vositasida o'qituvchi harbiy xizmatchining qanday o'quv topshiriqlari ustida ishlashlari yoki qanday muammoni hal qilishlari lozimligini oldindan belgilab, shu masalalar yechimini topishga yo'llovchi savollar, kartochkalar, jadvallar tayyorlaydi. Mashg'ulot texnologiyasini ishlab chiqadi va loyihalaydi. Harbiy xizmatchilar tayyor topshiriqlar asosida izlanishga yullanadi; topshiriqlar tushunib olingach, faol izlanish, o'ylash, mustaqil faoliyat bosqichiga o'tadilar. O'z qarorlari, hukm-xulosalarini tayyorlashga kirishadilar [4].

Harbiy xizmatchining aniq, mo'ljalli harakatlari o'zlashtirilgan o'quv materiallari, bilimlar, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash natijasiga aylanadi. Ayni damda, yangi malakalar ham shakllanib boradi. O'quv harakatlari davomida harbiy xizmatchilar taqdim etilgan topshiriqlarni o'rganish, tahlil qilish, taqqoslash, bajarish kabi qator faoliyat turlarini amalga oshiradilar. Natija esa, bu harakatlar yakunidan yuzaga keladi. Harbiy xizmatchilar o'z izlanishlari, o'quv-bilmlarini faoliyati natijasini o'zi baholaydi. O'qituvchi natijalar monitoringini yuritadi, loyihalangan texnologiyaning samaradorlik darajasini nazorat qiladi, uni yanada samaraliroq bo'lish vositalari va imkoniyatlarini belgilaydi, aniqlashtiradi hamda tashxislaydi. Texnologiyaning muayyan qismlarini takomillashtirish bo'yicha ijodiy ish olib boradi [4]. Shu sohada qator izlanishlar olib borgan K.Ishmatov «Ilg'or pedagogik texnologiyalar» (Namangan, 2000) nomli qo'llanmasida o'quv maqsadlarining ketma-ketlik tizimini (maqsadlar taksonomiyasini) nazorat topshiriqlarini o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini muntazam korreksiyalash yoki yangilab borish ta'lim-tarbiya natijalari samaradorligi ortishiga ta'sir ko'rsatishni ta'kidlagan. Bir narsani e'tirof etishimiz kerak Harbiy xizmatchilarning harbiy ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish oyligiga qadar o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan ularning ushbu oylik yakunidagi ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslangandagi holat o'zaro qiyosiy o'rganildi [5]. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar sifatida qo'llanilgan usullarning ahamiyatlilik ko'rsatkichi harbiy xizmatchining munosabati orqali baholanganda har bir ta'lim yo'nalishi o'ziga xos qiymatlarda aks etadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, harbiy ta'limda qo'llanilgan texnologik usullar harbiy xizmatchining bilim darajasi, uning harbiy ta'lim muhitidagi faolligi va aqliy salohiyat darajasiga ta'sirini faqat ichki mantiqiy bog'liqliklar orqali o'rganish mumkin bo'ladi [5].

Natijalardan ko'rinishdiki, harbiy xizmatchining ta'lim texnologiyalarini joriy etish ularning harbiy ta'lim jarayonida bilimlarini o'zlashtirishidagi kasbiy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsata olmoqda. Interfaol metodlardan foydalanishda o'quv materialining mazmuni o'qituvchi tomonidan qayta ishlab chiqilishi, harbiy xizmatchiniga murakkab tuyulgan terminlarni izohlab berishi, uning ongida aqliy faoliyatini uyg'otishi hamda kuchaytirishi talab qilinadi. Harbiy xizmatchi va pedagog mustaqil ta'lim ularning manfaati uchun olib borilishini tushunishi kerak. Harbiy xizmatchi bajarayotgan mustaqil ish pedagogi uchun emas, balki o'zi uchun, uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashining asosiy omili ekanligini tushunishi kerak. Talaba olayotgan bilim natijasiga o'zi mas'ulligini anglashi zarur. Pedagog esa, mustaqil ta'lim faqatgina harbiy xizmatchi uchun emas, balki o'zi uchun ham kerak ekanligi, o'zini ishini osonlashtirish, mustaqil fikr yurita oladigan harbiy xizmatchilar bilan muloqotda bo'lib, o'z bilimini boyitish va kelajakda xizmat pog'onalarida o'sishini ta'minlashini anglashi lozim. Shu bilan bir qatorda, pedagogning o'quv jarayonida harbiy xizmatchilar bilan hamkorligi, ularning mustaqil ta'limga ishonchini shakllantirishi, o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanayotganini ko'rsata olishi, ma'ruzalarni an'anaviy, ya'ni faqatgina ma'lumot berish bilan chegaralanmasdan, balki muammoli interaktiv usulda olib borishi kutilayotgan ijobiy natijalarga olib keladi. Mustaqil ta'limni faollashtirmasdan oliy ta'limda harbiy xizmatchini samarali o'qitishni ko'z oldimizga keltirish qiyin. Hozirgi davr mutaxassisidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'p ma'lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish va bu ma'lumotlarni qayta ishlay olish talab qilinadi.

Hozirgi zamon harbiy xizmatchiga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlash uchun o'quv jarayonini tashkil etishni jiddiy ravishda o'zgartirish kerak, ya'ni auditoriya soati, passiv ma'ruza mashg'ulotlar ulushini kamaytirish hisobiga harbiy xizmatchining mustaqil ishlari salmog'ini oshirish zarur. Harbiy xizmatchining ta'lim olishda an'anaviy o'qitish usulidan mustaqil faoliyatiga katta e'tibor berib borish asosiy yetakchi g'oyadir. Mustaqil ta'lim harbiy xizmatchilarga bilim berishda bu harbiy xizmatchini o'z holiga tashlab qo'yish emas, balki pedagog tomonidan muntazam boshqariladigan harbiy xizmatchining mustaqil faoliyatidir. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har bir pedagog faqatgina o'zining fanini asosiy deb hisoblamasdan, harbiy xizmatchining mustaqil ta'limga ajratilgan vaqti o'quv rejadagi barcha fanlar uchun ajratilganligini esdan chiqarmasligi kerak, aks holda harbiy xizmatchiga keragidan ortiq berilgan vazifa mustaqil ta'limdan kuzatilgan ijobiy natija o'rniga, aksincha salbiy natijaga olib kelishi mumkin.

Harbiy xizmatchining mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlar quyidagilardan iboratdir: yangi bilim olish usullarini egallash, jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish; auditoriyadagi mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish; meyoriy-huquqiy aktlar, ma'lumotlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlashni o'rganish; o'quv materiallarini mustaqil o'rganish; faolligi, bilim oltirishi, ijodiy tashabbusi, mas'uliyati va tartibligini rivojlantirish; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishni shakllantirish; mustaqil fikr yuritish, o'z-o'zini o'stirish, o'zining rejasini amalga oshirishni shakllantirish; tadqiqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish.

Harbiy xizmatchilar mustaqil ta'limining asosiy vazifasi mustaqil ravishda ma'lumotlar topish usuli bilan bilim olishni rivojlantirish, o'quv jarayoniga ijodiy yondashishga faol qiziqishni shakllantirishdan iborat [6].

Innovatsion texnologiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: tarbiyaviy ish uchun motivatsiya darajasini oshirish; shakllantirish yuqori darajali o'quvchilarni doimiy ravishda tobora murakkablashib borayotgan faoliyatga qo'shilishi asosida rivojlantirish; o'qituvchining faol yordami bilan; doimiy takrorlash, bilimlarni tizimlashtirish, o'qituvchi bilan birgalikda gaplashish; yetakchi rol - bu mehribon muhitni shakllantirish, har bir o'quvchiga individual munosabat orqali o'qishga ijobiy munosabatni yaratish; kognitiv fikrlash sxemasini yaratish; o'z-o'zini hurmat qilishni tarbiyalash; differentsial yondashuvga asoslangan; nazariy materialni yaxshi bilish, mashg'ulotlarning muvaffaqiyati; muammoli vaziyatni yaratish; iqtidorli harbiy xizmatchilar bilan ishlash.

Mintaqaviy va xalqaro tendensiyalar doirasida oliy harbiy ta'limning dolzarbligi va uning sifatini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Bu muammolar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida keltirilgan va ularni bartaraf etish mexanizmi belgilab berilgan. Xususan: birinchidan, oliy harbiy ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim olayotgan harbiy xizmatchilar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti; ikkinchidan, professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimni va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; uchinchidan, oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirish test savollari abiturentning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi iqtidorli yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda muammolar keltirib chiqarmoqda; to'rtinchidan, oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda; beshinchidan, oliy harbiy ta'lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolmoqda; oltinchidan, respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot

vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy harbiy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki yo'lga qo'yilmagan; yettinchidan, oliy harbiy ta'lim muassasalari innovatsion va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha taklif kiritish borasida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va harbiy xizmatchining tashabbus ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan [7].

Innovatsion xatti-harakatlar moslashishni nazarda tutmaydi, u o'z shaxsiyligini shakllantirishni, o'zini rivojlantirishni nazarda tutadi. O'qituvchi innovatsion ta'lim barkamol shaxsni tarbiyalash usuli ekanligini tushunishi kerak. «Tayyor shablonlar» unga mos kelmaydi, uning intellektual darajasini doimiy ravishda yaxshilash muhim. «Komplekslar» va psixologik to'siqlardan xalos bo'lgan o'qituvchi innovatsion o'zgarishlarning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishga tayyor. Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladigan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi [2].

**Xulosa.** Yangi pedagogik texnologiyalarni harbiy ta'lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi ijodkor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllari, usullarini yaratib borishi, ularni ta'lim jarayonida mahorat bilan qo'llab borishi va undan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar:

1. «O'zbekistonda oliy ta'lim» jurnali 1-son.
2. G'ulomov S.S. va boshq. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik / Akad. S.S.G'ulomovning umumiy tahriri ostida. - T.: Sharq, 2000. - 529 b.
3. Xudoyqulov X.J. Pedagogik va innovatsion texnologiyadan ta'lim jarayonida foydalanish - davr talabi). - T., 2005.
4. Ishmatov K. Pedagogik texnologiyalar. - T.: Sharq, 2000.
5. Adbujalilova S.A., Koraev S.B. Talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni // Academic research in educational sciences. - T., 2020.
6. Zamin.uz/uz/jamiyat/77997-oliy ta'limda fanlarni utish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli.
7. [https://uza.uz/oz/posts/mintaqaviy\\_va\\_xalqaro\\_tendensiyalar\\_va\\_ularning\\_ahamiyati](https://uza.uz/oz/posts/mintaqaviy_va_xalqaro_tendensiyalar_va_ularning_ahamiyati).

## MAKTAB TA'LIMIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNING TURLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH

*Umarova Zuxra Abduraxmanovna, Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti dotsenti, PhD*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktab ta'limida pedagogik konfliktlarning tarkibi va ularni bartaraf etish masalalari tahlil etilgan, o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning makro (maktab miqyosida), mezo (sinflar miqyosida) va mikro (o'quvchilar guruhlar miqyosida) tarkiblarini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** o'quvchilar, maktab, ijtimoiy, maktab, ta'lim, konflikt, tarkib, xususiyat, yondashuv, metodika, bilim, ko'nikma, rivojlantirish.

## ВИДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ИХ ПРЕОДОЛЕНИЕ

*Умарова Зухра Абдурахмановна, доцент Чирчикского государственного  
педагогического университета, PhD*

**Аннотация.** В данной статье анализируется содержание педагогических конфликтов в школьном образовании и вопросы их преодоления, рассматривается развитие макро (в масштабе школы), мезо (в масштабе класса) и микро (в масштабе групп учащихся) содержания педагогических конфликтов в средних учебных заведениях.

**Ключевые слова:** учащиеся, школа, социальная, школа, образование, конфликт, содержание, характеристика, подход, методология, знания, навыки, развитие.

## TYPES OF PEDAGOGICAL CONFLICTS IN SCHOOL EDUCATION AND THEIR OVERCOMING

*Umarova Zuxra Abdurakhmanovna, associate professor of Chirchik state  
pedagogical university, PhD*

**Abstract.** This article analyzes the content of pedagogical conflicts in school education and the issues of overcoming them, examines the development of macro (school-scale), meso (class-scale) and micro (on the scale of groups of students) content of pedagogical conflicts in secondary educational institutions.

**Key words:** students, school, social, school, education, conflict, content, characteristics, approach, methodology, knowledge, skills, development.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish Strategiyasi»da «aqli ta'lim»ni amalga oshirish vazifasi qo'yilgan [1]. Unga ko'ra, «ta'lim tizimida virtual reallikka asoslangan ilg'or vizualizatsiya texnologiyalari hamda masofaviy o'qitishning onlayn platformalari, ta'lim berishning yangi usul va vositalari» joriy etilishi kerak. Bu o'rinda vizualizatsiya, ya'ni texnik jihozlar imkoniyatlariga tayangan texnologiyalar asosida (ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning virtual munosabatlariga binoan) ta'lim berish hamda masofaviy o'qitishning onlayn platformalarini kengaytirish vazifasi qo'yilmoqda.

**Asosiy qism.** Ta'lim jarayonida bo'ladigan bunday innovatsion o'zgarishlar o'qituvchilar va maktab jamoasining istalmagan holatlarga tayyor turishi taqoza etiladi. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning muayyan o'ziga xos xususi-

yatlarga ega bo'lgan turlari tarkib topishi idrok etiladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, virtual tarzda amalga oshiriladigan ta'lim jarayonida pedagogik konfliktlarning yangi ko'rinishlari va shakllarining tarkib topishi ehtimoli mavjud. «Aqlli ta'lim» shaklida ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning ko'p hollarda virtual tarzda munosabatga kirishishi pedagogik konfliktlar turlarining tabiati o'zgarishiga olib keladi. Shu sababli bunday jarayonni tabiiy qabul qilib, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik konfliktlar bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish dolzarb hisoblanadi. Bu o'rinda e'tiboringizni umumiy o'rta ta'lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning eng asosiy turlari tahliliga tortamiz.

1) Ta'limiy pedagogik konfliktlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar tipologiyasida uning turlarini aniqlab olish muhim o'rin tutadi. Bizning tahlillarimiz va o'rganishlarimiz shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning quyidagi ta'limiy turlari muntazamlik tamoyili asosida ko'p uchraydi: bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida uchraydigan pedagogik konfliktlar (mikro daraja); o'quvchilar davomati bo'yicha sinf rahbarlari va o'qituvchilar o'rtasida uchraydigan pedagogik konfliktlar (mezo daraja); o'quvchilarning faoliyati bo'yicha o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasida uchraydigan pedagogik konfliktlar (makro daraja).

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar mikro darajaga mansub bo'lib, ularga muntazamlik va davomiylik xos xususiyat hisoblanadi [2]. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarning bilimlarni to'liq o'zlashtirishini ilk rejaga qo'yadi, o'quvchilar esa, o'zlashtirish jarayonida ba'zan murakkabliklarga duch keladi. Buning natijasida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida vaqtinchalik o'zaro tushunmovchiliklar hamda kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarga ko'p hollarda o'quvchilarning o'quv materiallari mazmunini tushunmasligi asosiy konfliktogen hisoblanadi. Shu sababli bunday vaziyatda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarini aniqlab olish, ularning o'zlashtirishini yengillashtiruvchi metodlarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Biroq, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilarning ko'p hollarda o'zlarini haq deb bilishlari o'zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Aksincha, o'zlashtirish jarayonida murakkablikga duch kelgan o'quvchilar bilan individual ishlash taqozo etiladi. Chunki o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan pedagogik konflikt turi salbiy xususiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bunday xususiyatlarning eng asosiysi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini susaytirishidir. Bunda o'qituvchi bilan istalmagan kelishmovchilikga bormaslik uchun o'quvchilar munosabatga kirishmay qo'yadi va natijada o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni kutilgan darajada bo'lmaydi. O'qituvchilar ko'p hollarda o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning fikrlari bilan ustuvor darajada hisoblashishi, o'zlarini neytral tutishi va o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirishga amal qilishi kerak. Shu sababli bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishning avtoritar usulidan voz kechish va demokratik usuliga amal qilishga o'rganish muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar uchun aynan avtoritar o'qitish usuliga amal qiladigan o'qituvchilar konfliktogen vazifasini bajaradi. Negaki, o'quvchi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida murakkablikga duch kelsa yoki bunda o'qituvchi bilan o'zaro anglashmovchilikga borsa aynan o'qitishning avtoritar usuli sabab bo'ladi. Innovatsion jamiyat sharoitida o'qitishning demokratik yoki pragmatik usullariga tayanish o'zlashtirish jarayonini kuchaytiradi va istalmagan pedagogik konfliktlarning tarkib topishini oldini oladi. Buning natijasida muayyan sinfda o'zlashtirish darajasini talablar asosida yuksaltirib borish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Xorijlik pedagog olimlardan Yu.Zaprudskiy o'zlashtirish jarayonining obyektiv va subyektiv jihatlariga e'tibor berishni tavsiya etadi [3]. Bunda obyektiv jarayonni o'zlashtirish bo'yicha mavjud shart-sharoitlarni va subyektiv jarayonni esa, o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro munosabatini anglatadi. Shu jihatdan o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarni aniqlash hamda bartaraf etishda ularning yuzaga kelishidagi obyektiv va subyektiv omillarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlarida o'quvchilarning davomati bo'yicha sinf rahbari va o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar mezo darajada bo'lib, ko'p hollarda ularga o'quvchilar hamda ota-onalar konfliktogen hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalaga amaliy yondashish taqozo etiladi. Chunki ota-onalar ko'p hollarda o'quvchilarning davomatini kutilgan darajada nazoratga olmaydi yoki o'z farzandlarining tarafdori bo'ladilar. Natijada, o'quvchilarning davomati sustlashadi yoki ba'zi sinflarda esa, davomatning pastligi o'quvchilarning bilim va tarbiya olishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, sinf rahbarlari o'quvchilar bilan istalmagan konfliktga kirishadi. Buning uchun o'ziga xos yondashuv asosida yuzaga kelgan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish kerak bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bunda sinf rahbarlarining bevosita oila a'zolari bilan ishlashi kutilgan samarani beradi. Chunki oilalarda muayyan kishining (ota-ona, aka yoki opaning) ta'siri yuqori bo'ladi va mana shunday ta'sirga ega kishi bilan ishlash o'quvchilarning davomatini kutilgan darajada ta'minlash imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunda asosiy murakkablik shundaki, noto'liq oilalar bilan ishlash nisbatan murakkab kechadi va bunga noto'liq oilada voyaga yetayotgan o'quvchilarning erkalik xususiyatiga ega bo'lishi sabab bo'ladi. Shu sababli sinf rahbarlari oilalar bilan ishlashda individual metodlar bilan ishlashi taqozo etiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarning istalmagan darajada va sababsiz dars qoldirishlari natijasida yuzaga keladigan davomat masalasi o'qituvchilar va sinf rahbarlari o'rtasida mezo darajadagi pedagogik konfliktlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Keyinga paytlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar davomati bo'yicha deyarli har kuni pedagogik konfliktlarning namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shu sababli o'quvchilarning davomatini ijobiy hal qilish uchun bizningcha, quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi: a) darslarni zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda qiziqarli o'tish; b) darslarni tashkil etishda o'quvchilarning fikr-mulohazalari va tashabbuslarini hisobga olish; v) o'qituvchilarning o'qitish metodikasi va kasbiy malakasini yangilab borish. Bunday yondashuv davomat masalasida kelib chiqadigan pedagogik konfliktlarning turlarini oldini olishda muhim o'rin tutadi. Chunki davomatning yuqoriligi yoki pastligi, avvalo, o'qituvchilarning o'qitish metodikasiga bog'liq.

Ta'limiy konfliktlarda yana biri o'quvchilar faoliyati bo'yicha o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasida kechadigan turidir, u pedagogik konfliktlarning mikro darajasiga kiradi. Unga ko'ra, o'quvchilar yoshlik xususiyatlariga binoan dars jarayonida yoki maktabdagi faoliyatida sho'xlik, erkinlik va shovqin-suron ko'tarish kabilarga rioya qilishadi. Natijada, maktab rahbariyati bu borada o'qituvchilarga e'tiroz bildiradi va uning natijasida muayyan konfliktlar paydo bo'ladi. Mazkur konfliktlar makro darajada bo'lib, ular ba'zan maktab Pedagogik kengashida ham muhokama qilinadi. Shu jihatdan quyidagilar tavsiya etiladi: a) o'quvchilarning yoshlik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning xatti-harakatlarini tabiiy qabul qilish; b) o'quvchilar bilan oqilona munosabatda bo'lish; v) maktab ta'lim muhitini qiziqarli tashkil etish. Bunday yondashuv o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar turlarini yumshatadi. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, bevosita o'quvchilar bilan ishlash bu borada samarali hisoblanadi.

1. Tarbiyaviy pedagogik konfliktlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy pedagogik konfliktlar turlari ham namoyon bo'ladi. Chunki tarbiya – bu tadrifiy rivojlanib boradigan jarayondir. Shu jihatdan bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Eng katta meros – bu yaxshi tarbiyadir» g'oyasi asosida amalga oshirilmoqda [4]. Shu jihatdan, pedagogik konfliktlar turlari yaxshi tarbiyani amalga oshirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi hodisa hisoblanadi.

Kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida quyidagi tarbiyaviy konfliktlar ko'proq uchraydi: a) tartib-intizom bo'yicha o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi pedagogik konfliktlar (mikro darajada); b) fazilatlarini o'zlashtirish bo'yicha sinf rahbarlari va o'quvchilar o'rtasidagi pedagogik konfliktlar (mezo darajada); v) axloqiy faoliyat bo'yicha o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasidagi pedagogik konfliktlar (makro darajada).

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida makro darajada uchraydigan o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi pedagogik konfliktlarning tartib-intizom bo'yicha turlari o'tkinchi hodisalardan hisoblanadi. Chunki o'quvchilar rivojlanish bosqichida bo'lganligi uchun ba'zida beixtiyor ravishda tartib-intizomga rioya qilmaydilar. Buning natijasida o'qituvchilarning e'tiroziga duch kelinadi. Bu hol dinamik xarakterda bo'lib, deyarli har kuni uchraydi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bu pedagogik konflikt turlarini yumshatish yo'lidan borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun pedagogik jazo emas, aksincha, o'ziga xos amaliy vositalardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, sho'x va serharakat o'quvchilar bilan individual ishlash hamda ularning qiziqishini hisobga olish talab darajasidagi tartib-intizomni ta'minlashga asos bo'ladi. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktabi tartib-intizomiga nisbatan dogmatik munosabatda bo'lmaslik lozim. Aksincha, demokratik yondashuvlar asosidagi tartib-intizomni joriy etish pedagogik konfliktologiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy va insoniy fazilatlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi asosiy vazifalardan biridir. Sinf rahbarlari o'z sinfining o'quvchilarini fazilatlari voyaga yetkazish tartiblarini amalga oshiradi, o'quvchilar esa, yoshlik xususiyatlariga mos ravishda ba'zan fazilatlarni o'zlashtirish jarayonida passiv ishtirok etadi. Natijada, fazilatlari bo'yicha mezo darajadagi sinf rahbarlari va o'quvchilar o'rtasida pedagogik konflikt yuzaga keladi. Ko'p hollarda o'quvchilarning yolg'on gapirmaslik, haqqo'ylik, mardlik, mehribonlik, jamoaparvarlik kabi fazilatlarni o'zlashtirishini sinf rahbarlari qat'iyat bilan talab qilishadi. Ammo, fazilatlarni o'zlashtirish jarayonida tabiiy metodlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Unga ko'ra, ibrat ko'rsatish, namuna bo'lish kabi metodlar nafaqat pedagogik konfliktlarning oldini oladi, balki o'quvchilarning axloqiy fazilatlari tabiiy o'zlashtirish jarayonini ham tarkib toptiradi. Shu ma'noda bu masalada sinf rahbarlarining demokratik metodlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda o'quvchilarning axloqiy faoliyati muhim masalalardan biridir. Unga ko'ra, o'quvchilar har bir xatti-harakatlarida axloq qoidalariga rioya qilishi va bu boradagi ko'nikmalarini rivojlantirib borishi kerak. Shu jihatdan mazkur masalada ba'zan o'zaro tushunmovchiliklar natijasida o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasida makro darajadagi pedagogik konfliktlar yuzaga keladi. Bunda maktab rahbariyati o'qituvchilardan o'quvchilarning talab darajasidagi axloqiy faoliyat yuritishini talab qiladi va, o'z navbatida, o'qituvchilar o'z o'quvchilarining bunday talablarga rioya qilayotganligini ta'kidlashadi. Shu sababli bunday holatda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarda o'qituvchilarning murosala metodiga amal qilishim va maktab rahbariyati esa, o'z vakolati doirasida harakat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda maktab rahbariyatining qat'iy usullarga tayanishi pedagogik konfliktlarni kuchaytirishga xizmat qilishini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida uchraydigan tarbiyaviy xarakterdagi pedagogik konfliktlar o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab rahbariyati ishtirokida tarkib topadi. Shu sababli mazkur masalada ongillik, tushunuvchanlik, insonparvarlik kabi tamoyillar asosida yondashish pedagogik konfliktlar nazariyasi va metodikasi nuqtai nazaridan to'g'ri hisoblanadi.

2. Virtual pedagogik konfliktlar ko'p hollarda tashqi omillar va ta'sir kuchi asosida yuzaga keladi. Shu sababli mazkur pedagogik konfliktlar turlari alohida o'rganishni taqozo etadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, virtual pedagogik konfliktlarning asosiy turlarini quyidagilar tashkil etadi: a) o'quvchilarning sababsiz dars mashg'ulotlariga qatnashmasligi bo'yicha o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi pedagogik konfliktlar (mikro darajada); b) virtual o'qitish masalalari bo'yicha sinf rahbarlari va o'qituvchilar o'rtasidagi pedagogik konfliktlar (mezo darajada); v) o'quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasini virtual baholash bo'yicha o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasidagi pedagogik konfliktlar (makro darajada).

Ijtimoiy muhit va turli sabablarga ko'ra keyingi yillarda mamlakatimizda virtual ta'limning turli shakllari amalga kiritildi. Buning natijasida o'qitish tizimi, nazariyasi va metodikasida o'zgarishlar ro'y berdi. Shu jihatdan virtual o'qitish jarayonida o'quvchilarning sababsiz darsga qatnashmasligi bo'yicha pedagogik konfliktlarning yangi turi o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi anglashilmovchiliklar mikro darajada tarkib topib bormoqda. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, onlayn yoki masofaviy shaklda amalga oshiriladigan

virtual ta'lim jarayoniga o'quvchilarning nega faol qatnashmasligi masalasi o'rganilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, bu masalada o'quvchilar virtual ta'lim asosdagi bilim va ko'nikmalarni kutilgan darajada o'zlashtirayotimi, mazmunidagi muammoni ham o'rganish taqozo etiladi. Bunday o'rganish natijasida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bizning tahlilimizga ko'ra, eng avvalo, virtual ta'limning qiziqarli, jihozli va qisqa muddatli xususiyatlarga asosan tashkil etish o'quvchilarning faolligiga asos bo'ladi. Shu jihatdan virtual ta'limda matnни tushuntirish uchun oz muddat, mustaqil topshiriqlar uchun esa, nisbatan ko'proq vaqt ajratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'rinda eng asosiy masala virtual dars mashg'ulotlarining qiziqarli bo'lishi bilan bog'liqdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida virtual ta'limni amalga oshirish bo'yicha sinf rahbarlari va o'qituvchilar o'rtasida mezo darajada pedagogik konfliktlar yuzaga keladi. Bunda sinf rahbarlari virtual mashg'ulotlarning o'z vaqtida faollik bilan o'tkazilishini nazorat qilishadi va o'qituvchilar esa, aynan shunday faoliyat ko'rsatayotganligini ta'kidlashadi. Shu sababli bu jarayonda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish uchun amalga oshirilayotgan virtual mashg'ulotlarni yagonalashtirilgan raqamli texnologiya asosida nazorat qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda texnik sharoitlar mavjud. Shu jihatdan o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarini markazlashgan va yagonalashtirilgan texnologiya asosida nazorat qilib borish bu boradagi istalmagan pedagogik konfliktlarning oldini oladi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida makro darajadagi o'quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasini virtual baholash bo'yicha o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasida pedagogik konfliktlar yuzaga kelmoqda. Unga ko'ra, maktab rahbariyati o'quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasini oqilona baholashni talab qiladi, o'qituvchilar esa, o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasiga qarab virtual baholashni ma'qul ko'rishadi. Buning natijasida o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasida muddatli xususiyatga ega bo'lgan pedagogik konfliktlar yuzaga keladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning o'zlashtirganlik va tarbiyalanganlik darajasini virtual baholashda ularning faolligi asos qilib olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, o'quvchilar virtual tarzda berilgan topshiriqlarni to'liq bajarsa, ular ta'limiy va tarbiyaviy faol ekanligi namoyon bo'ladi hamda ushbu tamoyilga asosan yuqori darajada baholash mumkin bo'ladi. Umuman, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida onlayn yoki masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladigan virtual ta'lim asoslari, talablari va uni baholash tamoyillari ishlab chiqilib, amalga kiritilishi dolzarb bo'lib turibdi.

**Xulosa.** Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning ta'limiy, tarbiyaviy va virtual turlari uchraydi. Mazkur pedagogik konfliktlar turlarini vaqtida aniqlab borish, tartibga solish va ularni bartaraf etish asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur»: [www.google.uz](http://www.google.uz).

2. Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. - Т., 2020.

3. Эрназарова Г.О., Исламова М.Ш. Педагогик конфликтология. - Т., 2021.

4. Зоркин Д.П. Основы конфликтологии. - Ростов-на-Дону, 1998.

5. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. - М., 2000.

6. Гаврилюк Н.П., Зыкова Н.А. Педагогическая конфликтология. - Нижневартовск, 2020.

7. Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. - Т., 2009.

8. Jabbrova O., Umarova Z., Babaxodjayeva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. - T.: Malik Prin Ko, 2021.

9. Jabbrova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'limda «Tarbiya» fanini o'qitish metodikasi. - T.: Zebo Print, 2022.



---

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM YONDASHUV**

**Tilavova Sayora Bekmurotovna**, Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarga ekologik ta'lim berish, STEAM ta'limi fanlararo va o'quvchilarni amaliyotga yo'naltirish fanlararo hamkorlik, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, sinfdan tashqari mustaqil ta'lim orqali fanlararo ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** STEAM, ta'lim, texnologiya, didaktika, savodxonlik, amaliy, yondashuv, ta'lim dasturi, loyiha, integratsiya.

**ПОВЫШЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ STEAM ПОДХОД**

**Тилавова Сайора Бекмуратовна**, преподаватель кафедры "методика начального образования" Чирчикского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматривается обеспечение студентов экологическим образованием, STEAM-образование межпредметное и ориентирование студентов на практику, межпредметное сотрудничество, творческие способности, формирование межпредметной экологической культуры посредством самостоятельного внеаудиторного обучения.

**Ключевые слова:** STEAM, образование, технология, дидактика, грамотность, практика, подход, образовательная программа, проект, интеграция.

**INCREASING THE ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY EDUCATION STUDENTS THROUGH A STEAM APPROACH**

**Tilavova Sayora Bekmurotovna**, teacher of the department "Methodology of primary Education" of Chirchik State Pedagogical

**Abstract.** This article discusses the provision of schoolchildren with environmental education, interdisciplinary STEAM education and orientation of students to practice, interdisciplinary cooperation, creativity, the formation of an interdisciplinary environmental culture through independent extracurricular learning.

**Key words:** STEAM, education, technology, didactics, literacy, practice, approach, educational program, project, integration.

**Kirish.** STEAM birinchi marta 1990-yillarda Amerika Milliy Tashkiloti tomonidan kiritilgan. STEAM (fan, matematika, muhandislik va texnologiya)da tavsiya etilgan va joriy qilingan ta'lim AQSh xalq ta'limining asosiy qismi sifatida. Hozirgi vaqtda STEAM ta'limi Avstraliya, Kanada va Singapurda, keyinchalik Frantsiyada Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Xitoy, Kanada va Turkiya. STEAM yondashuvining elementlari maktabgacha ta'lim va maktabda robototexnika yuqori texnologiyali sanoatini rivojlantirish joriy etildi. Mazkur ishda oliy ta'lim bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini STEAM yondashuv asosida takomillashtirish omillaridan foydalanishning mazmuni maksadi, vazifalari va tamoyillari o'rganildi. Tadkilot davomida tizimli yondashuv va tahlil kilish usullaridan foydalanildi.

**Asosiy qisim.** Jahonda ta'limni modernizatsiya qilish va yangilash yo'llaridan biri bu STEAM ta'lim tizimini rivojlantirishdir. Uni amalga oshirishning asosiy maqsadi o'qituvchi va talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda STEAM tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish asosida, texnik va tabiiy fanlar ta'limini rivojlantirish orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar imkoniyatlarini kengaytirishdir. Jumladan: oliy pedagogik ta'limning hozirgi rivojlanishi tadqiqotning fanlararo integratsiyalashuviga bog'liq. Fanlararo integratsiya tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan va «fanlararo muammolari, shuningdek, turli xarakterdagi muammolari hal qilishga» qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun asosdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya va pedagogik malakani baholash talablarini hisobga olgan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorlash metodikasini yangilash yo'llarini topishdan iborat.

Tahlil va natijalar, ilg'or fanlararo ta'lim texnologiyalarini tahliliy ko'rib chiqish STEAM ta'limiga e'tiborni qaratish imkonini berdi. Tadqiqot o'tkazilib, unda talabalarning tabiiy fanlar bo'yicha kompetensiyalari hamda tanqidiy fikrlash rivojlanishi baholandi. Tadqiqot jarayonida, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar davomida Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari tomonidan ham kasbiy, ham ilmiy va amaliy xarakterdagi fanlararo muammolar aniqlandi va yanada hal qilindi. Shu bilan birga, STEAM ta'limi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni uchun o'quv jarayonini loyihalashning asosi bo'ldi. Ushbu ish natijalari quyidagilarni ko'rsatadi: o'quv fanlari tarkibi va mazmuniga fanlararo vazifalarning kiritilishi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga yordam beradi, chunki o'quv jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan va ilmiy xususiyatga ega bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot va amaliy yo'nalishning fanlararo vazifalari orqali amalga oshiriladigan universitet pedagogik ta'limi darajasidagi fanlararo integratsiya; bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning integratsiya tushunchasi bilan bog'liq manbalarni tahliliy ko'rib chiqish uning murakkab va o'zaro mustahkamlovchi xususiyatini ko'rsatadi. Har qanday o'ziga xos fanning rivojlanishi doirasida katta bloklar o'rtasidagi aloqani o'rnatadigan integratsiya mavjud. Ko'rinib turibdiki, bu aloqani ta'minlash doimo dolzarb bo'lib kelgan. Oliy pedagogik ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashning yangi modeliga nisbatan fanlararo aloqalar g'oyasi kontseptual bo'ladi. Ilm-fan ham, ishlab chiqarish ham turli kasbiy sohalarida va fanlararo fan sohalarida bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni qidiradi. Oliy pedagogik ta'limning zamonaviy makonida kadrlar tayyorlash alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirayotgan pedagogik ta'lim o'quv jarayonining tuzilishi va mazmunini shunday tashkil etadiki, yakuniy natija bitiruvchilar faoliyatining sifati, ularning kompetensiyasi bilan o'lchanadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kompetensiyasini uchta komponent bilan belgilash mumkin: kasbiy pedagogik faoliyatda ifodalangan kompetensiya va o'qituvchi kasbining ajralmas o'zaro ta'siri. Mutaxassisning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish va an'anaviy fazilatlarni bilim, ko'nikma, tajriba rivojlantirish o'rtasidagi farqlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy sifati sifatida pedagogik kompetensiyaning integrativ tabiati bilan belgilanadi; amaliyotga yo'naltirilgan va loyihaga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning sifat holati – uning pedagogik kompetensiyasini strategik qadriyatlar bilan bog'lash mumkin, ularning rivojlanishi milliy miqyosdagi vazifani – yuqori malakali xalq ta'limi xodimlarini tayyorlashda pedagogik ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Muammoning dolzarbligi pedagogik kadrlar tayyorlashning tarkibi va mazmuni yangi oliy ta'lim davlat standartlarini joriy etish natijasida sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda.

O'quv rejadagi bloklari fanlari sonining ko'payishi fanlarni o'rganish uchun ajratilgan o'quv soatlari soniga ta'sir qilmadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning tayyorlash mazmunini ratsionallashtirish echimlaridan biri fanlararo integratsiyani amalga oshirish ekanligini tushunish muhimdir.

Tadqiqotda kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida fanlararo integratsiya masalasini o'rganishda ikkita asosiy muammo aniqlandi. Birinchidan, oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni tayyorlashda tabiiy va ilmiy, shuningdek, insoniy bilim sohalarini sintez qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning butun davri davomida pedagogik texnologiyalar va integratsiyalashgan laboratoriya va amaliyotga asoslangan darslardan, shuningdek, ma'ruzalardan foydalanish bo'yicha yangilanishlar. Tadqiqot maqsadi fanlararo ilmiy va amaliy muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni qo'llashga qodir bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan o'quv jarayonida erishilgan natijalarga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya talablarini hisobga olgan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi usullarini yangilash yo'llarini topishdan iborat.

Tadqiqotda Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirok etdi. Pedagogik ta'lim texnologiya va hayot xavfsizligi yo'nalishlari. O'qishning analitik bosqichi mantig'iga ko'ra fanlararo amaliy muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni o'rganish, taqqoslash, umumlashtirish amalga oshirildi. Dastlabki tajriba-sinov bosqichda talabalar o'rtasida so'rov o'tkazildi, shuningdek, integratsiyalashgan laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalar joriy etilgandan so'ng o'quv faoliyati natijalari tahlil qilindi. Fanlararo integratsiya orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ko'rsatkichlari bo'yicha o'zgarishlar qayd etildi. Shu bilan birga fanlararo kompetensiyalarning rivojlanish darajasini diagnostika qilish uchun statistik ma'lumotlarni olish bosqichida universitet talabalari bilan kuzatishlar va suhbatlar o'tkazildi. Diagnostika usullari mazmunli, indikativ va baholashga bo'lingan. Har bir blokning o'z maqsadi bor. Birinchi blok talabalarning integratsiya va fanlararo tushunchalari bo'yicha fanlararo bilim darajasini aniqlashga qaratilgan edi. Bu erda ish barcha guruh talabalari, ya'ni eksperiment ishtirokchilari o'rtasida suhbat va so'rovnoma asosida olib borildi. Ushbu bosqichda olingan ushbu so'rov natijalari keng doirada, ya'ni oddiy g'oyalardan integratsiya – birlashtirish hissiy umumlashmalarga integratsiya – bu harakat jarayoni qadar turlicha bo'ldi. Ulardan biri talabalarning ushbu kontseptsiyani idrok etishlari qiyinligini ta'kidladi. Fanlararo integratsiya tushunchasi asosiy fikrni ajratib ko'rsatish orqali axborotni qabul qilish va uzatish qobiliyatining ta'rifi kiritilgan. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari fanlararo integratsiya haqida aniq tushunchaga ega emasligi aniq edi, chunki ular bu tushunchani axborot nazariyasi bilan bog'lay olmadilar va bu tushunchalarni almashtirdilar. Demak, javoblarining mazmuni fanlararo aloqadorlikning kelajakdagi kasbidagi ahamiyati haqida etarlicha xabardorlik va tushunchaning pastligidan dalolat beradi. Ikkinchi bosqich – taxminiy – ikki universitet talabalarining fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish muammosiga munosabatini va bo'lajak o'qituvchining rivojlanishidagi rolini aniqlashga imkon berdi.

Fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish muhimligini Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining tajriba guruhlar 71 foizi va Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi va Termiz pedagogik institutining nazorat guruhlari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining 79 foizi qayd etdi. Respondentlarning fikriga ko'ra, fanlararo kompetensiya zamonaviy shaxsning ustuvor sifati bo'lib, asosan, kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatni oldindan belgilaydi. O'quvchilarning o'z bo'lajak kasbiga munosabati o'quvchilarni o'quv faoliyatiga rag'batlantirgandagina mazmunli bo'ladi, bu

esa, kasb-hunar ta'limida muvaffaqiyatga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uchinchi blokning maqsadi – empirik tadqiqot natijalarini umumlashtirish edi. Universitetda ta'lim jarayonida talabalarning fanlararo kompetentsiyasini rivojlantirish modelini amalga oshirish quyidagi tarkibiy qismlarning rivojlanish darajalarida o'z aksini topdi: motivatsiya tanlangan kasbning maqsadini tushunish, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish tajribasini shakllantirish. Tarkib o'rganish obyektlari o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi bilimlar – madaniy va kasbiy bloklar fanlari kursi. Eksperimental ish natijalari respondentlarning fanlararo kompetentsiyaga munosabatini va ularning rivojlanish darajasidan qoniqishini ko'rsatdi. Tadqiqot loyihasiga ko'ra, o'z-o'zini baholash metodologiyasidan foydalangan holda, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari fanlararo kompetentsiyasining rivojlanish darajasi aniqlandi. Ushbu metodikaning qo'llanilishi savollarga javob bergan talabalardan ma'lumot olish imkonini berdi. Istalgan sifatning namoyon bo'lish darajasi bilimlarni birlashtirish zarurati muvofiqligini aniqlashga qaratilgan so'rovnomalar 5 ballli tizim bo'yicha baholandi. Olingan natijalarning obyektivligi va ularning ishonchligiga anonim so'rov tufayli erishildi. Ushbu tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning fanlararo kompetentsiyasini rivojlantirishning turli darajalari ta'kidlangan. Fanlararo kompetentsiya motivatsiyasining o'ziga xos xususiyati sifatida muammoga qiziqishning mavjudligi, shaxsning bilim olishga yo'naltirilganligi va ularni amaliy qo'llash ko'rib chiqildi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga berilgan savollar ushbu xususiyatlarni aniqlashni nazarda tutgan. Tarkib komponentining rivojlanish darajasini oshirish maqsadida o'quv jarayonidagi mustaqil faoliyatga, ya'ni ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarga, sinfdan tashqari ishlarga jalb etildi.

**Xulosa.** Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv g'oyasi kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi bo'lgan fanlararo vazifada ifodalangan. Turli fanlararo vazifalarning yig'indisi ushbu mashg'ulot mazmunining yaxlitligini tashkil qiladi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar davomida nazariy asoslab berilgan va amalga oshirilgan fanlararo integratsiya bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini ta'minladi. Kasbiy va ilmiy faoliyatning fanlararo vazifalarini amalga oshirish fanni o'rganish jarayonida kasbiy va motivatsion vaziyatlarni ishlab chiqish kabi usullardan foydalangan holda amalga oshirildi; bilimlarni o'zgartirish. STEAM ta'lim texnologiyasiga asoslangan integrallashtirilgan laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalar bo'lajak o'qituvchilarning o'quv jarayonini loyihalash vositasi bo'lib xizmat qildi. Birgalikda texnologiyani o'qitishning ko'plab afzalliklari bor, guruh ish, juftlik bilan ishlash. Bu ta'lim maqsadlariga erishishga, mas'uliyatga, o'zaro munosabatga ko'nikishga yordam beradi qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning samaradorligini oshiradi, bilim faolligini, mustaqilligini rivojlantiradi, kengaytiradi talabalarning shaxslararo munosabatlari. U yangi materialni o'rganishda ham, darsda ham qo'llanilishi mumkin darslarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirish.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni.
2. Yuldashovich K.A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness // European International Journal of multidisciplinary research and management studies. - 2022. - T. 2. - № 11. - S. 1-5.
3. Аршанский Е.Я., Сологуб Н.С. STEAM-образование: от модели к практической реализации // Адукация и вхаванне. - 2020. - № 9. - С. 22-30.

---

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ АССЕРТИВНЫХ СВОЙСТВ ЛИЧНОСТИ В СОЦИАЛЬНОЙ СЕТИ

**Капалыгина Ирина Ивановна**, д.п.н., доцент, ГрГУ,  
**Шести́рекова Наталья Георгиевна**, заведующая учебно-методическим кабинетом государственного учреждения образования  
«Сморгонский районный центр творчества детей и молодежи»

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы формирования асертивности личности. Асертивность – это способность личности конструктивно отстаивать свои права, проявляя уважение к другим, при этом принимая ответственность за свое поведение. Формирование асертивных свойств личности в социальной сети представляется возможным, исходя из соблюдения педагогических условий. Описанию этих условий посвящается статья.

**Ключевые слова:** асертивность, безопасность, студент, социальные сети, ценностные ориентации, личность.

## IJTIMOY TARMOQDA SHAXSNING ASSERATIV XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

**Irina Ivanovna Kapalygina**, pedagogika fanlari doktori, GrDU dotsenti,  
**Natalya Georgievna Shestirekova**, «Smorgon viloyati bolalar va o'smirlar ijodiyoti markazi» davlat ta'lim muassasasi o'quv-metodik kabineti rahbari

**Annotatsiya.** Maqolada shaxsning dadilligini shakllantirish masalalari muhokama qilinadi. Ta'sirchanlik – bu shaxsning o'z huquqlarini konstruktiv tarzda himoya qilish, boshqalarga hurmat ko'rsatish va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati. Ijtimoiy tarmoqda talabchan shaxs xususiyatlarini shakllantirish pedagogik shartlarga rioya qilish asosida mumkin ko'rinadi. Maqola ushbu shartlarning tavsifiga bag'ishlangan.

**Tayanch so'zlar:** qat'iyatlilik, xavfsizlik, talaba, ijtimoiy tarmoqlar, qadriyat yo'nalishlari, shaxsiyat.

## PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF ASSERTIVE PERSONALITY TRAITS IN A SOCIAL NETWORK

**Kapalygina Irina Ivanovna**, Doctor of Pedagogical Sciences,  
Associate Professor, Grodno State University,  
**Shestirekova Natalya Georgievna**, head of the educational and methodological office of a state educational institution «Smorgon Regional Center for Children and Youth Creativity»

**Abstract.** The article discusses the issues of the formation of assertiveness of personality. Assertiveness is a person's ability to constructively defend their rights, showing respect for others, while taking responsibility for their behavior. The formation of assertive personality traits in a social network is possible based on the observance of pedagogical conditions. The article is devoted to the description of these conditions.

**Key words:** assertiveness, security, student, social networks, value orientations, personality.

**Введение.** В настоящее время асертивное поведение личности приобретает наибольшую популярность, особенно, в социальных сетях. Асертивное поведение требует особой подготовки, которая должна осуществляться в процессе обучения и воспитания.

**Основная часть.** Асертивность происходит от английского assert – утверждать, заявлять. Асертивность – это способность человека конструктивно отстаи-

вать свои права, проявляя уважение к другим, при этом принимая ответственность за свое поведение. Ассертивное поведение – способ действий, при котором человек активно отстаивает свои интересы, открыто заявляет о своих целях и намерениях, уважая при этом интересы окружающих.

Согласно Т.Хампрейс, работы которой проанализированы В.П.Шейновым, ассертивное поведение индивидов похоже на поведение людей с высокой самооценкой. Они могут добиваться своих целей самостоятельно. Они оптимистичны, открыты и гибки, умеют наслаждаться жизнью и легче справляются с проблемными моментами в жизни, предпочитают общение, основанное на прямых и открытых контактах. Они могут устанавливать близкие, доверительные отношения и принимать себя и других такими, какие они есть на самом деле, умеют выслушивать других и адекватно прислушиваются к критическим замечаниям, имеют чувство собственного достоинства [5].

Ассертивность рассматривается как система – образовательное ядро чувства уважения и собственного достоинства в работах С.В.Герасиной. Она описывает ассертивность как четкую нравственную позицию по отношению к себе и другим, как моральную основу образа действий [1].

Описание сущности чувства самоуважения и достоинства и их генезиса мы находим в современных работах отечественных и зарубежных ученых (В.А.Семиченко, И.М.Толкунова, А.Дойч, В.Каппони, Т.Новак, Е.Махони, А.Солтер, Е.Шостром). Такое качество как самоуважение, по их мнению, аккумулирует чувство собственного достоинства, уверенность в себе, способность защищать свои права и интересы, высокий уровень притязаний и мотивации достижений, которые детерминируются уровнем ассертивности.

Тема ассертивности активно продолжает развиваться в психологии, для педагогики же она является новой, малоисследованной и нашла свое отражение в работах ученых (И.В.Лебедева, Л.В.Оганян, Н.М.Дудина, В.П.Горленко, Н.Ю.Ражина, В.А.Семиченко, Н.Н.Давидович). В своих работах Н.М.Дудина утверждает, что целенаправленное развитие этих свойств, можно назвать научной и практической новизной в педагогике и педагогической социологии. Ею поставлена проблема необходимости исследования уверенности в себе как свойстве личности носителя инновационной культуры, проявляющемся в ассертивном поведении [2].

В психологии накоплен большой опыт в формировании ассертивного поведения, в частности, на основе тренингов ассертивности, которые разработаны такими учеными как А.Солтер, В.Г.Ромек, А.Лазарус, С.Бишоп, Дж.Вольпе, В.Н.Ковалев. При этом Н.Е.Харламенкова отмечает, что авторы теории ассертивности изучают только внешние поведенческие проявления и не рассматривают внутренние убеждения, которые побуждают человека конструктивно взаимодействовать [4]. Психологи работают над формированием ассертивного поведения подростков и взрослых через организацию специальных тренингов, прививая лишь атрибуты уверенности в себе. Но в результатах исследования И.В.Лебедевой мы находим утверждение, что ценностные ориентации человека определяют его поведение и являются личностными детерминантами проявления ассертивного поведения и ассертивности [3].

Сегодня есть ряд педагогических исследований по вопросам формирования ассертивности и ассертивного поведения подростков и молодежи. Например, М.Н.Дудина рассматривает ассертивное поведение в этико-педагогическом дис-

курсе, где делает важные выводы: к асертивному поведению можно прийти только путем убеждения, а не принуждения; обучение и воспитание возможно на основе диалога (сократический и герменевтический методы). Диалог для развития асертивной личности несет познавательную ценность, что позволяет на основе постижения знаний ориентироваться в системе ценностей; этическую ценность, которая позволяет рассмотреть предмет изучения в контексте с другими участниками; рефлексивную ценность, дающей возможность подойти к оценке себя критически [2]. Значение асертивности в развитии школьника, которая нуждается в поддержке и защите, велико, поскольку ей приходится отстаивать свое право быть тем, кем она является.

Формированию асертивных свойств личности в социальной сети представляется возможным, исходя из следующих перечисленных условий:

1. Быть независимым в социальной сети от воли других. Независимость в социальной сети – одно из необходимых качеств личности. Однако, пребывая в социальных сетях, школьники склонны доверять людям в процессе взаимодействия, невзирая на их статус, принадлежность, профессию.

2. Делать ошибки и быть за них ответственным, судить о своем поведении и брать за него ответственность. Признание собственных ошибок – процесс, требующий высокого уровня самоанализа и рефлексии действий и поступков, которые совершает школьник. Осознание человеком смысла ошибочных действий наступает, когда учащийся становится субъектом социализации.

3. Рассчитывать на уважение к себе в процессе онлайн общения. В современном обществе уважением к себе пользуется человек, имеющий определенный статус, уровень образованности, культуры. Школьник еще не взрослый, но уже и не ребенок, который нуждается в уходе. Однако учащиеся очень остро реагируют на ситуации, унижающие их собственное достоинство, оскорбления, особенно, со стороны сверстников и педагогов публично. Находясь в социальных сетях, завоевывать уважение для подростка проще, когда его никто не видит, не слышит. Самореализация происходит согласно канонам и запросам Интернета.

4. Возможность открыто выражать свои чувства и мнение, быть выслушанным и принятым серьезно. Выражать школьнику свои чувства и мнение в Интернете гораздо проще, чем в реальном мире. Любой школьник, обладающий определенными техническими навыками, способен высказываться по различным проблемам, развивать полоролевые отношения и просто выступить в поддержку и защиту себе подобных. Социальная сеть дает возможность заявить о себе, изложить свою жизненную проблему, каждому быть востребованным среди виртуальных друзей.

5. Возможность устанавливать свои приоритеты без навязывания стандартных поведенческих образцов. Навязывание поведенческих образцов со стороны взрослых воспринимается школьниками неоднозначно. Одни учащиеся знают и выполняют правила поведения в обществе, другие – знают, но не хотят их выполнять, третьи – не хотят знать и выполнять поведенческие паттерны. Но этика взаимодействия в сети недостаточно отработана, а многие нарушения сетикета так и остаются безнаказанными.

6. Сказать «нет», отказаться от чего-либо, не чувствуя себя виноватым. Дать согласие школьнику на участие в каком-либо деле, особенно, одноклассникам или старшеклассникам проще, чем отказаться от участия в нем. Это объясняется тем,

что соглашение сулит предстоящую дружбу, авторитет, принятие в компанию. Отказ влечет за собой стать отвергнутым, гонимым, одиноким.

7. Реализовывать свои права, не ущемляя свободу других. Социальная свобода в Интернете позволяет школьникам общаться друг с другом на паритетной основе. Однако это помогает им дифференцировать общение по статусу, групповой принадлежности.

**Вывод.** Для эффективности формирования асертивности учащихся необходимо наличие асертивных черт личности у педагога, так как асертивность имеет субъект-субъектную сущность. Ценностные ориентации человека являются личностными детерминантами проявления асертивности, поэтому воспитательная доминанта образовательного процесса должна определяться направленностью на нравственное формирование личности.

#### Литература:

1. Герасина С.В. Асертивное поведение как предпосылка формирования чувства собственного достоинства и самоуважения студенческой молодежи // Проблемы современной психологии. - М., 2010. - № 10. - 168 с.
2. Дудина М.Н. Асертивное поведение в этико-педагогическом дискурсе // Известия Уральского федерального университета. Серия 1. Проблемы образования, науки и культуры. - 2014. - № 4. - С. 163-172.
3. Лебедева И.В. Мотивационные и ценностно-смысловые детерминанты асертивности личности // Современные исследования социальных проблем. - 2013. - № 4 (24).
4. Харламенкова Н.Е. Самоутверждение подростка. - М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2007. - 384 с.
5. Шейнов В.П. Асертивность индивида и его здоровье // Российский гуманитарный журнал. - М., 2014. - Т. 3. - № 4. - С. 256-274.



---

## IJTIMOY VA HUQUQIY XATAR GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH YO'NALISHLARI

**Hasanov Tohir Abdurashidovich**, *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori v.b., i.f.d., dotsent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan.  
**Tayanch so'zlar:** *ijtimoiy himoya, yoshlar, xavf, huquq.*

## НАПРАВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ В ГРУППЕ СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОГО РИСКА

**Хасанов Тахир Абдурашидович**, *и.о.профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан, доцент*

**Аннотация.** В данной статье речь идёт о социальной защите молодёжи.  
**Ключевые слова:** *социальная защита, молодёжь, риск, право.*

## DIRECTIONS FOR SOCIAL PROTECTION OF YOUNG PEOPLE IN THE SOCIAL AND LEGAL RISK GROUP

**Hasanov Tahir Abdurashidovich**, *acting professor of the Academy of public administration under the President of the Republic of Uzbekistan, associate professor*

**Abstract.** This article deals with the social protection of youth.  
**Key words:** *social protection, youth, risk, law.*

**Kirish.** Ma'lumki, har qanday mamlakatning kelajagi yosh avlodning tarbiyasi va taraqqiyoti bilan bog'liq. Shuni anglash kerakki, zamonaviy bozor munosabatlari va global tendensiyalar yosh avlodning hayotiy qadriyatlariga va axloqiy qoidalariga ta'sir ko'rsatadi. Ammo ular hamisha ham ijobiy va yaratuvchilikka olib kelmaydi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiya qabul qilish zarurligi borasida bildirgan tashabbusi, davlatlarning yoshlarning taqdiri va kelajagi borasida mas'uliyatni o'z zimmlariga olishga chaqirgan chiqqan edi [1]. Bugungi kunda O'zbekistonda aholi umumiy sonining 60% dan ortig'ini 18 million yosh fuqarolar tashkil etadi [2]. Aynan mana shuning uchun, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining davomiyligini ta'minlashga qaratilgan barcha strategiyalarida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda yoshlarning hayotiy maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka butunlay barham berishlik uchun nima qilish kerak, degan savol barchani qiynashi tabiiy, albatta. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilning 9-fevral kuni o'tkazilgan «Ichki ishlar organlari faoliyati, tizimda mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalar»ga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida, O'zbekistonda haftaning har payshanba kuni «Jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika kuni» deb e'lon qilindi. Hozirda bu borada juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sodir qilingan jinoyatlar bo'yicha mutasaddi tashkilotlarga taqdimnomalar kiritilib, joylarda keng jamoatchilik orasida ularning muhokamalari o'tkazilmoqda. Ammo ko'pchilik yoshlar o'zi sodir qilgan ijtimoiy havfli

qilmishini to'g'ri baholay olmaganliklari, ushbu harakat jinoyat yoki huquqbuzarlik ekanligini anglab yetmaganliklari oqibatida shu ishlarga yo'l qo'ymoqdalar. Ulardagi g'oyaviy bo'shliqni o'rmini to'ldirish, yosh avlod o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularga har bir jinoyat yoki huquqbuzarliklarning mazmun-mohiyati nimadan iborat ekanligini tushuntirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, o'z vaqtida jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Yaponiya davlatining «SONY» kompaniyasi asoschilaridan biri Masaru Ibuka o'z nazariyalarida kattalar biror narsani salyangoz tezligida o'rganishi mobaynida juda katta qiyinchiliklarga duchor bo'ladilar, bolalarga esa, bu qobiliyat darhol beriladi. Uning fikriga ko'ra, kattalar ba'zan o'rganish uchun dangasa, bolalar esa, doim o'rganishga tayyor, kattalar ba'zi ko'nikmalarni qiyinchilik bilan boshlashadi, ammo bolalar uchun bu deyarli oddiy va oson harakat hisoblanadi. Kichik bolada bilmagan narsalarni o'rganish uchun cheksiz xohishistagi mavjud bo'ladi. Agar yoshlar o'zlari sodir qilayotgan harakatining huquqiy oqibatini anglab yetganida, jinoyat va huquqbuzarlik haqida tushunchaga ega bo'lganida bu harakatlarini sodir qilmasligi mumkin edi. Amaliyotda ayrim yoshlar o'zganing mulkini ochiqdanochiq talon-taroj qilish, qo'rqitish orqali o'zganing mulkini egallash [3] kabi jinoyatlarni sodir qilishganidan keyin ular bilan tergov harakatlari davomida suhbatlashilganda, ular bu ishni oddiy bolalarcha qiziqish yoki hazil qilish natijasida sodir qilganliklarini ma'lum qilishadi. Demak, ularning harakatlarini tengdoshlari oldida muhokama qilish, o'zlarining o'y-hayollari bilan band bo'lgan yoshlar ongiga ijobiy va samarali ta'sir qilishi qiyin. Shu sababli xorij tajribasi asosida samarali strategik rejani ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagi salbiy holatlarni oldini olish, yoshlarning huquqiy ongini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin: shu vaqtga qadar yoshlar o'rtasida ko'proq kuzatilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarni aniqlab, tizimli tahlildan o'tkazish va ularni tegishli guruhlarga tasniflash; bolalarga maktab yoshidan boshlab jinoyat va huquqbuzarlik haqida tushuncha beruvchi dars soatlarini tashkil qilish, ular doirasida aslida kimnidir behurmat qilish, yolg'on gapirish, yomonlikning oldini olishga harakat qilmaslik, beparvo bo'lishlik ham qaysidir ma'noda jinoyatga asos bo'lishini targ'ib qiluvchi tegishli darsliklar ishlab chiqish; kollej va litseylarda ta'lim olayotgan talabalar uchun ham ta'lim dasturiga o'zgartirishlar kiritish, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda nazarda tutilgan, yoshlar tomonidan ko'p sodir qilinayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarni tushuntiruvchi, ularning oqibatlarini ochib beruvchi tegishli dars mashg'ulotlari joriy qilib, darsliklar ishlab chiqish; aynan mutaxassisligi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturiga ham o'zgartirishlar kiritib, JK va MJtKda nazarda tutilgan, fuqarolar tomonidan ko'proq sodir qilinayotgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar haqida to'liqroq tushuncha beruvchi dars soatlarini joriy qilish va tegishli darsliklar ishlab chiqish; yuqorida nazarda tutilgan dars mashg'ulotlarini maktab, kollej, litsey yoki oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari tomonidan emas, balki amaliyotda xizmat qilib kelayotgan mutahassis xodimlar tomonidan o'tilishini ta'minlash; yoshlarning ongiga salbiy ta'sir qiladigan, zo'ravonlik, behayolik va shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi har qanday video o'yinlar ro'yxatini shakllantirish va ularni qonun yo'li bilan cheklab qo'yish, shuningdek, vaziyatdan kelib chiqib strategik muhim qarorlarni qabul qilish lozim.

Yuqorida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy qilish dastlab unchalik ijobiy samara bermaganday taassurot uyg'otishi tabiiy, albatta, lekin muntazam ravishda

uzoq muddatli strategik reja bo'yicha harakat qilish sekin-asta o'z natijasini berishi aniq. Zero, hech narsa, birdaniga, o'z-o'zidan sodir bo'lib qolmaydi, ijobiy natijaga erishish uchun, avvalambor, mas'uliyat, sabr-toqat va yillar kerak bo'ladi. Kasallikni davolashdan oldin, kasallikni oldini olish choralarini ko'rish lozim bo'lganidak, yoshlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarlikka butunlay barham berish uchun yoshlikdanoq ta'lim-tarbiya jarayoniga katta ahamiyat qaratish, yosh avlodni jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi ruhda tarbiyalash orqali kelgusida shu ruhdagi muhitni (mentalitetni) barpo qilish zarur. Dono xalqimizda bir naql bor «yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir». Hammaga ma'lumki, mahalliy davlat hokimiyati organlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari turli qonun hujjatlarida tarqoq holda belgilangan bo'lib, ular o'rtasida yagona dialektik aloqadorlik mavjud emas. Shu sababli, mahalliy davlat hokimiyatining jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ta'sirchan vakolat va vazifalar berilishi va ular qonun hujjatlarida aniq ko'rsatib o'tilishi maqsadga muvofiq. Shunday ekan, har bir zamon va makonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda hokimiyatning, shu jumladan, ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Har bir xalq, millat o'zining kelajagini qurar ekan, bir masalaga, ya'ni yoshlarning ma'naviyati, jismoniy kamoloti, salomatligi, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Shuning uchun ham bugun mamlakatimiz Prezidenti tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning dunyoqarashini boyitish maqsadida beshta tashabbus bugungi hayotimizga tadbiq qilinmoqda. Prezidentimizning besh tashabbusni mamlakatimizda yashayotgan barcha aholi, jumladan, yoshlarning ma'naviyatini boyitish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda dasturil amal hisoblanadi. Yoshlar haqida so'z yuritganda, oliy ta'lim muassasalarining talaba-yoshlari ular ichida eng faol yoshlar hisoblanadi. Talaba-yoshlar jamiyatning kelgusi hayotidagi islohotlar bunyodkori, rivojlanish yo'nalishlari darajasini belgilab beruvchi kuch. Shuning uchun bugungi talaba-yoshlar har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallagan, jismonan baquvvat va barkamol bo'lishlari nihoyatda muhimdir. Hozirgi kunda tashabbus barcha yoshlarni bir mayoq atrofida birlashtirib, aniq maslak sari undaydi. Shuning uchun har qanday mushkulot va tahdidlarni ilm, ma'rifat, mutolaa, shijoat, jismoniy baquvvatlik, sabr-bardosh bilan yengish mumkin, degan qat'iyatni yoshlarimizning ongiga singdiradi. Internet va boshqa ijtimoiy tarmoqlardan keladigan xavf-xatar, axborot xuruji va tahdidga qarshi kurashish tuyg'usini shakllantirishda kitobxonlik, kitob mutolaasi, jismoniy chiniqish eng yaqin ko'makchi bo'lishini ko'rsatdi. Yoshlar qancha ko'p kitob o'qisa, o'z bilimini oshirsa, har qanday masalaning maqsad-mohiyatini chuqur tushuna oladi. Eng muhimi, ularda turli «izm»lar, tahdid va tahlikalarga sobit fikr, mustahkam e'tiqod va qarash bilan qarshi tura olish immuniteti shakllanadi. Jismonan va ma'nau barkamol shaxs doimiy ravishda sihat-salomatligi haqida o'ylashi, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi, ilm olish barobarida teatr va muzeylarga borishi, muqaddas qadamjolarini ziyorat qilishi, musiqa, kuy, qo'shiq eshitib dam olishi immunitetni ko'taruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Yoshlarni sportga qiziqishini yanada oshirish maqsadida hududlarda «Yoshlar haftaligi», «Xotin-qizlar haftaligi», «Mahalla va nuroniylar haftaligi», «Ta'lim muassasalari haftaligi» doirasida sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari muntazam ravishda o'tkazilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida ularni sport sog'lomlashtirish to'garaklariga jalb etish, aholi o'rtasida sportni keng ko'lamda targ'ib etish, talaba-yoshlarni jismonan chiniqtirib, sog'lom shaxs sifatida tarbiyalash uchun quyidagi mexanizmlardan

foydalanish maqsadga muvofiq: barcha oliy o'quv yurtlarida sportning ommaviyligini ta'minlash uchun ichki chempionatlarning doimiy o'tkazilishini yo'lga qo'yish (rektor kubogi, oilaviy spartakiadalar – tennis, shaxmat-shashka, badminton, voleybol va h.k.), sport aksiyalarini tashkil etish (salomatlik – mustahkam bo'ylik, sport – nafislik va go'zallik manbai, salomatlik sari dadil qadam); sport federatsiyalari, Bolalar-o'smirlar sport maktablari, olimpiya zaxiralari maktab internatlari va boshqa muassasalari bilan oliy o'quv yurtlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish. Har bir sport muassasalarini hududiy birliklarda oliy ta'lim muassasalariga birlashtirgan holda o'quv yurtlarida sport turlari bo'yicha to'garaklar, sport musabaqalarini tashkil etish; oliy o'quv yurtlaridagi sportchi-yoshlarni va sport jamoalari umumiy bazasini shakllantirish; oliy o'quv yurtlaridagi mavjud sport inshootlari va sport turlarini to'liq xatlovdan o'tkazib, natijada sport turlari va inshootlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash; mavjud sport inshootlarida tashkil etish imkoniyati bo'lgan sport turlari o'rganilib, trenerlar, jismoniy tarbiya o'qituvchilariga va qo'shimcha sport anjom hamda jihozlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash; yoshlar uchun tuman (shahar)larda yoshlarning sport turlariga bo'lgan talablaridan kelib chiqqan holda sport inshootlarini xususiy tadbirkorlar va homiyarlar ko'magida barpo etilishini monitoring qilish. Mahalliy tashabbuskor tadbirkorlar bilan muzokaralar olib borib, ulardan kelib tushgan takliflarga binoan mutassaddi rahbar xodimlarining tavsiyalariga muvofiq alohida sport liniyasi orqali ularga imtiyozli kreditlar ajratilishi hisobiga yangi sport inshootlarini bunyod etish bo'yicha takliflar tayyorlash maqsadga muvofiq. Mazkur vazifaning bajarilishi 30-35% yoshlarni sport yo'nalishlariga jalb etishga erishish imkoniyatini yaratadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholi, shu jumladan, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'lmagan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan manzilli ko'maklashish bo'yicha mutlaqo yangicha tizim joriy qilindi. Xususan, aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirini yumshatish, aholini ijtimoiy himoya qilish va ko'makka muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda manzilli, har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha mutlaqo yangi - «Temir daftar», ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishli «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» tizimlari hayotga tatbiq etildi. Jumladan, kam ta'minlangan oilalarning ishsiz a'zolari bandligini ta'minlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan investitsiya bo'limlari, aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, tijorat banklari bilan hamkorlikda tarmoq va hududiy investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarda yaratilayotgan yangi ish o'rinlariga ishga joylashtirish; tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan aholi bandligiga ko'maklashish markazlari bilan birgalikda mavjud vakansiya va zaxira (kvota) ish o'rinlariga ishga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish; tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan qishloq ho'jaligi bo'limlari bilan birgalikda kooperativlarga jalb etish, g'alladan bo'shagan yerlarda takroriy ekin ekish va oborotdan chiqib ketgan yerlarni o'zlashtirish hisobiga bandlikni ta'minlash; tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan soliq idoralari, tijorat banklari, aholi bandligiga ko'maklashish markazlari bilan birgalikda kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitishni tashkil etish, tadbirkorlik va hunarmandchilikka jalb etish, o'zini o'zi mustaqil ravishda band qilishni rivojlantirishga doir faoliyatni tashkil etish orqali bandlikka ko'maklashish; tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan markazlashgan manbalar hisobiga amalga

oshirilayotgan qurilish obyektlari hamda barcha manbalar hisobiga uy-joy qurilishi obyektlariga ishga joylashtirish. Mazkur vazifalar tuman (shahar) hokimliklari, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tuman kengashi, tijorat banklarining kam ta'minlangan oilalarda tomorqadan samarali foydalanishni tashkil etish orqali bandlikni ta'minlamoqda. Xususan: yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish; parranda, asalari, quyon, baliq va bedana boqishni yo'lga qo'yish; "Tomorqa xizmati" tashkilotlari va «Dala do'konlari»ni tashkil etish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar uchun: bandligini ta'minlash; zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida bir martalik moddiy yordam berish.

Tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun: tadbirkorlikni yo'lga qo'yishga ko'maklashish. Boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun: bir martalik moddiy yordam berish; zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida og'ir turmush sharoitidagi (uy-joyi ta'mirlashga muhtoj, biroq oilasining moddiy imkoniyati yetmaydigan) xotin-qizlarning uy-joyini ta'mirlash. Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun: tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun zarur tibbiy yordamlar ko'rsatish. Uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun: ijara kompensatsiyasini to'lash, ijtimoiy uylarga joylashtirish, uy-joy bilan ta'minlash; zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida bir martalik moddiy yordam berish. Qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar uchun: bir martalik moddiy yordam berish; zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida tomorqadan va dehqonchilikdan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko'maklashish. Xotin-qizlarga turar joy ijara kompensatsiyasi: turar joyning ijarasi uchun to'lovlarning 50 foizi, lekin ko'pi bilan 500 ming so'mgacha miqdorda to'lanadi. Ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badalni to'lab berish va foiz to'lovlarning bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratadi. Moddiy ahvoli qiyin yoshlarga bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha miqdorda moddiy yordam beriladi. Moddiy yordam quyidagilarga tayinlanadi: boquvchisini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum yoshlarga; o'zgarar parvarishiga muhtoj ishga layoqatsiz yoshlarga; I va II guruh nogironi bo'lgan yoshlarga; qaramog'ida nogiron bola bo'lgan yosh oilaga; ota-onalardan biri I yoki II guruh nogironi, ikkinchisi ishlamasdan bemorga qarashga majbur yoki ikkalasi ham I yoki II guruh nogironi bo'lgan yoshlarga; tabiiy ofatlar, halokatlar, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatida hayotiga, sog'lig'iga, mulkiga zarar yetgan yoshlarga. Yoshlar tadbirkorlikka va kasb-hunarga nodavlat kasb-hunarga o'qitish markazlarida o'qiganidan xarajatlarning 75 foizigacha qismi qoplab beriladi. Xususiy korxonalarga ishga qabul qilingan va faoliyat boshlaganiga 6 oydan oshmagan yoshlarni qayta tayyorlov kurslarida o'qitish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning BHMning 4 baravarigacha bo'lgan qismi mazkur xususiy korxona va tashkilotlarga kompensatsiya qilinishi mumkin. Tomorqa yer egasi yoki ikkilamchi ijara asosida yer berilgan yoshlarga urug'lik va ko'chatlar olish uchun BHMning 8 baravarigacha pul to'lab beriladi. Yosh tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida soliq organlarida ro'yxatdan o'tgan fuqaroga faoliyatini amalga oshirayotgan noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlarning bir yilda BHMning

25 baravarigacha qismi qoplab berilishi mumkin. Tadbirkorlik yoki o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamog'chi bo'lgan yoshlarga asbob-uskuna yoki mehnat qurollarini xarid qilish uchun BHMning 40 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi. «Temir daftar»ga kiritilgan oilalar farzandlarining professional va oliy ta'lim muassasalarida to'lov-

kontrakt asosida o'qish bo'yicha yillik xarajatlarini to'lab berish to'lov-kontrakt summasining 50 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan oshmagan miqdorda amalga oshiriladi. Yosh oilalarning sektorlar rahbarlariga va Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limlariga bergan arizasiga muvofiq, ularga 12 oygacha turar joy uchun ijara kompensatsiyasi har oyda BHMning 3 baravaridan oshmagan miqdorda to'lab berilishi mumkin.

Turar joy ijara kompensatsiyasi: turar joyning umumiy maydonidan kelib chiqib, uning 1 m<sup>2</sup> uchun bir oyga Toshkent shahrida BHMning 6 foizigacha; Nukus shahri va viloyatlar markazlarida 4 foizigacha; boshqa hududlarda 2 foizigacha miqdorda to'lanadi.

**Xulosa.** Nodavlat kasb-hunarga o'qitish markazlari sertifikatiga ega yoshlarga biznesni tashkil etish uchun «Mikrokreditbank» banki tomonidan quyidagicha mikrokredit ajratiladi: yoshlarga o'z biznesini tashkil etish uchun 33 million so'mgacha bo'lgan miqdordagi mikrokreditlar ta'minotsiz ajratiladi; mikrofirma va kichik korxona ta'sis etgan ta'minot turlari asosida 225 million so'mgacha miqdorda. Kreditlarning foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasida belgilanadi. Kreditlar 6 oygacha imtiyozli davr bilan 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ajratiladi. Yoshlarning xorijda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini tashkil etish Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Yoshlarga bepul tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatiladi. «Temir daftar»ga kiritilgan oilalarning ahvoli og'ir bo'lgan bemor farzandlarining mamlakatda yoki xorijiy davlatlarda davolanish bilan bog'liq xarajatlarining BHMning 50 baravaridan oshmagan miqdordagi qismi tegishli qoplab beriladi.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик Палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2022 йил 29 декабрдаги 2816-IV-сон КҚ-447-IV-сон Қўшма қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
3. Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 166-моддаси: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

---

**YENGIL DIZARTRIYALI BOLALARDA MONOLOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISH**

***Yakubova Sanobar Kamilovna***, *Xorazm viloyati, Yangibozor tumani*  
*15 maktab qoshidagi logopedik shaxobcha mudirasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yengil dizartriya bolalarda nutq xususiyatlari tahlil etilgan, eksperimental tadqiqot o'tkazilgan va nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda monologik nutq komponentlarini rivojlantirishga oid tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** dizartriya, serebral falaj, giperkinez, dialog, monologik nutq, rivojlantirish, lug'at boyligi.

**РАЗВИТИЕ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С ЛЕГКОЙ ДИЗАРТРИЕЙ**

***Якубова Санобар Камилловна***, *заведующая логопедическим центром при*  
*школе № 15 Янгйбозорского района Хорезмской области*

**Аннотация.** В данной статье проанализированы особенности речи, проведено экспериментальное исследование и осуществлен анализ уровня сформированности овладения компонентами монологической речи у детей с дизартрией.

**Ключевые слова:** дизартрия, церебральный паралич, гиперкинез, диалог, монологическая речь, развитие, словарный запас.

**DEVELOPMENT OF MONOLOGUE SPEECH IN CHILDREN WITH MILD DYSARTHRIA**

***Yakubova Sanobar Kamilovna***, *head of the speech therapy center at school No.*  
*15, Yangibozor district, Khorezm region*

**Abstract.** This article analyzes the features of speech, conducted an experimental study and analyzed the level of development of mastery of the components of monologue speech in children with dazarthria.

**Key words:** dysarthria, cerebral palsy, hyperkinesis, dialogue, monologue speech, development, vocabulary.

**Kirish.** Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Istiqloq vazifalari esa, bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi.

**Asosiy qism.** Mamlakatimizda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning sog'lom tengqurlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil, yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma'ruzasida «Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz, nafaqatdavom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz», – deb aytgan [1]. Ma'lumki, nutq kamchiliklari bolalar tomonidan sensor etalonlarni mustaqqil egallash

jarayonini qiyinlashtiradi. Bu holat idrokining rivojlanishining asosini tashkil etuvchi perseptiv harakatlar va jarayonlarni shakllanishini kechiktiradi. Dizatriyali bolalarda vaziyatli-predmetli-harakatli aloqalarning kamligi so'z ma'nosini tushunishni qiyinlashtiradi, shuningdek, bolalarning nutqini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun maxsus tashkil etilgan korreksion ta'sir nutqiy va nutqiy bo'lmagan funksiyalarni rivojlantirishga qaratilsa, dizatriyali bolalarda nutqning barcha tomonlarini to'laqonli shakllantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda logopediya fanining oldida turli bolalarda nutqiy nuqsonlarni tuzilishi va mexanizmidan kelib chiqib bartaraf etishning differensiallashgan usul va metodlarini ishlab chiqish vazifasi turibdi. M.B.Eydinova va Ye.N.Pravdina-Vinarskaya, Ye.M.Mastyukovaning fikricha, dizatriya bolalar serebral falaji bilan kasallangan bolalarning 65-85% ida kuzatiladi. Harakat faoliyatining buzilish darajasi bilan dizatriyaning og'irlik darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjud [3]. Bolalar serebral falajining og'ir shaklida bola umuman harakatsizlanib qoladi va bunday bolalarning deyarli hammasida dizatriya (anatriya) kuzatiladi. I.V.Ippalitovaning ma'lumotiga ko'ra, maxsus muassasalarda tarbiyalanuvchi bolalar serebral falaji bilan kasallangan bolalarning 60-70%ida dizatriyaga xos nutq buzilishlari kuzatiladi. Miyaning turli qismlaridagi jarohatlanishlar nutqning dizatrik buzilishlari bilan kuzatiladi. Hozirgi kungacha dizatriya masalasi kam o'rganilgan. Masalan, M.S.Margulis dizatriyaga barcha nutqiy xarakatlarni kiritadi va dizatriyani motor afaziyadan aniq ajratib o'rganadi hamda uning bulbar hamda serebral shakllarini ajratib bergan [5]. L.B.Litvak dizatrik nutq buzilishlarining lokal-dagnostik ahamiyatiga o'z e'tiborini qaratdi. Dizatriya deganda, muallif faqat artikulyatsiya buzilishlarini tushundi, ammo o'z fikriga qarshi ular qatoriga nutqning temp, ritm, ravonligining buzilishi kabi turli xil nuqsonlarni kiritdi.

Bugungi kunda dizatriyani namoyon bo'lishi klinik, neyrolingvistik, psixologopedagogik yo'nalishlarda o'rganilmoqda. Dizatriyaning bolalar serebral falaji bilan kasallangan bolalarda namoyon bo'lishi M.B.Eydinova, Ye.N.Pravdina-Vinarskaya, K.A.Semyonova, Ye.M.Mastyukova (I.P.Panchenko, L.A.Danilova va boshqalar ishlarida yoritilgan. Ko'pchilik mualliflarning fikricha, dizatrik bolalar nutqi noaniq tempi buzilgan, sekinlashgan bo'ladi. Shuningdek, ovozda ham turli xil o'zgarishlar kuzatiladi; odatda ovoz past yoki bo'g'iqlik bo'ladi, jumla oxirigacha gapirilmaydi, pauzalar o'rni buziladi, tovush va so'zlar tushirib qoldiriladi. Artikulyatsion motorikaning buzilishi artikulyatsion muskullar tonusining o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi va ixtiyoriy harakatlar hajmini cheklab qo'yadi [4].

Muvozanatning buzilishi, nafas, ovoz buzilishlari, til va lablardagi turli xil yondashadilar: jarohatlanish o'chog'iga qarab, nevrologik simptomning ustunligi yoki neyrolingvistik qarashlar bo'yicha. Ammo ko'pchilik mutaxassislar dizatriyani tasniflashda jarohatlanish o'chog'ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizatriyani quyidagi turlarga ajratadilar: bulbar, psevdobulbar, qobiqosti, miyachali, qobiqli dizatriya.

- innovatsion pedagogik tajriba maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi;
- maktab ma'muriyati tomonidan har bir darsning o'tkazilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi zarur.
- viloyat va tuman metodik xizmati xodimlaridan o'z vaqtida yordam ko'rsatish;
- innovatsion pedagogik tajriba maktablarining hurmatli rahbarlarini nafaqat ma'naviy, balki moddiy jihatdan ham rag'batlantirish, chunki har bir rahbar juda kqp harakat qiladi, darslarga tayyorgarlik qqrish uchun kqp vaqt sarflaydi.

O'rganish shuni ko'rsatdiki, maktab va tumanlar miqyosida olib borilayotgan metodik ishlar boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirishda katta imkoniyatlarga ega.

**Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 6-son, 70-modda.
2. Vulfov B.Z., Xarkin V.N. Pedagogika refleksii: Vzglyad na professionalnuyu podgotovku uchitelya. - M.: Magistr, 1995. - 112 s.
3. Zagvyazinskiy V.I. Pedagogicheskoe tvorchestvo uchitelya. Biblioteka uchitelya i vospitatelya. - M.: Pedagogika, 1987. - 160 s.
4. Kan-Kalik V.A., Nikandrov N.D. Pedagogicheskoe tvorchestvo: Biblioteka uchitelya i vospitatelya. - M.: Pedagogika, 1990. - 144 s.
5. A. Karimjanov «Pedagogik tizimni boshqirish asoslari». (O'quv qullanma), Nizomiy TDPI Toshkent 2008
6. A. Karimjanov. «O'quv muassasalarda me'oriy hujjatlarni yuritish» (O'quv qullanma) Toshkent 2018.
7. A. Karimjanov. «Roxhoi tashkili korhoi mustaqilona». Dasturi texnologiy. Chirchiq 2019.
8. A. Krimjanov D. Karimjanova «ALIFBO, bozy va inkishofi nutq». (O'quv qullanma) Hamkor nashriyoti. Toshkent. 2020.
9. A. Karimjopov. F. Ochilov «Boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiya muammolari». Toshkent. «IRFON». 2021 y.



**PEDAGOGIK TA'LIMDA PSIXOLOGIK TASVIRINI OCHIB BERISH MAHORATI**

**Nurgizarova Zakira Beketovna**, *Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yozuvchi O'tkir Hoshimovning «Urushning so'nggi qurboni» hikoyasidagi obrazlar misolida psixologik tasvir mahoratiga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** *psixologik tasvir, qissa, ruhiyat, davr, obraz, ocherk, roman.*

**УМЕНИЕ РАСКРЫТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ОБРАЗ  
В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Нургизарова Закира Бекетовна**, *преподаватель Ташкентского института экономики и педагогики*

**Аннотация:** В данной статье изложены отзывы о мастерстве психологического изображения на примере образов из повести писателя Уткира Хашимова «Последняя жертва войны».

**Ключевые слова:** *психологический образ, рассказ, психика, эпоха, образ, очерк, роман.*

**THE ABILITY TO REVEAL THE PSYCHOLOGICAL IMAGE  
IN PEDAGOGICAL EDUCATION**

**Nurgizarova Zakira Beketovna**, *Lecturer at the Tashkent Institute of Economics and Pedagogy*

**Abstract:** This article presents reviews of the skill of psychological portrayal on the example of images from the novel by the writer Utkir Hashimov «The Last Victim of the war».

**Key words:** *psychological image, story, psyche, epoch, image, essay, Novel.*

**Kirish.** O'zbekiston xalq yozuvchisi, noyob iste'dod sohibi O'tkir Hoshimov o'zining ajoyib hikoya, qissa va romanlari bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib ulush qo'shdi. U adabiyotga kirib kelgan paytda Abdulla Qahhordek hassos adib e'tiborini jalb qilgan iste'dodli yosh yozuvchilardan edi.

**Asosiy qism.** O'tkir Hoshimov 1941-yilning 5-avgustida Toshkent viloyatining Zangiota tumani Do'mbirobod mahallasida tavallud topdi. Bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan.

O'tkir Hoshimov o'zining sermahsul ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshladi. 1962-yilda uning «Po'lat chavandoz» ocherklar to'plami bosilib chiqdi. Shundan keyin uning birin-ketin hikoya, qissa va romanlari kitobxonlarning qo'lga borib tegdi. Uning ilk qissasi «Cho'l havosi» (1964) adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi. Atoqli adib Abdulla Qahhor bu qissa haqida o'sha paytda juda yaxshi fikr bildirgan. O'tkir Hoshimovning bu qissasiga yozgan oq yo'lida u «Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi», – deb bashorat qilgan edi. Shu asardan yozuvchining izlanish va mashqlar davri boshlandi. Adib ijodidagi ilk qadamlaridayoq inson ma'naviyati, ruhiyati, hissiyoti, qalb haqiqati tadqiqotchisi sifatida ko'ringan edi. Yozuvchining hikoya, qissalaridagi voqealar nihoyatda jonli, ta'sirli va real tasvirlanardiki, kitobxon bevosita asardagi muhitga tushib qolgandek bo'lardi.

Adibning urush yillari, o'sha davrda yashagan insonlarning fojeali taqdirini yorqin aks ettirgan o'lmas asarlaridan biri bu «Urushning so'nggi qurboni» hikoyasidir. Asarda ko'plaming yostig'ini quritgan urush, yo'qchilik azobi va og'ir dardga chalingan farzandiga jonini ham berishga tayyor turgan munis onaning iztiroblari juda yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan.

Yozuvchi «Urushning so'nggi qurboni» hikoyasida ijtimoiy muammolar, oilaviy munosabatlar, inson qalbining, ruhiyatining tahliliga alohida e'tibor qaratadi. Asardagi Umri xola, Shoikrom va Xadicha obrazlarining og'ir o'y-kechinmalari, hayot qiyinchiliklariga nechog'lik bardoshliliigi kitobxonni larzaga soladi.

Hikoya Shoikromning ayvon to'ridagi sandal chetida xomush o'tirishi tasviri bilan boshlanadi. Voqealar bahor faslida ro'y beradi. «Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shinni dog'i qotgan quroq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xunuk ko'rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo'l siltadi-yu, do'ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi». Bu tasvirlar orqali qahramon ruhiyatidagi hayotdan norozilik tuyg'usini ifodalash uchun O'tkir Hoshimov eng mayda detallargacha ahamiyat qaratadi.

«Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlari uchun ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g'unajinini o'g'irlagani uchun, o'lim to'shagida yotgan ukasining oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun non puli bo'lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki, o'sha xudo bexabarlardan». Ushbu parchada ham Shoikromning ichki kechinmalari, uni ezayotgan dard va xayollari yaqqol tasvirlanadi. Urush tufayli oziq-ovqat tanqisligi, ro'zg'or tebratish mashaqqati va bedavo sil kasaliga chalingan Shone'matning tashvishi ham Umri xolaning, ham Shoikromning qalbini o'rtaydi. Xadichaning ba'zi inijliklari, qolgan ovqatni ertalab eriga isitib berish uchun qaynonasiga olib chiqmagani; bolalarini jerkib: «Ovozi o'chsa koshiyki! To'qqiz kechasida jin tekkan bunga!-deyishi, Shoikromning «Kambag'alning ekkani unmaydi, bolasi ko'payadi o'zi. Shu kunimdan ko'ra urushga borib o'lib keta qolganim yaxshiydi» – deb o'ylashi-hammasi urush tufayli yuzaga kelgan yetishmovchiliklar sabab edi.

Shoikrom xotini haqida: «Azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi» - deydi. Asardagi bu kabi tasvirlar qahramonlar ruhiyatidagi ezig'inlik, o'ksinish hissi, noiljlik tuyg'usi-urushning asorati sifatida ko'rsatilgan.

Shoikromning o'g'irlab ketilgan sigiri alamida xotiniga tarsaki tortib yubormaslik uchun yuzini o'girib, tishini g'jirlatishi uning psixikasida ro'y berayotgan g'alayonlar ifodasidir. Shu sababli ham u o'g'irlardan nafratlanadi. Bolalari va bemor ukasining «og'zini quritgan» sigirini o'g'irlagan va qulupnaylarini ham tunda terib ketayotgan o'g'rini ushlab olsa, chopib tashlardim deb shaxd qiladi. Shu o'rinda Shoikrom echkisi o'g'irlab ketilgan Ilhom samovarchining xotini pichoqlab ketilganini eslaydi.

Qulupnay pushtalari orasiga tashlab chiqilgan elektr simlariga o'ralashib qolib o'lim topgan Umri xolaning jasadini ko'rgan Shoikrom va Shone'matning ruhiy iztiroblari juda yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Yozuvchi hikoya so'ngida mushfiq onaning o'limi dahshatini ko'rsatish uchun Shone'matni ham tilga kirgizadi: «Sut ichmay zahar ichsam bo'lmasmidi. Kechayam aytuvdim ko'nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar». Umri xolani qabrga qo'yib kelishayotganda urush tugaganligi haqidagi gapni eshitishadi. Mana shu xabar Umri xola fojeasining yakuni bo'ladi, ya'ni u urushning so'nggi qurboniga aylanadi.

«Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo'lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko'lanka tashlab turibdi. Hali u qo'shninikida aza ochiladi, hali bu qo'shninikida»-

deydi asarda yozuvchi. O'tkir Hoshimovning asl mahorati ham shundaki, asarlari orqali nima demoqchiligini va voqeaning chin mohiyati, sabablari, oqibatlariga asar orasida qisqagina izoh berib o'tadi.

**Xulosa.** Demak, O'tkir Hoshimov qalami o'tkir yozuvchi ekanligini uning har bir asarida ko'rishimiz mumkin. Xoh hikoya, xoh qissa, xoh roman bo'lsin-barchasida tug'ma iste'dod ifodasi o'laroq nozik kechinmalar, qahramonlar ruhiyati tasviri mohirona, ustalik bilan aks ettirilgan. Adibning betakror ijodi hamisha adabiyotimiz sahifalarini bezab turishi, shubhasiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. T.O'zbekiston.2009.
2. O'tkir Hoshimov.Tanlangan asarlar.T. G'afur G'ulom. 2021.
3. Achilova E.O'tkir Hoshimovning psixologik tasvir vositalaridan foydalanish mahorati.T. 2022.
4. Ziyonet.uz-Axborot ta'lim portal «Kutubxona sahifasi».
5. Matkarimova, S. S. Q. (2021). Mumtoz adabiyot namunalarining elektron resurslarini yaratishda talmeh san'atining o'rni // Scientific progress, 1(6), 528-534.
6. Matkarimova S.Sh. Independent work methods for forming students' cognitive competence through literary and theoretical concepts in the system of differential literary education // Volume 1, Issue 6, September2023ISSN (E):2938-379X

---

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING JAMOA BO'LIB ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

**Jabborova Onaxon Mannapovna**, *Chirchiq davlat pedagogika universiteti*  
*Boshlang'ich ta'lim metodikasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*  
**Saparbaeva Dinoraxon**, *Boshlang'ich ta'lim talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoa bo'lib ishlash ko'nikma-sini shakllantirish metodikasi taxlil qilingan va muallifning individual yondashuvi taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich sinf, o'quvchilar jamoasi, ko'nikma va yondashuv, o'zaro yordam va hamkorlik, metodika va vosita, ko'nikma va malaka.*

## МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ УМЕНИЯ РАБОТАТЬ В КОМАНДЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

**Джабборова Онахон Маннаповна**, *Чирчикский государственный педагогический университет заведующий методикой начального образования, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,* **Сапарбаева Динорахон**, *студентка начального образования*

**Аннотация:** В статье анализируется методика формирования у младших школьников умения работать в команде и представлен индивидуальный авторский подход.

**Ключевые слова:** *начальный класс, коллектив учащихся, навыки и подходы, взаимопомощь и сотрудничество, методология и средство, умения и навыки.*

## METHODS OF FORMING THE ABILITY TO WORK IN A TEAM OF YOUNGER STUDENTS

**Jabborova Onakhon Mannapovna**, *Chirchik State Pedagogical University Head of Primary Education Methodology, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,* **Saparbayeva Dinorakhon** *student of primary education*

**Abstract:** The article analyzes the methodology of forming the ability of younger schoolchildren to work in a team and presents an individual author's approach.

**Key words:** *primary class, student team, skills and approaches, mutual assistance and cooperation, methodology and means, skills and abilities.*

**Kirish.** O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida boshlang'ich ta'lim jarayonini halqaro ta'lim dasturlariga moslashtirish va uning ko'rsatkichlarini oshirib borish «O'zbekiston-2030» strategiyasida belgilangan asosiy vazifalardan birini tashkil qiladi[1]. Shu jihatdan butun dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida amal qilayotgan o'quvchilarning 4K modeli, ya'ni kommunikatsiya (ta'lim sharoitidan foydalanish), kollabaratsiya (jamo bo'lib ishlash), kreativlik (ijodiy fikrlash) va krititsizm (tanqidiy fikrlash) ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim masalalardan hisoblanadi. Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinf o'quvchilarining ana shunday eng muhim ko'nikmalaridan biri jamoa bo'lib ishlashni shakllantirish metodikasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

**Asosiy qism.** O'quvchilar jamoasining xususiyatlari. Jamoa – bu ikki va undan ortiq shaxslarning o'zaro va yagona maqsad yo'lida birlashib xarakat qilishidir[2]. Shu jihatdan o'quvchilar jamoasi – bu ta'lim oluvchilarning jismoniy, yosh, aqliy va estetik xususiyatlariga mos ravishda o'zaro guruhlardan iborat bo'lgan shaxslar majmuidir. Bunda boshlang'ich

sinf o'quvchilarining jamoasiga xos bo'lgan xususiyatlar ham farqlanadi. Mazkur farqliklar quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlab o'tish lozim:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish maqsadida muayyan guruhlar shaklida jamoa bo'lib tarkib topishi;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoasi muddatli va ta'sir kuchiga ega bo'lishi;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoasi dinamik rivojlanib borish xususiyatga egaligi;

4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoasini kuzatib borish zaruriyati mavjudligi.

Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoasi eng avvalo bilim olish maqsadida tarkib topishiga e'tibor berish lozim. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim olish faoliyatidan boshqa shaxsiy manfaatlari bo'yicha guruh bo'lib shakllanmaydi va buning natijasida boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy xarakterli bo'lgan hamda o'ziga jalb etiluvchanlik xususiyatiga ega jamoa tarkib topadi. Bunday jamoa tabiiy ravishda boshlang'ich sinflar kesimida rivojlanib boradi. Unutmaslik lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zaro o'rtoq yoki dugona bo'lishi guruh sifatida e'tirof etilmaydi. Shu jihatdan o'quvchilar guruhi bu eng kamida 5-6 nafar ta'lim oluvchilardan iborat bo'lgan kichik jamoadir va bunday guruhlarning majmui boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoasini tashkil qiladi. Mazkur xususiyatlarni e'tiborga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasiga munosabatda bo'lish taqozo etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoasi sinflar kesimida muddatli rejimga ega bo'lib, uning ta'lim va tarbiya jarayoniga ta'siri yuqori hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari sinflar kesimida bilim, ko'nikma hamda amaliyot vositalarini o'rganib borishi jarayoni bilan o'quvchilar jamoasining muddatli va ta'sir kuchiga ega bo'lishini tarkib toptiradi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoaviylik shakllariga muddatli munosabatda bo'lish va ularning ta'siriga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aslida bu hol jamoaviylikning yashovchanligini ta'minlovchi va uning tadriijiy rivojlanishiga asos bo'luvchi holatdir. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasining muddatli va ta'sir xususiyatlariga e'tibor berish ularni yo'naltirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoasi dinamik rivojlanish xususiyatiga ham ega bo'ladi. Bunda ta'lim olishning kuchayishi, tarbiyaning amaliy samaradorligi va o'quvchilarning faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirishi ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilarning jamoasi murakkab omillar asosida rivojlanib borishini hisobga olgan holda, jamoaning jipsligini va birligini ta'minlovchi tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda ayniqsa, sinf rahbarlarining faolligi o'quvchilar jamoasining dinamik jihatdan to'g'ri rivojlanib borishini ta'minlashini eslatib o'tish joiz. Misol uchun, muayyan boshlang'ich sinfda o'zlashtirish darajasi yuqori, demak, shu sinf o'quvchilar jamoasi bilim olish maqsadida jipslashgan. Yoki boshlang'ich sinfda ahillik, inoqlik va o'zaro yordam ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi, bu hol shu sinfda tarbiyalanganlik darajasi asosida o'quvchilar jamoasining dinamik rivojlanganligini ko'rsatadi. Mazkur omillarni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasining dinamik rivojlanishini kuzatib borish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasini o'rganish va kuzatib borish vositasida boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligiga erishish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunda o'quvchilar jamoasining ijobiy yoki salbiy, murakkab yoki qulay shakllarda ekanligini aniqlash, o'quvchilarning o'zaro munosabatlarni kuzatish, o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasidagi

muloqotlar ko'lamini aniqlab borish o'quvchilar jamoasi to'g'risida aniq tasavvurlarni berishini eslatib o'tish joiz. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasini kuzatib borish ishlari o'qituvchilar jamoasi tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu masalaning ahamiyati shundaki, agar boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasi o'zaro ziddiyatlar asosida kechadigan bo'lsa, uning ta'lim va tarbiya sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi kelib chiqadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasini nazorat qilishni emas, aksincha, kuzatib borishni taqozo etadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoa bo'lib ishlashga yo'naltirish shakllari. Boshlang'ich sinflarda tarkib topgan jamoaning imkoniyatlaridan foydalangan holda, o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlashga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Chunki jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchi ta'lim muhitiga tez ko'nikadi, jamoatchilik joylarida o'zini kutilgan darajada tuta oladi va unda jamoatchilikka bo'lgan intilish ko'nikmalari tarkib topadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoa bo'lib ishlashga yo'naltirish o'qituvchilar va sinf rahbarlarining bugungi kundagi eng muhim vazifalari sarasiga kiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoa bo'lib ishlashda yo'naltirishning eng muhim shakllari quyidagilardan iborat:

- 1) ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarni birgalikda xarakat qilishga yo'naltirish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini birgalikda topshiriqlar va uy vazifalarini bajarishga yo'naltirish;
- 3) sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini hamkorlikda faoliyatda bo'lishga yo'naltirish;
- 4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalaridan foydalanishga yo'naltirish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni birgalikda xarakat qilishga yo'naltirish ularni jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv adabiyotlari, qurollari, vositalari va jihozlaridan o'zaro ahillikda hamda birgalikda foydalanishga ko'niktirilishi kerak. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsiy manfaatlarining tarnsformatsiya, ya'ni umumiy manfaatlarga moslashuv jarayoni kechadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini birgalikda xarakat qilishga yo'naltirish muhim amaliy o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirishning eng muhim amaliy asoslaridan biri ularni berilgan topshiriqlar va uy vazifalarini jamoa bo'lib bajarishga yo'naltirishdir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va sinf rahbarlari o'quvchilarning ta'lim va tarbiya bo'yicha berilgan topshiriqlarni hamda uy vazifalarini sinfdan jamoa bo'lib bajarishga yo'naltirishi muhim o'rin tutadi. Topshiriqlar va uy vazifalarini jamoa bo'lib bajarish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari bir-birlaridan bilmaganlarini o'rganadi, ko'nikmalar bo'yicha o'zlashtirishlar yuzaga keladi va eng asosiysi sinf jamoasini jipslashishning imkoniyatlari kengayadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari topshiriqlar va uy vazifalarini katta yoshlilar yordamida bajarishdan ko'ra, sinfdan jamoa bo'lib bajarishda kerakli ko'nikmalarni tez o'zlashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini tarkib toptirishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning ta'siri muhim o'rin tutadi. Chunki sinfdan va maktabdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlar, tarbiyaviy tadbirlar hamda jamoaviy tajribalar jarayonida o'quvchilar o'zlarini erkin tutadi va jamoaning bir qismi sifatida o'zini his qiladi. Eng asosiysi

bunday ishlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchisida o'zining jamoasiga kerakli ekanligini his qilish tuyg'usi paydo bo'ladi. Shu sababli mazkur imkoniyatdan oqilona foydalangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish kutilgan samarani beradi. Bu jarayonda mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchi yoki murabbiy yo'naltiruvchi vazifasini bajarishi kerak. O'quvchilar jamoasining o'zi sinfdan va makatbdan tashqari tadbirlardagi jarayonda erkin tarzda ishtirok etishi lozim. Buning natijasida ularda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasining muhim mexanizmlaridan biri tarkib topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun ularning har birini o'z jamoaparvarlik ko'nikmasidan foydalanishga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. E'tibor berilsa, jamoaviy faoliyat jarayonida ba'zi boshlang'ich sinf o'quvchilari faollik ko'rsatishadi va ularda o'z ko'nikmalaridan foydalanish tarkib topganligi namoyon bo'ladi. Ayrim o'quvchilar esa jamoaviy faoliyat jarayonida sust ishtirok etadi va bu hol aynan mana shu toifa o'quvchilar bilan individual ishlash tarzida ularni o'z jamoaparvarlik ko'nikmasidan foydalanishga o'rgatib borishni taqozo etadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchisini o'z ko'nikmalaridan foydalanishga o'rgatish yoki yo'naltirish tez samara beradi. Bunda o'quvchilarda tortinchoqlik, uyatchanlik kabilarning o'rmini faollik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar egallaganligiga duch kelinadi. Aynan mana shunday yondashuv o'quvchilarni o'z jamoaviy ko'nikmasidan foydalanishga yo'naltirish samaradorligini beradi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoa bo'lib ishlashga yo'naltirish shakllari qulay, oson va tez samara beruvchi xususiyatlarga ega. Aynan mana shu masaladan ana shunday shakllarga tayanish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasi bilan hamkorlik vositalari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirilgan jamoaviy ko'nikmalari va ularning jamoa bo'lib ishlash tajribasini uyg'unlashtirgan holda o'quvchilar jamoasini hamkorlik vositasida rivojlantirib borish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilar jamoasini hamkorlik vositalari asosida rivojlantirib borish ularning ta'lim va tarbiya bo'yicha ko'nikmalari ko'rsatkichlarini yuksaltirib borishning muhim omilidir. Shu ma'noda bunday hamkorlik vositalarining asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) ota-onalar bilan hamkorlik qilish vositasi;
- 2) yoshlar yetakchisi bilan hamkorlik qilish vositasi;
- 3) maktab jamoasi bilan hamkorlik qilish vositasi;
- 4) maktablararo hamkorlik qilish vositasi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik vositasi muhim o'rin tutadi. Bunda ota-onalar ta'lim va tarbiyasha oid o'z vakolatlari doirasida xarakat qilishi, ya'ni o'z farzandlariga o'zgalami kamsitib ko'rsatmaslik, o'zlarining oilaviy sharoitlarini maqtamasligi, farzandlaridan xudbinlik kabi illatlarni tarkib toptimaslik va aksincha, ota-onalar o'z farzandlarida o'rtoqlari yoki dugonalar bilan ahil bo'lishni, sinf jamoa ishlarida faol ishtirok etishni, o'zgalami yordam berishni kabi fazilatlarini targ'ib etishi lozim. Bu bilan ota-onalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirishda munosib ishtirok etadi. Mazkur masala bo'yicha ilmiy va metodik tadqiqotlar majmukini yaratish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Yoshlar yetakchilari faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni birlashtirish va ularni ijtimoiylashtirishdan iborat. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasini rivojlantirishda Yoshlar yetakchisi bilan hamkorlik qilish muhim o'rin tutadi. Bunda Yoshlar yetakchisi yuqori sinf faol o'quvchilarini volontyorlar sifatida belgilab, ular vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasi

bilan ishlashni tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari duch keladigan muammolarni hal etishda yordam berishi va lozim hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini zararli ta'sirlardan muhofaza qilishi bilan o'quvchilar jamoasini rivojlantirish ishiga o'z hissasini qo'shadi. Eslatib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan mamlakatimizda 2022 yildan buyon O'zbekiston volontyorlar assosotsiatsiyasi jamoatchilik tashkiloti faoliyat yuritib kelmoqda va bu faoliyatda o'quvchilarning ham faol ishtirok etayotganligi muhim ahamiyatga egadir. Bu omildan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilar jamoasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasini hamkorlik asosida rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri maktab jamoasi bilan hamkorlik qilishdir. Bunda maktab o'qituvchilari, psixologlari va tibbiyot hodimlari boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasida muddatli yuzaga keladigan muammolarni hal etishda amaliy ishtirok etadi. Misol uchun, muayyan boshlang'ich sinf jamoasida bilimlarni o'zlashtirish susaydi, bunday sharoitda maktabning mahoratli o'qituvchilari turli pedagogik va psixologik ta'sirlar vositasida mazkur jamoada o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yuksaltirish ishlarini amalga oshiradi. Yoki maktab psixologi boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasidagi ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni kuzatib borishi bilan mazkur jamoaning rivojlanishiga ilmiy hissa qo'shishini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda maktab jamoasining har birini boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasini rivojlantirishdagi ishdagi o'z vazifalari mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim.

Bugungi kunda mamalakatlarimiz hududlari kesimida maktablararo hamkorlik vositasi rivojlanib bormoqda. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasini hamkorlik vositasida rivojlantirish uchun maktablararo tajriba ayriboshlash, tadbirlarni birgalikda o'tkazish, tajriba almashish va tadbirlarda maktablarning o'quvchilari ishtirokini ta'minlashga e'tibor berish muhim o'rin tutadi. Bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zga maktablardagi tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga intilish, ular bilan birgalikda muammolarni hal etish, o'zaro yordam va do'stlashish kabi ko'nikmalar tarkib topadi. Bunday ko'nikmalar boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasini maktablararo hamkorlikda rivojlantirishning amaliy mexanizmlari bo'lib xizmat qiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini hamkorlik vositasida rivojlantirish aniq mexanizmlarga ega. Ulardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Xulosa.** Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu metodikada boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasining o'ziga xosligini e'tiborga olish, o'quvchilar jamoasini maqsadli yo'naltirish va mazkur jamoani hamkorlik vositasida rivojlantirib borish muhim o'rin tutadi. Mazkur masalalar bo'yicha keng ko'lamli ilmiy, nazariy va metodik tadqiqotlar majmuini yaratish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

#### Adabiyotlar:

1. «O'zbekiston-2030» strategiyasi. // [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. Djuraev R. va boshq. Pedagogika atamaları lug'ati. - Toshkent, 2008
3. Jabborova O. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. - Toshkent, 2023



---

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA FOYDALANADIGAN O'QUV VOSITALARI**

**Musurmonova Mavluda**, Chirchiq davlat pedagogika universiteti «Boshlang'ich ta'lim metodikasi» kafedrası o'qituvchisi, **Kumush Zamidova Najmiddin qizi**, Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida qo'llaniladigan o'quv vositalari, ulardan samarali foydalanish usullari usullari to'g'risida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** reja, xomashyo, texnika, illyustratsiya, qo'llanma, ideal, material, dinamik, harakatli ko'rsatma-qo'llanmalar, rasm, chizma.

**УЧЕБНЫЕ ПОСОБИЯ, ИСПОЛЗУЕМЫЕ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Мусурмонова Мавлуда**, преподаватель кафедры «Методика начального образования» Чирчикского государственного педагогического университета, **Кумуш Замидова Нажмиддин дочь**, студентка 4-го курса факультета начального образования

**Аннотация:** В статье описаны средства обучения,используемые на уроках математики в начальных классах, способы их эффективного использования.

**Ключевые слова:** план, сырье, техника, иллюстрация, пособие, идеал, материал, динамика, инструкция по действию-пособия, рисунок, чертёж.

**TEXTBOOKS USED IN TEACHING MATHEMATICS IN ELEMENTARY GRADES**

**Musurmonova Mavluda**, lecturer of the department «Methodology of Primary Education» of Chirchik State Pedagogical University, **Kumush Zamidova Nazhmiddin daughter**, 4th year student of the Faculty of Primary Education

**Abstract:** The article describes the teaching tools used in mathematics lessons in primary school, ways of their effective use.

**Key words:** plan, raw materials, technique, illustration, manual, ideal, material, dynamics, instructions for action-manuals, drawing, drawing.

**Kirish.** O'qituvchi doimo o'z oldiga «Darslikdagi o'quv materiali o'quvchiga qanday tarbiyani beradi?» degan savolni qo'yishi kerak. Darslikda berilgan ko'pchilik misol va matnli masalalar faqat ta'lim maqsadlarini hal qilishi kerak, degan fikr mutlaqo noto'g'ri. Chunki bu misol va mashqlar ko'pgina tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshiradi. Masalan, kishilarning turmush va mehnatlari, xalq xo'jaligi rejalari, ularni bajarishga intilish, tadbirkorlikning mohiyati, mehnat unumdorligi, xomashyo, vaqtni tejash, narx, savdo, texnika va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar beradi. Darslikda tavsiya qilingan har xil turdagi mashqlar boshlang'ich sinfda matematika o'qitish orqali amalga oshiriladigan tarbiyaviy masalalarning bajarilishi uchun imkoniyat yaratadi. Mashqlar tizimi shunday tuziladiki, bu orqali o'quvchilar bilimlarini kuzatish, taqqoslash orqali kuzatiladigan faktlarning farqli tomonlarini aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Darslik maxsus yo'nalishdagi vazifalarni tavsiya qilishi lozim. Masalan, «quyidagi masalalar qaysi tomonlari bilan o'xshash va qaysi tomonlari bilan farq qilishini ayting».

**Assosiy qism.** O'qitishning samaradorligi ana shu imkoniyatlarni hisobga olish orqali amalga oshiriladi. Bunda ko'p sondagi mashqlar turli xil ifodalarni taqqoslash bilan bog'liqdir. Masalan, amal komponentlari va amal natijalari orasidagi bog'lanishni aniqlash uchun tuzilgan jadvallar orqali bu komponentlarning o'zgarish sabablarini bilib oladilar. Tarbiyaviy vazifalarni hal etish uchun darslikda illyustrativ (tasviri) materiallar ko'rsatilgan. Ular o'quvchilarning konkret va abstrakt fikrlashining rivojlanishiga yordam beradi. Predmet

ko'rgazmasidan shartli ravishdagi ko'rgazmaga (sxema, chizma) o'tish har xil shakldagi matematik munosabatlarni modellashirish bilan o'quvchilarni tanishtirish ta'minlanadi. Barcha darslikdagi illyustratsiyalar tavsiya qilingan matematik masalalarning turli xilligi va boyligini aks ettiradi. Rasmlardan foydalanishda shu narsa diqqat markazida turishi kerakki, matematikaga qiziqish uyg'otsin, boshlang'ich matematika kursini o'zlashtirishga yordam bersin.

O'quvchilarda bilimlarni shakllantirishda ularning kitob ustida mustaqil ishlashi katta ahamiyatga ega. Darslik bu bilimlarni o'zlashtirishda keng imkoniyatlar ochib beradigan birdan-bir manbadir. Matematika o'qitish vositalari – bu ta'lim jarayonida foydalaniladigan barcha o'quv qo'llanmalardir.

Matematika o'qitish vositalariga darsliklar va qo'llanmalar, ko'rsatmali qo'llanmalar, o'qitishning texnik vositalari (O'TV) kiradi.

Boshlang'ich sinflar uchun matematika darsliklari asosiy o'qitish vositalari bo'lib, ular o'z ichiga dastur materiallarini oladi. Unga asosiy o'quv va malakalarning shakllanishini ta'minlashi lozim bo'lgan mashqlar va topshiriqlar tizimi kiritiladi. Darslik yangi narsani o'rganishda u yoki bu uslubiy yondashishni ko'rsatib beradi.

O'qitish vositalarining obyektlari to'plami sifatida xarakterli xususiyati shundan iboratki, ularning har biri:

a) o'rganilayotgan tushunchani to'la tasvirlaydi yoki qisman almashtiradi;

b) o'rganilayotgan tushuncha haqida yangi ma'lumotlar beradi.

O'qitish vositalarini har xil tabiatli modellarning to'plami sifatida, ularni asosan ikki sinfga bo'lish mumkin: ideal modellar sinfi va material-predmetlar modeli.

Ideal modellar sinfiga matematikadan darsliklar, didaktik materiallar, o'quv qo'llanmalar, o'qituvchiga yordam tariqasida chiqariladigan har xil tavsiyanomalar va hokazolar kiradi.

Material-predmetlar sinfiga har xil modellarni (sanoq cho'plari, predmet kartinalar, geometrik figuralar modellari va hokazo), jadvallar, diafilmlar va boshqalarni kiritish mumkin (o'qitishning bu vositalari katta ko'rsatmalikka ega, shu sababli ularni ko'rsatma-qo'llanmalar ham deyiladi).

Ko'rinib turibdiki, o'qitish vositalari ma'lumot (yangi bilimlar) manbai, nazorat qilish, bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganligini hisobga olish va o'quvchilarning mustaqil individual ishlarini tashkil qilish vazifalarini bajaradi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni darslikdan bilim manbai sifatida foydalanishga o'rgatishdir.

Matematika darsliklarining xususiyati shundan iboratki, ularda nazariy material ham, amaliy material ham beriladi. Shu sababli, darslikdan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Matematika o'qitishda bolalarga darslikda mavjud bo'lgan matematik yozuvlarning, rasmlarning va chizmalarning mohiyatini tushuntirishga yo'naltirilgan ish katta ahamiyatga ega, bu aytilganlarning hammasi darslikning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Matematika o'qitish vositalari orasida matematikadan topshiriqlar yozilgan kartochkalar muhim o'rin tutadi, bular darsliklarga qo'shimcha tariqasida nashr qilinadi. Ularning asosiy maqsadi individual topshiriqlar bo'yicha bolalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda, dasturning asosiy materiallarini puxta o'zlashtirishda o'qituvchiga yordam berishdan iborat. Ko'rsatmalilikning boshlang'ich ta'limdagi roli o'quvchilarning abstrakt tafakkurlarini ham, konkret tafakkurlarini ham rivojlantirishdan iboratdir. Bundan tashqari, ko'rsatmalilikdan foydalanish o'quvchilarni faollashtiradi, ularning e'tiborini, o'rganilayotgan materialni puxtaroq o'zlashtirish imkonini beradi, o'quv jarayonini boshqarish uchun yaxshi sharoit yaratadi, vaqtni tejash imkonini beradi, ya'ni:

1. Ko'rsatmalilikdan foydalanish samarali bo'lishi uchun eng oldin nazariyaning u yoki bu masalasi qaralayotganda foydalaniladigan ko'rsatmali materialni tanlashni o'ylab ko'rmoq kerak. Ko'rsatma materiallarini tanlashga nisbatan qo'yiladigan talablarni qarang chiqamiz:

a) Yetarlicha miqdorda ko'rsatma material bilan ta'minlash, bularni tahlil qilish asosida

o'quvchilar kerakli umumlashtirishlarini qila oladigan bo'lishlari kerak. Masalan, bolalarni 4 sonining hosil bo'lishi bilan tanishtirishda o'qituvchi oldindan bunday amaliy ish tashkil qiladi: u uchta doirachaga bitta doirachani; uchta cho'pga bitta cho'pni qo'shishni taklif qiladi, shu ishni boshqa didaktik materiallarda bajartiradi.

b) Har xil ko'rsatma materiallar bilan yetarlicha ta'minlash juda muhimdir. Bu o'rinda doimo psixologlar tomonidan ifodalangan qoidani esda tutish kerak: «O'quvchilarda to'g'ri umumlashtirishlar tarkib toptirishning zaruriy sharti beriladigan o'quv materialining muhim xususiyatlarini o'zgartirmay saqlagan holda uncha muhim bo'lmagan xususiyatlarini turlantirishdan iborat». Masalan, 3 soni predmetlarning o'zgannas soni (3) kabi tushuncha uchun muhim xususiyatdir, predmetiarning rangi, o'lchami, tekislikdagi joylashuvi muhim bo'lmagan xususiyatdir. Shu sababli, o'quvchilarni 3 soni bilan tanishtirilar ekan, bir jinsli predmetlardan iborat to'plamlardan (bir xil andaza bo'yicha qiyilgan uchburchaklar, doirachalar va hokazolardan)gina emas, balki har xil predmetlardan (masalan, har xil rangli va o'lchamli doirachalar, katta va kichik har xil ko'rinishli va har xil rangli olmalar)dan iborat to'plamlardan foydalanish kerak, chunki aks holda bolalarda bir xil predmetlarnigina sanash mumkin, degan noto'g'ri tasavvur hosil bo'lishi mumkin.

d) Matematika o'qitishda sekin-asta, ammo o'z vaqtida ko'rsatmalilikning bir turidan ikkinchi turiga o'tishni ta'minlay olishi kerak. Masalan, o'qitish jarayonida masalalar shartlarini illyustratsiyalashda amalning o'zini ham namoyish qilish bilan birgalikda amallarni ko'rsatmay to'la predmet ko'rsatmalilikka, so'ngra esa to'la bo'lmagan predmet ko'rsatmalilikka o'tish ta'minlanishi kerak.

2. Matematika o'qitishda harakatli, dinamik qo'llanmalarga afzallik berish kerak. Harakatli ko'rsatma-qo'llanmalar bilan bir qatorda individual ko'rsatma qo'llanmalar ham, har xil didaktik materiallar ham zarur. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda ko'rsatma-qo'llanmalarning har xil turlaridan foydalaniladi. Ko'rsatma-qo'llanmalarning turlarini bilish ularni to'g'ri tanlash va o'quv jarayonida samarali foydalanish imkonini beradi.

Ko'rsatma-qo'llanmalarni ikkita, ya'ni natural va tasviriyl ko'rsatma-qo'llanmalarga bo'lish qabul qilingan. Ko'rsatma qo'llanmalar ma'lum talablarga muvofiq bo'lishi, chunonchi ular o'quv dasturiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Bilim va o'quvlarni mustahkamlash bosqichida turli-tuman mashqlar uchun ma'lumot jadvallaridan, og'zaki sanoq uchun jadvallardan, masalalar tuzish uchun rasmlar, sxemalar va chizmalardan keng foydalaniladi. Matematik amallar xossalarini o'rganish, ko'paytirish jadvalini tuzish va hokazolarda foydalanish mumkin.

### Adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. //Turon iqbol / 2016 yil. 426 bet.
2. L.O'rinboyeva va boshqalar. 1- sinf matematika darsligi. Toshkent. - Kolorpak// 2021 yil., 160 bet.
3. L.O'rinboyeva va boshqalar. 2- sinf matematika darsligi. Toshkent. - Kolorpak// 2021 yil., 192 bet.
4. L.O'rinboyeva, Burxonov S. Va boshqalar. 3-sinf matematika darsligi. Toshkent, / /Sharq -2022.
5. I.V,Repyova 4- sinf matematika darsligi, 1-qism. Toshkent. -Novda Edutainment, 2023 yil.
6. M.Musurmonova, Matematika o'qitish metodikasi, o'quv qo'llanma.Chirchiq: «Zebo prints», 2023,236 bet.

---

## MAKTAB TA'LIMIDA GUMANITAR FANLARNI INTEGRATSION O'QITISH METODIKASI

*Tashpulatova Dilorom Mukimovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti «Boshlang'ich ta'lim metodikasi» kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish metodikasi masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** maktab, ta'lim, fanlar, integratsiya, o'qitish, gumanitar, tushuncha, malaka, tajriba.

## МЕТОДИКА ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ ГУМАНИТАРНЫМ НАУКАМ В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Ташпулатова Дилором Мукимовна, преподаватель кафедры «Методика начального образования» Чирчикского государственного педагогического университета*

**Аннотация:** В статье проанализированы вопросы методики интегрированного обучения гуманитарным наукам в школьном образовании.

**Ключевые слова:** школа, образование, науки, интеграция, обучение, гуманитарные науки, понимание, квалификация, опыт.

## METHODOLOGY OF INTEGRATED TEACHING OF HUMANITIES IN SCHOOL EDUCATION

*Tashpulatova Dilorom Mukimovna, teacher of the department «Methodology of primary Education» of Chirchik State Pedagogical University*

**Abstract:** The article analyzes the issues of the methodology of integrated teaching of humanities in school education.

**Key words:** school, education, sciences, integration, training, humanities, understanding, qualification, experience.

**Kirish.** Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan sifatli ta'limga erishish vazifalari[1] ijrosi jarayonida maktab ta'limida 2026 yilga qadar o'quv fanlari mazmuni, o'qitish asoslari va ularni o'zlashtirish samaradorligi masalalari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishish muhim hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda maktab ta'limi o'quv fanlari dasturlarini takomillatirish va ularning yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish jarayoni kechmoqda. Bu o'rinda e'tiboringizni maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish metodikasi tahliliga tortamiz.

**Asosiy qism.** Gumanitar fanlarni turkumlashtirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturi»da maktab ta'limi o'quv fanlari bo'yicha o'quv rejalari, o'quv dasturlarini takomillashtirish va darsliklarni xorijiy mamlakat-larning taribasi asosida tayyorlash vazifalari qo'yilgan[2]. Shu sababli 2023-

2024 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'limda joriyiy mamlakatlarning tajribalari asosida tayyorlanagan darsliklar amalga kiritildi. Bunday darsliklar kelgusi o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'limning barcha sinflarida joriy etiladi va tayyorlangan darsliklarda o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish metodikasiga asolanilgan. Biroq, Milliy dasturda gumanitar fanlar bo'yicha darsliklarni tayyorlashda milliy tajribaga asoslanish qat'iy belgilab qo'yilgan. Buning sababi shundaki, gumanitar fanlar asoslarida har bir xalqning milliy qadriyatlari ustuvor bo'ladi[3]. Shu jihatdan maktab ta'limida gumanitar fanlar bo'yicha yangi avlod darsliklarini tayyorlash va o'qitish shakllarini belgilashda milliy tajribaga tayaniladi.

Maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish uchun ularni ichki turkumlashtirib olish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalada bizning fikrimizcha, maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish uchun quyidagicha turkumlashtirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'quvchilarning ongi, bilimi va badiiy idrokini shakllantiruvchi gumanitar fanlar;
- 2) o'quvchilarning estetik ko'nikmasi va ijodiy layoqatini tarkib toptiruvchi gumanitar fanlar;
- 3) o'quvchilarning jismoniy ko'nikma va salomatligini muhofaza qiluvchi gumanitar fanlar.

Bunday turkumlashtirish maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion shaklda o'qitish uchun keng omillarni beradi. Shu jihatdan o'quvchilarning ongi, bilimi va badiiy idrokini shakllantiruvchi gumanitar fanlar tarkibini Ona tili, Adabiyot, Texnologiya kabi fanlar tashkil qiladi. Bu toyifa fanlar mazmun-mohiyat jihatidan o'zaro bog'liqlikka ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

O'quvchilarning estetik ko'nikmasi va ijodiy layoqatini tarkib toptiruvchi gumanitar fanlar toyifasi esa Musiqa madaniyati, Tasviriy san'at kabi o'quv fanlari tashkil qiladi. Mazkur o'quv fanlari mohiyat jihatidan yagonalashgan mazmunga ega.

O'quvchilarning jismoniy ko'nikma va salomatligini muhofaza qiluvchi gumanitar fanlar turkumini Jismoniy madaniya, Chizmachilik va grafika kabi o'quv fanlari tashkil qiladi. Mazkur o'quv fanlarining ham maqsad-muddaosi yagona yondashuvlarga asoslanadi.

E'tibor berilsa, maktab ta'limi gumanitar fanlarini bunday metodika asosida ichki turkumlashtirib olish ularni integratsion o'qitishda muhim imkoniyatlarni beradi.

Dars mashg'ulotlarni tarkum fanlar bog'liqligida o'tkazish. Maktab ta'limida gumanitar fanlarni yuqorida ta'kidlanganidek, ichki turkumlashtirgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samrani beradi:

- 1) Ona tili, Adabiyot, Texnologiya kabi birinchi turkumdagi fanlarning mavzulari, o'quv materiallari va amaliy topshiriqlari uyg'unligi;
- 2) Musiqa madaniyati, Tasviriy san'at kabi ikkinchi turkumdagi fanlarning mashhulotlarini o'zaro bog'liqligi;
- 3) Jismoniy madaniyat, Chizmachilik va grafika kabi uchunchi turkumdagi fanlari mashg'ulotlarining yagonaligi.

Birinchi turkumdagi o'quv fanlari dars mashg'ulotlarini uyg'unlashgan tarzda o'qitish muhim ahamiyatga ega. Chunki Ona tili o'quv fani o'quvchilarning so'z san'ati va til madaniyati, Adabiyot o'quv fani o'quvchilarning ongi va bilimi, Texnologiya o'quv fani esa o'quvchilarning badiiy idroki va layoqatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli

mazkur o'quv fanlarining nafaqat o'quv materiallar, balki ularning dars jadvali ham ketma-ketlik tamoyiliga asoslanishi mazkur fanlar bo'yicha o'qitish mazmunini va jarayonini kuchaytiradi.

Ikkinchi turkumdagi o'quv fanlari o'quvchilarning ijodiy layoqati va ko'nikmasini rivojlantirishga asoslangan. Shu jihatdan Musiqa madaniyati o'quvchilarda fantaziya, tasavvur va idrokni tarkib toptirsa, Tasviriy san'at hamda Chizmachilik va grafika o'quv fanlari esa o'quvchilarning ana shu ko'nikmalarini real tasvirlash va taqdim etish imkoniyatlarini beradi. Shu sababli mazkur o'quv fanlarining dars mashg'ulotlari o'zaro uyg'unlikda tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, maktab ta'limida gumanitar fanarning dars mashg'ulotlarini o'zaro bog'liqlikda, uyg'unlikda va ketma-ketlikda tashkil etish mazkur fanlarni o'qitish uslublarini yangilaydi. Integratsion o'qitishning asosiy talablaridan biri ham mana shudir.

To'garaklar mashg'ulotlarining yagonaligi. Maktab ta'limida o'qitilayotgan gumanitar fanlarning to'garaklarini bugungi kunda zamon talablari asosida rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Buning natijasida o'quvchilarning o'quv fanlar asoslarini amaliy o'zlashtirish yo'nalishi tarkib topdi. Shu jihatdan maktab ta'limi mashg'ulotlarini amalga oshirishda integratsion o'qitishning muhim mexanizmlariga tayanish kutilgan samarani beradi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish muhim ahamiyatga ega:

1) birinchi turkumdagi gumanitar o'quv fanlari to'garaklari mashg'ulotlariga yozuvchilar, shoirlar va o'z kasbining ustasi bo'lgan tikuvchilar, ixtirochilar va ratsionalizatorlarni jalb qilish (chunki adiblar umumiy o'rta ta'lim maktablariga birlashtirilgan);

2) ikkinchi turkumdagi o'quv fanlari to'garaklari mashg'ulotlarida mashhur san'atkorlar va rassomlarning ishtirok etishini ta'minlash (umumiy o'rta ta'lim maktablariga musiqa san'ati vakillari va mohir rassomlar birlashtirilgan);

3) uchunchi turkumdagi o'quv fanlari to'garaklari mashg'ulotlariga mohir sport ustalari, chempionlar va muhandis-arxitektorlarni jalb etish (umumiy o'rta ta'lim maktablariga mohir sport ustalarining birlashtirilganligini eslatib o'tish joiz).

E'tibor berilsa, maktab ta'limi to'garaklari mashg'ulotlarini o'ziga xos integratsion shaklda o'tkazish imkoniyatlari mavjud. Bu bilan gumanitar o'quv fanlar asoslari o'zlashtirish va o'quvchilarning layoqatini rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'linadi. Bundan tashqari, maktab ta'limida birlashtirilgan mashhur va mohir shaxslarning individual (shaxsiy) to'garaklarini tashkil qilish ham muhim amaliy samarani beradi.

Maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitishning bunday metodikasi amaliyotga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli mazkur masalada o'ziga xos milliy tajribani shakllantirish dolzarb bo'lib turganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish bo'yicha bir necha ilmiy va metodik masalalarni hal etish ham dolzarb bo'lib turibdi. Bunday masalalarning asosiylari quyidagilarlar iborat:

1) maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitishning didaktik ta'minotini ishlab chiqish va uni O'qituvchi kitobiga kiritish;

2) maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitishning ilmiy va metodik asoslari bo'yicha tavsiyalarni yaratish hamda amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning ushbu masala bo'yicha individual tajribalarini ilmiy sharhlar bilan ommalashtirish;

3) oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish metodikasi bilan qurollantirish;

4) maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish jarayonini o'quv yili kesimida monitoring qilib borish.

Bularni amalga oshirish maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitishning o'ziga xos tajribasiga ega bo'lish imkonini beradi. Eslatib o'tish joizki, integratsion o'qitish metodikasi asosini amaliy ko'nikmalar tashkil qiladi va bu hol ayniqsa, gumanitar fanlarni o'qitish jarayoni uchun strategik ahamiyatga egadir.

Shunday qilib maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish metodikasi dastlabki bosqichda ekanligi bilan diqqatni tortadi. Bu borada ilmiy va metodik ishlanmalar majmuini yaratish muhim ahamiyatga egadir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. //www.ziynet.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturi»./ / www.ziynet.uz.
3. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. Dok. dis.- Toshkent, 2006
4. Tashpulatova D.M. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish.-Toshkent, 2023

---

**MALAKA OSHIRISH TINGLOVCHILARI UCHUN FANLARDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM**

**Sultanova Adas Mamadaliyevna**, ChDPU o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada malaka oshirish tinglovchilari uchun fanlarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik maslahatlar va usullari to'g'risida fikr yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** malaka oshirish, o'qituvchilari, pedagogika, sifatli ta'lim, ilm-fan, integratsiya.

**КОМПЛЕКСНОЕ ОБУЧЕНИЕ ДИСЦИПЛИНАМ СЛУШАТЕЛЕЙ  
ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ**

**Султанова Ада́с Мамадалиевна**, преподаватель ЧГПУ

**Аннотация.** В этой статье рассмотрены педагогические советы и методы интегрированного обучения по дисциплинам для стажеров повышения квалификации.

**Ключевые слова:** профессиональное развитие, учителя, педагогика, качественное образование, наука, интеграция.

**INTEGRATED TRAINING IN DISCIPLINES FOR ADVANCED  
TRAINING TRAINEES**

**Sultanova Adas Mamadaliyevna**, teacher of ChSPU

**Abstract.** This article will consider pedagogical tips and methods of integrated training in disciplines for trainees of advanced training.

**Key words:** professional development, teachers, pedagogy, quality education, science, integration.

**Kirish.** Malaka oshirish tinglovchilari uchun fanlarda integratsiyalashgan ta'lim masalasi bugungi kunda dolsarb hisoblanadi.

**Asosiy qism.** «O'zbekistonning yangi – taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmonlari, 2020-yil 31-dekabrda «Malakalami baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4939-son, 2021-yil 25-yanvardagi «Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4963-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi «O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida»gi 287-son, 2022-yil 17-yanvardagi «Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 25-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Fanlar integratsiyasini faqat turli o'quv fanlari bilimlarini o'zaro bog'liqlikda o'rganish emas, balki o'qitish texnologiyalari, metodlari, shakllarining integratsiyasi sifatida ham qarash maqsadga muvofiqdir. Integratsiya quyidagi tarkiblarga ega: obyektga doir integratsiya. Bunda bir obyektning



turli fanlardagi timsollari bir mavzu, bo'lim yoki kurslarga (er, suv, havo, oziq-ovqat va boshqa) kiritiladi; tushunchaga oid integratsiya. Bunda umumiy tushuncha (energiya, harakat, modda, axborot va boshqalar)lar mazmunini ochib beradigan mavzu yoki kurslar qamrab olinadi; nazariyaga oid integratsiya. U fizika, kimyo, biologiyadagi kvant nazariyasi; biologiya, kimyo, astronomiya, texnika, sotsiologiyadagi evolyusion nazariyaga asoslanadi; metodologik integratsiya. U falsafa metodologiyasi kabi ilmiy bilishning alohida metodlariga taalluqli integratsiya bo'lib, ularga tizimli yondashuvning qo'llanilishi va uning mohiyati, tabiatshunoslikka oid muammolarning qo'yilishi va ularning hal etilishi; fandagi tushuntirish va prognoz qilish; kuzatish, tajriba, modellashtirishning tuzilishi mohiyati va qo'llanilishi kabilar kiritiladi; muammoli integratsiya. U turli darajadagi fanlararo muammolarni qamrab oladi (atrof-muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar); faoliyatga oid integratsiya (munozara, guruhlar tarkibida ishlash, fanlararo reja va loyihalar tuzish va boshqalar); amaliy integratsiya (turli jarayon yoki texnik mahsulotlarni har tomonlama ko'rib chiqish: antibiotiklar, sintetik moddalar, biotexnologiya kompyuterlar va boshqalar). Ta'limda integratsiyani amalga oshirish ham iqtisodiy jihatdan, ham pedagogik, psixologik, gigienik va fiziologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Integratsiya natijasida o'quv rejasidagi dars soatlari iqtisod qilinadi. Shuningdek, tinglovchilarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishi uchun qulay imkoniyat yaratiladi.

Integrativ o'quv predmeti mazmunini tanlash va ma'lum tizimga keltirish jarayonini quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin: ilm-fan va ishlab chiqarish texnologiyasining hozirgi rivojlanish darajasidan kelib chiqib istiqbolga yo'naltirilgan axborotlarni tanlash; saralab olingan ma'lumotlarga pedagogik qayta ishlov berish va o'quv-me'yoriy hujjatlar mazmuniga singdirish; integrallashgan materialni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish; tahsil oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilishi va amaliyotdagi natijaviy holatini aniqlash; aniqlangan muammolar yechimini topish va yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish.

Yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, zamon bilan hamnafas fikrlay oladigan yetuk kadrlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muammolarni hal etishning asosi hisoblanadi. Zamonaviy ilm-fanning bugungi holati tabiiy, aniq va umumta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talaba yoshlarga quyidagi talablarni qo'yadi: ishlab chiqarish va boshqarish holatini aniqlashning ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va umumlashtirish va murakkab tizim hamda jarayonlarni modellashtirish. O'qitish fanlar tizimli muvofiqlashtirilgan va integrallashgan bo'lishi davr talablariga kasbiy moslasha oladigan yuqori malakali soha mutaxassislarini tayyorlashga olib keladi.

O'quv fanlarining mantiqiga muvofiq integratsiya quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: mavjud fanlar obyektlari, fanlar obyektlari mohiyatini izohlovchi qonuniyatlar hamda nazariyalar, tadqiqot uslublari va amaliy faoliyat, o'lchov-hisob tarzidagi aloqalar, ishlab chiqarish jarayonlari haqidagi ilmiy bilimlar, ta'lim va tarbiya vositasi bo'lgan zamonaviy integrallashgan pedagogik texnologiyalar. O'z navbatida, integratsiyalashgan ta'limni amalga oshiruvchi o'qituvchidan ham bir qancha zaruriy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi talab etiladi. Bular quyidagilar: u yoki bu jarayon va hodisalar mohiyatini o'rganishga umumiy yondashuvni aks ettiradigan maqsadni aniqlay olishi, fanlararo aloqalardan oqilona foydalanish ko'nikmasini yetarli darajada egallash va ulardan amalda samarali foydalana olish, integratsiyalash uchun alohida o'quv fanlari doirasida o'rganiladigan o'quv materiallarining maqbul o'zaro munosabatini bilish, o'quv fanlarini integratsiyalash asosiga qo'yiladigan yetakchi g'oyani aniqlay olish.

**Xulosa.** Malaka oshirish tizimida integratsiyani ta'minlash muammolarini tahlil qilish yechimini kutayotgan bir qancha muammolar borligini ko'rsatadi. Jumladan, tinglovchilarni malakasini oshirish sifatini ta'minlashda fanlararo integratsiyaning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish, vazirliklar, innovatsion hamda metodik markazlar, o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalari zamonaviy pedagogik nuqtai nazardan o'rganilmagan. Shuning uchun hozirgi davrda malaka oshirish muassasalarida tinglovchilarni malakasini oshirishning muayyan asoslari bilan bog'liq ijtimoiy-pedagogik muammolarini hal etishda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning tizimli integratsiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi masalalarni hal qilish muhim hisoblanadi: tinglovchilarni malakasini oshirishning ustuvor strategiyasi sifatida fanlararo integratsiyaning ahamiyatini ochib berish; davlat ta'lim siyosatining ustuvor jihatlari va malaka oshirish sifatini takomillashtirish dinamikasining o'zaro bog'liqligini aniqlash; jamiyat rivojining hozirgi bosqichida tinglovchilarni malakasini oshirish sinergetik samaraga imkon beruvchi innovatsion jarayon sifatidagi fanlararo integratsiyaning yo'nalishlari, amalga oshirish bosqichlari, pedagogik imkoniyatlarini ochib berish; pedagogik jarayonlar integratsiyaning muhim komponenti sifatida ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligi, faoliyatining uzviyligi va birligi, xususiyatlari, yo'nalishlari, shart-sharoitlari, mazmun va tuzilmasi, muammolari, ehtiyoj va imkoniyatlarini o'rganish va ularni shu yo'nalishda o'qitish maqsadga muvofiq buladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Yerkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. - T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjati. - T., 2017. - 6-son. - 70-modd.
4. Begimqulov U.Sh., Djuraev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. - T., 2011.
5. Axmedov A., Taylaqov N. Informatika. - T.: O'zbekiston, 2008.
6. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. -T.: Fan, 2009.

---

**TALABALARNI MEXNATSEVARLIKKA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Kalimbetov Bayram Iskenderovich, Qoroqalpoq davlat universiteti assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarni mexnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik maslahatlar va usullari to'g'risida fikr yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** talaba, mexnatsevarlik, tarbiya, pedagogika, zamonaviy texnologiyalari, takomillashtirish.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ВОСПИТАНИЯ  
УЧАЩИХСЯ ТРУДОЛЮБИЮ**

*Калимбетов Байрам Искендерович, ассистент Каракалпакского  
государственного университета*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены педагогические советы и приемы совершенствования педагогических технологий воспитания студентов трудолюбию.

**Ключевые слова:** студент, трудолюбие, воспитание, педагогика, современные технологии, совершенствование.

**IMPROVING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF EDUCATING STUDENTS  
FOR A COCKTAIL**

*Kalimbetov Bayram Iskenderovich, assistant of Karakalpak state university*

**Abstract.** This article will consider pedagogical tips and techniques for improving pedagogical technologies of educating students for a cocktail.

**Key words:** education of students, pedagogy, modern technologies, improvement.

**Kirish.** Talabalarni mexnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning innovatsion usullari, ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi. Ushbu usullar, ayniqsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va bilimlarni amaliy hayotdagi vazifalarga qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

**Asosiy qism.** Talabalarni ishga jalb qilish, masalan, loyiha asosida o'rganish, talabalarning real muammolarni hal qilish va chetlab kelgan masalalarni tahlil qilish orqali tajribalarini oshiradi. Bu, ularda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, online o'qish platformalari, sodda qo'rg'och Robotlar, virtual va augmented reality (VR/AR) vositalari o'quv jarayoniga kiritilishi talabalarning o'z faoliyatlarini yanada samarali bajarishga yordam beradi. Muhimdirki, ularda ushbu texnologiyalarni qo'llash va tahlil qilish ko'nikmalari namoyon bo'ladi. Musbat raqobatni rivojlantirish, jamoaviy ishlar va muhokama orqali ta'lim berish ko'nikmalarini oshirishga yordam berishi mumkin. Bu, talabalarning mehnatsevarlikka erishish uchun bir-biriga yordam berishni o'rganishini ta'minlar. Real hayotdagi muammolarni inobatga olgan holda talabalarning mehnatsevarligini shakllantirish uchun darslarni rejalashtirish ko'nikmalari kerak. Talabalarni tahlil va yoritish orqali o'zlarining tanqidini shakllantirishga undashish kerak, chunki bu ularda murakkab va butunlashtirilgan yondashuvlarni rivojlantiradi. Ushbu jarayon o'zidan talabgar bo'lib, talabalarning bir nechta strategiyalarni qo'llab-quvvatlash, samarali va samarador qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

O'yin – asoslangan o'rganish usulini qo'llagan holda talabalar o'zlarining o'rganish jarayoniga yanada ishtirok etadi. Bu, ularda mehnatsevarlikka intilishni o'stiradi. Yangi texnologiyalar va pedagogik texnikalar ta'lim sohasidagi islohotlar davomida mehnatsevarlikni tarbiyalashning muhim ahamiyatiga ega. Talabalarning mehnatsevarlikka erishishini ta'minlash – bu, istiqbol munosabatlarini va kasblarini qurishga olib keladi va bu ham jamoani jamiyatning yanada rivojlanishiga olib keladi.

Talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning asosiy maqsadi bu talabalarning jamiyatdagi vazifalarini samarali bajara olishga, o'z-ozini rivojlantira olishga hamda mamlakatning iqtisodiyotiga hissa qo'shishga yordam berishdir.

1. Mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantirish: mehnatsevarlikka tarbiyalashning asosiy maqsadi talabalarni mustaqil, effektiv, yo'riq-noma hamda shaxsiyatli fikrlashga rivojlantirishdir. Bu, ularga yangiliklar, samarali qarorlar chiqarish va bularning amalga oshirilishida zarur bo'lgan samarali samaraga erishishga yordam beradi.

2. Hayotga tayyorlash: maqsad bu talabalarga real dunyoda umumiy bilimlar va mahoratlar berish va ularni ko'proq achinishli va samarali qilishdir. Ushbu pedagogik texnologiyalar talabalarga mamlakatda faoliyat yuritishda zarur bo'lgan qobiliyatlar va bilimlar berishga yordam beradi.

3. Yangi bilimlarga ochiq bolish: yangi texnologiyalar va o'quv metodlari talabalarning yangi bilimlarini ochiq bo'lishini ta'minlaydi. Ularni mehnatsevarlikka undashish orqali, talabalar yana bir bor natijaga erishishga undagan holda yangi texnologiyalar va metodlar bilan tanishadi, ularni o'rganadi va ularga moslanadi.

4. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish: mehnatsevarlik ularga aniq vazonlari bo'lmagan vazifalar bilan tanishish va shundan kelib chiqqan asarini ko'rishda ularga yordam beradi. Talabalar yangi texnologiyalar bilan tanishish orqali, ularni yangi va ijodiy usullarda qo'llashni o'rganishadi.

5. Yaxshi jamoa a'zosi bolish: mehnatsevarlikka tarbiyalash talabalarni yaxshi va samarali jamoa a'zosi bo'lishga undaydi. Ular o'zlarining vazifalarini ko'zda tutib, boshqa jamoa a'zolariga yordam berishadi.

6. O'zini rivojlantirish va o'zaro munosabatlarni mustahkamlash: pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish bu o'zini rivojlantirish va o'zaro munosabatlarni mustahkamlash talabalarga imkon beradi.

Ushbu maqsadlar talabalarning jamiyatdagi samarali uyushtiruvchisi sifatida, o'zlarining mavjud qobiliyatlari va yashirin qobiliyatlari orasidagi bog'ni aniqlashga yordam beradi. Bu, talabalarning mehnatsevarlikka tayyorligini rivojlantirish, o'zlarini ko'proq ishonch bilan ifodalash va yangi masalalar bilan uchrashishga yordam beradi.

#### Mehnatsevarlikka qaratilgan tushunchalar

|                                |                                            |                                                                                                                    |
|--------------------------------|--------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Tushuncha                      | Qo'llanilgan pedagogik texnologiya         | Takomil jarayoni                                                                                                   |
| Javobgarlik                    | Role-playing va pozyalar                   | Talabalarning vazifalarni sodda bajarish va javob berishni o'rganishi                                              |
| Istiqomat                      | Ta'lim o'yinlari                           | Talabalarning qiyinliklarga duch kelmasdan davom etishni o'rganishi                                                |
| Ishtiyoq                       | Motivatsiyali so'zlar va video materiallar | Talabalarning bir maqsadga erishishda davom etishining muhimligini o'rganish                                       |
| <b>Namunalar va tajribalar</b> |                                            |                                                                                                                    |
| Namuna Tajriba                 | Qo'llanilgan pedagogik texnologiya         | Takomil jarayoni                                                                                                   |
| Vaqt boshqarish                | Vaqt jadvallari va plannerlar              | Talabalarning o'zlarining kun tar tibini boshqarib, har bir vazifaga aynan qancha vaqtini ajratishlarini o'rganish |
| Mas'uliyat                     | Vazifalar va loyihalar                     | Talabalarning o'z mas'uliyatini, ko'ngillilikni va muxlisililigini namoyish etish                                  |
| Erkaklik, qo'rqmaslik          | Real-life masalalar va tahlil              | Talabalar uchun hayotdagi , ayniqsa , qiyin vaziyatlarda mehnatsevarlikka ega bo'lishning ahamiyatini ko'rsatish   |

| Har qanday vaziyatda mehnatsevarlik        |                                               |                                                                                                     |
|--------------------------------------------|-----------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vaziyat                                    | Qo'llanilgan pedagogik texnologiya            | Takomil jarayoni                                                                                    |
| Uyda                                       | Muhokama va ishlab chiqarish                  | O'z vaqtini tashkil qilish, lug'at va boshqa o'qish materiallarini qo'llash texnikalarini o'rganish |
| Sportda                                    | Sport mashg'ulotlari                          | O'z hissasi, jonli mag'lubiyat/farolishning ahamiyatini tasdiqlash                                  |
| Jamiyatda                                  | Muallimlarni monitoringi                      | O'zini jamoa uchun faollikda ko'rsatish, jamiyat uchun mehnatsevarlikni ko'rsatish                  |
| Rag'batlantirish va motivatsiyani oshirish |                                               |                                                                                                     |
| Motivatsiya                                | Qo'llanilgan pedagogik texnologiya            | Takomil jarayoni                                                                                    |
| Jahongirlik                                | Mukofotlash                                   | Talabalarni xususiy natijalarga erishishga rag'batlantirish                                         |
| Muhokama                                   | Muhokama va bahslar                           | Fikrlash, muammolar haqida fikrlashning muhimligini ko'rsatish                                      |
| Qiziqish                                   | Interaktiv o'yinlar va ta'lim texnologiyalari | Qiziqish olish va yangi bilimlarni qo'llashni rag'batlantirish                                      |

Talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning mazmuni haqida o'ylaganda, quyidagi tushunchalar mavjud: 1. Afzal-lıklar berilganligi: mehnatsevarligini tarbiyalashning pedagogik texnologiyasini takomillashtirishda birinchi darajada eng muhim o'rin afzalliklar berilganligini tushuntiradi. Mehnatsevarlikni rag'batlantiruvchi pedagogik tadbirlarni olish va ularni talabalarda amalga oshirishning ahamiyati ulkan. Ularni jasoratli, kuchli va qat'iyatli qilishning bir yolu, ularni mashq qilishga, ularning qobiliyatlarini yaxshi ishlatishga rag'batlantirishdir. 2. To'liq foydalanish: mehnatsevarligini tarbiyalashning pedagogik texnologiyasi bemalol va keng miqyosda foydalanilishi kerak. Ushbu texnologiyalar xususida uchraydigan hamma tushunchalar, nazoratlar va strategiyalar to'liq samarali ishlatilishi zarur. 3. Kuchli nazorat va qadamlar: pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, nazoratni shakllantirish va bir qadamdan-bir qadamga o'tish jarayoniga ahamiyat bermoq kerak, bu esa, talabalar uchun o'zlarining bog'liq, amaliy va ma'naviy potentsiallarini ko'rsatishlariga yordam beradi. 4. Xarakteristikalariga mos keladigan yakuniy natijalar: har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, egallangan pedagogik texnologiyalarining samaradorligini baholash uchun yakuniy natijalar mavjud bo'lishi kerak. Bu, talabalarining xarakteristikalarini, qudratlarini va shaxsiy qarashlarini asos qilib pedagogik texnologiyalar yoqishni ta'minlaydi. 5. Yangiliklar qo'shish: pedagogik texnologiyalar constant evolyutsiya qiladi va ularning mehnatsevarlikni kuchaytirish yo'lida samarali ishlashlari uchun yangiliklarni doimiy qo'shish zarur. Bu, nutq, rollik o'yinlar, ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar kabi ko'plab yo'llar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning zaruriyati, o'qituvchi tayyorlash va o'quv jarayonini tashkil etishning muhim jihati hisoblanadi. Bu nuqtai-nazar zarur bo'lgan bir nechta asosiy sabablarga asoslangan:

1. Hayotga tayyorlash: talabalar hayotga tayyor bo'lish uchun mehnatsevarlik qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim. Bu qobiliyatlar o'zlarining kasbiy faoliyati, mamlakatning iqtisodiyati va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. Mustaqillik va o'ziga ishonch tarbiyasi: talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalash, ularning mustaqillik va o'ziga ishonchini shakllantirishga yordam beradi. Ular o'zlari qaror qilish, ishlarini boshqarish va muammo yechish ko'nikmalarini egallashadi.

3. Jamoatchilikka hissa qo'shish: mehnatsevarlikka tarbiyalangan talabalar jamoatchilikka faol hissa qo'shishga rag'batlanadilar. Ular o'zlarining aholi va mamlakat uchun ish qilishga rag'batlanadilar.

4. Samaradorlik va samimiyat tarbiyasi: pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, talabalarning samaraliylik va samimiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ular ana shu qobiliyatlarni kasbiy hayotda ham keng qo'llashadi.

5. Bilim va ko'nikmalarni yanada rivojlantirish: talabalar mehnatsevarlik orqali o'zlari bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga qodir bo'ladi.

Talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalovchi pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, talabalarning har biri uchun hamda jamoat uchun ham samarali va foydali natijalar ko'rsatadi.

Talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning tajribalari turli bo'ladi. Bir necha misollarni ko'rib chiqamiz: 1. Jismoniy va amaliy mashg'ulotlar: bu keng tarqalgan, samarali va effektiv bir usuldir. Jismoniy mashg'ulotlarda talabalar mehnatsevarlik qobiliyatlarini isbotlashadi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar biror narsani qayta-qayta qilib, samarali natijaga erishishga harakat qiladilar. 2. Mashq va mustaqil ishlar: muallimlar talabalarga mashq va mustaqil ishlar beradilar. Bu orqali talabalar o'zlarining ish qilish va vazifalarni bajarish qobiliyatlarini yaxshilaydilar. 3. Muzokaralar va muhokamalar: muallimlar talabalar bilan muzokaralar va muhokamalar olib boradilar, bu orqali talabalar o'zlarining fikr va mulohazalarini ifoda etish, debat qilish va ish bilan bog'liq muammolarni yechish uchun mehnat qilishadi. 4. Guruh ishi: guruh ishi pedagogik texnologiyasini takomillashtirish, bir guruh talabalar orasida hamkorlik va mehnatsevarlikni rivojlanishiga yordam beradi. Bu usul talabalarga birorta maqsadga erishish uchun birga ishlashni ta'lim beradi. 5. Nazorat va tekshiruv: muallimlar talabalarning ishlarini doimiy nazorat qilib, ularga nima qilishni va qanday rivojlanishni ko'rsatishga yordam beradi.

Bular va boshqa usullar talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishda yuz beruvchi tajribalar bo'lib xizmat qiladi. Har bir texnologiya haqiqatan ham samarali bo'lishi uchun, u muallimlar tomonidan sotib olinishi, talabalarning tarkibiy elementlari bilan tanishishi va ularni amalga oshirishga tayyor bo'lishi kerak. Bundan tashqari, talabalarning mehnatsevarlikka tarbiyalanganligi, ularning kelajagi bo'yicha muvaffaqiyatlariga ham yordam beradi. Mehnatsevarlik o'qish, ishlash, hamkorlik qilish va hayotdagi boshqa faoliyatlarni bajarishga ko'proq intilishni ta'minlaydi. Biroq, bu natijalarni ko'zda tutish zarur, chunki bu jarayonning samaradorligi talabalarni o'qishdagi yutuqlari, o'zlarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi hamda ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari bilan bog'liq. Mehnatsevarlikka tarbiyalash jarayoni talabalarni o'zlarining yutuqlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga yordam berishi lozim.

**Xulosa.** Talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni mazkur yo'nalishda turli xususiyatlar va natijalar bilan ajratiladi. Ushbu jarayonning xulosa qilish uchun bitta muhim nuqta shundaki, u bu jarayonning bir necha asosiy elementlarga ega bo'lishi zarur.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - T., 2020. - 03/20/637/1313-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - T., 2017. - 6-son. - 70-modd.

3. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - T.: Yangi asr avlodi, 2003. - 190 b.

4. Kenjaboev A.E. Pedagogik deontologiya va o'qituvchining kasbiy kompetentligi / Zamonaviy ta'lim. - T., 2021. - 4-son. - B. 9-15.

---

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXLOQIY MADANIYATI TARKIBI**

**Mamatova Aziza Maxamatdonovna**, *ChDPU mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyati tarkibi tahlil etilgan va boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyati shakllantirishning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** *axloq, madaniyat, boshlang'ich, o'quvchi, tarkib, ta'lim, bilim, ko'nikma.*

**СОДЕРЖАНИЕ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

**Маматова Азиза Махаматдоновна**, *самостоятельный исследователь ЧГПУ*

**Аннотация.** В данной статье проанализировано содержание нравственной культуры младших школьников и дано методическое обоснование использования имеющихся возможностей формирования нравственной культуры у младших школьников.

**Ключевые слова:** *мораль, культура, начальный, ученик, структура, образование, знания, умения.*

**THE CONTENT OF THE MORAL CULTURE OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN**

**Mamatova Aziza Makhamatdonovna**, *independent researcher of ChSPU*

**Abstract.** In this article, the article analyzes the content of the moral culture of younger schoolchildren and provides a methodological justification for using the available opportunities for the formation of the moral culture of younger schoolchildren.

**Key words:** *morality, culture, elementary, reader, content, education, knowledge, skills.*

**Kirish.** «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» davlat dasturida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishda noan'anaviy yondashuvlardan foydalanish va boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlash vazifalari qo'yilgan [1]. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilariga axloqiy madaniyatni shakllantirish mazkur vazifalar ijrosida muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinf o'quvchilari axloqiy madaniyatining tarkibiy qismlari tahliliga tortamiz.

**Asosiy qism.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatning eng muhim tarkibiy qismi axloqiy ong hisoblanadi. Unga ko'ra, o'quvchilar ongida axloqiy tamoyillarning aks etishi, ularda axloqiy qarashlar tushunchalar va axloqiy e'tiqod, axloqiy xulq-atvor me'yorlari va qoidalari shakllantirilishi taqozo etiladi [2]. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish uchun, eng avvalo, axloqiy ongini tarkib toptirish zaruriyat hisoblanadi. Bunda quyidagilarning shakllantirilishi muhim ahamiyatga ega: a) axloqiy qarashlar; b) axloqiy me'yorlar; v) axloqiy tasavvurlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy ongida axloqiy qarashlar tarkib toptirilishi zaruriyat hisoblanadi. Bunda ular yaxshilik va yomonlikni farqlashga, jamiyatda yaxshilikning ustuvor ekanligiga va o'z tengdoshlarining qalbida mudom yaxshilik tuyg'usi bo'lishiga o'rgatilishi kerak. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanish jarayonida bo'lganligi uchun ular har qanday axloqiy xodisalarni farqlamasdan qabul qiladi. Mana shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'kidlangan fazilatlar asosida axloqiy qarashlarini shakllantirish bilan ularda dastlabki bosqichda

axloqiy ong tarkib toptiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari axloqiy me'yorlarga rioya qilishni o'rganishi muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda o'z shaxsiy manfaatlarini tengdoshlari bilan uyg'unlashtira olish, «men»lik tuyg'usini to'g'ri shakllantirish, ularni o'zgalarga munosabatga o'rgatish va axloqiy faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ahloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilish ustuvor darajada taqozo etiladi. Buning sababi shundaki, o'quvchilar, eng avvalo, o'qituvchilarga yaxshi ma'noda taqlid qilishadi. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilari axloqiy me'yorlarga rioya qilishi bilan ham o'quvchilar uchun namuna bo'lishi taqozo etiladi.

Axloqiy madaniyatning muhim asosi bo'lgan axloqiy ongda axloqiy tasavvurlarning mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari turli ijtimoiy guruhlardan har xil xatti-harakatlarni, qiliqlarni va o'zini tutish kabilarni o'zlashtiradi. Ijtimoiy guruhlar murakkab tiplar bo'lganligi uchun ba'zida boshlang'ich sinf o'quvchilariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tasavvurlarini to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, bu borada volontyorlik instituti imkoniyatlaridan, ya'ni yuqori sinf o'quvchilariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini birlashtirib qo'yish tizimidan foydalanish kutilgan samarani beradi. Yuqori sinf o'quvchilari o'zlariga birlashtirilgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mas'uliyatni his qilishi pedagogik tajribadan ma'lum [3]. E'tibor berilsa, axloqiy madaniyatning asosi hisoblangan axloqiy ongni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish uchun ularda axloqiy qarashlar, axloqiy me'yorlar va axloqiy tasavvurlarni to'g'ri tarkib toptirish kerak.

Axloqiy madaniyatning eng muhim asoslaridan biri bu – axloqiy odobdir. Unga ko'ra, shaxs aniq maqsad, faoliyat va o'zgalarga munosabat ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Shu jihatdan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy odobni shakllantirish uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi: a) aniq maqsadni shakllantirish; b) izchil faoldiyatni tarkib toptirish; v) jamiyat talablariga moslashtirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy odobni tarkib toptirish uchun ularning faoliyatida muhim o'rin tutadigan aniq maqsadni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi bilim va tarbiya olsa, kelgusida faol shaxs bo'lishini tasavvur etishi kerak. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari muntazam ravishda aniq maqsadning inson hayotida tutgan o'rni to'g'risida ta'kidlab borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda oilalarning turli-tumanligi ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilarida aniq maqsadning shakllanishiga salbiy ta'ir ko'rsatadi. Chunki ota-ona kompyuter kabi texnik vositalarga berilgani holda bola bilan maqsadli suhbatlardan chekinmoqda. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda aniq va ideal maqsad-muddaoni shakllantirish bilan ularning axloqiy olamini tarkib toptirishga erishish mumkin. Buning uchun sinf rahbarlari maxsus rejaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Axloqiy odobning asoslaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarini faol axloqiy faoliyatga tayyorlashdir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi axloqiy me'yorlariga nafaqat maktabda, balki jamoat joylarida, oilada va o'zgalarga munosabatda rioya qilishni odat tusiga aylantirishi kerak. Mashhur faylasuf Aflotun «Bolani faoliyatga tayyorlash davlatning muhim vazifasi» yeb belgilagan edi [4]. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni axloqiy faoliyatga tayyorlash davlatning mazkur vazifasini bajarish doirasiga kiradi. Bu hol keyingi paytlarda mamlakatimizda boshlang'ich ta'limdan keyin ta'lim turlarining ko'payganligi bilan ham zaruriyat hisoblanadi. Chunki, boshlang'ich sinf bitiruvchisi keyingi ta'lim turlarida axloqiy faoliyatda bo'ladi va uni bu faoliyati mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimiga baho berishning asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi.



Hozirgi kunda jamiyatimiz murakkab texnologik rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Unga ko'ra, texnikaga asoslangan texnologiyalarning ustuvorlik darajasi ortib bormoqda. Yaratilayotgan yangi-yangi texnologiyalar kelgusida inson axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydimi? mazmunidagi fikr kishining hayolidan o'tadi. Chunki, bugungi kunda odamlar o'zaro munosabatlardan ko'ra, texnik vositalar bilan ko'proq muloqotda bo'lmoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy faoliyatga tayyorlash muhim o'rin tutadi. Ular texnologiyani chuqur o'zlashtirsin, lekin negizida milliy qadriyatlar ufurib turgan axloqiy faoliyat asoslari bilan qurollanishi kerak. Diqqat qilinsa, bu borada maxsus yondashuv va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faolligiga ehtiyoj seziladi. E'tibor berilsa, axloqiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan axloqiy odobni shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli mazkur masalada maqsadli yondashuvlarni tarkib toptirish, umuman, boshlang'ich ta'limga hozirgi munosabatlarni butunlay yangilash taqozo etiladi. Maktabgacha ta'lim bolani jamiyatga yo'naltirsa, boshlang'ich ta'lim esa, uni aynan shaxs sifatida dastlabki bosqichda shakllantirishini unutilib bo'lmaydi.

Axloqiy madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri axloqiy munosabatdir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilrida axloqiy munosabatni tarkib toptirish uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi: a) ezgulik; b) halollik; v) adolatlik. Axloqiy munosabatning muhim asoslaridan biri ezgulikdir. Shu sababli muqaddas Avesto kitobida insonni ezgulashtirish bosh maqsad sifatida belgilangan [5]. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy munosabatni shakllantirish uchun ularda yaxshilik, o'zgalarni hurmat qilish va fikrini oshkora bildirish ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Chunki, bu ko'nikmalar negizida ezgulikning asosi bo'lgan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal o'z aksini topgan. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, bola oiladan topmagan narsasini o'zgalardan, jumladan, maktabdan izlaydi. Shu sababli jamiyatimizning faol fuqaroga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ezgnulik fazilatini shakllantirish ta'lim mazmunining asoslaridan biri sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kundagi boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasida qanchalik murakkab va ulug'vor vazifalar turganligini mana shu yondashuv bilan ham idrok etish mumkin. Axloqiy madaniyatning asoslaridan bo'lgan axloqiy munosabatni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish uchun ularning halollik ko'nikmasini tarkib toptirish ham dolzarb bo'lib turibdi. Aslida boshlang'ich sinf o'quvchilari halollik ko'nikmasiga ega. Biroq, ta'lim jarayonida, oila hayotida va ijtimoiy faoliyatda turli holatlarning mavjud bo'lishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining halollik ko'nikmasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va sinf rahbarlari o'quvchilarning aynan mana shu ko'nikmasi borasida maqsadli yondashuvga ega bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, hech bir ota-ona farzandining nohalol ko'nikmaga ega bo'lib o'sishini istamaydi. Biroq, bolada halollik ko'nikmasini tarkib toptirish metodikasiga ega emas. Shu sababli mazkur vazifa ham boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshirilishi muhim ahamiyatga egadir. Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni jamiyatga tayyorlash vazifasini bajaradi. Mazkur masalani oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining idrok etishi muhim o'rin tutadi. Axloqiy munosabatning tarkiblaridan biri bu – adolatlikdir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi o'zgalarni ham o'zidek his etishi kerak. Agar boshlang'ich sinf o'quvchisiga nimaki kerak bo'lsa, o'zgalarga ham shu narsa kerak. Mana shunday ko'nikmaga ega bo'lish boshlang'ich sinf o'quvchilarida adolatlikni tarkib toptirish imkonini beradi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich

sinf o'quvchilarining his-tuyg'ularini to'g'ri rivojlantirish bilan ularda adolatlik ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Pedagoglar to'g'ri ta'kidlashganidek, boshlang'ich sinf o'quvchisi yozuv yozilmagan opproq qog'oz, shu qog'ozga nima yozilsa o'z aksini topadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida adolat ko'nikmasini tarkib toptirish naqadar zaruriyat ekanligini belgilaydi.

E'tibor berilsa, axloqiy munosabatning asosini ezigulik, halollik va adaolatlik ko'nikmalari tashkil etadi. Bu ko'nikmalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shallantirish bilan ularni ahloqiy munosabatlarga to'g'ri o'rgatish mumkin. Diqqat qilinsa, axloqiy madaniyatning muhim tarkiblari bu axloqiy ong, axloqiy odob va axloqiy munosabatdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ularni tarkib toptirish bilan axloqiy madaniyatni kutilgan darajada shakllantirish mumkin. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, axloqiy madaniyatning muhim mezonlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uni shakllantirish mumkin. Bunday mezonlarning eng muhimlari axloqiy bilim, axloqiy tafakkur va axloqiy normalar ekanligini eslatib o'tish joiz. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda axloqiy madaniyatni shakllantirish metodikasi bilan qurollantirish ham dolzarb bo'lib turibdi. Bizningcha, buning uchun quyidagilarga tayanish kutilgan samarani beradi: a) mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida axloqiy madaniyat asoslari to'g'risida kasbiy bilim berish; b) tarbiyaviy tadbirlar vositasida axloqiy madaniyatning ahamiyati bilan tanishtirish; v) haftalik pedagogik amaliyot davrida axloqiy madaniyat bo'yicha o'zlashtirganlarini tajriba-sinovdan o'tkazish. Bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'ziga xos axloqiy madaniyatni shakllantirish metodikasini tarkib toptiradi.

**Xulosa.** Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyati tarkibi muhim xususiyatlarga ega. Uni shakllantirish uchun mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va sinf rahbarlarining faol bo'lishi taqozo etiladi.

#### Adabiyotlar:

1. «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» davlat dasturi: [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T., 2009.
3. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. - T., 2023.
4. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-t. - T., 2015.
5. Avesto / M.Ishoqov tarjimai. - T., 2001.

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA**

**Камилова Н.Г., Хасанбекова А.**

Ценностно-нормативная система подростков – детерминанта девиантного поведения.....3

**Камилова Н.Г., Анварова Н.**

Психологические детерминанты буллинг-поведения среди младших школьников и подростков.....8

**Арипов Ш.О.**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash metodlari.....13

**Xusanov F.O.**

Pedagogik faoliyatlarda ta'lim texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xosligi.....18

**Ким И.Н.**

Возможности и проблемы использования цифровых технологий в дошкольном образовании.....23

**Nurmatova I.T.**

Maktangacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishda musiqiy teatr faoliyatlarining roli.....25

**Гафурова Н.М.**

Различные модели темперамента: особенности и сходства.....29

**Matupayeva Sh.Z.**

Inklyziv ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'limda fanlarini o'qitishning didaktik imkoniyatlari.....34

**Qaraxnova L.M.**

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda xalqaro baholash tadqiqotlari dasturidan foydalanishning samaradorligi.....38

**Vaxobov A.A.**

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining harbiy pedagogik madaniyatini shakllanishi va rivojlanishi.....43

**Kuchkinov A.Yu.**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ta'lim asosida ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli.....49

**Оразбаева Г.Ж.**

Проблемы самоактуализации подростков в современном обществе.....53

**Менгаров Х.Э.**

О методических аспектах понятия «предельного перехода».....57

**Odilbekov M.M.**

Xususiy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....62

**Соатова Ш.А.**

Развитие лидерства через активное участие студентов в общественной жизни университета.....67

**Jabbarova O.M.**

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish asoslari.....71

**Ochilov F.I.**

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida rivojlantiriladigan tabiiy-ilmiy tafakkur mazmuni.....74

**Shoyimova Sh.S.**

Kasbiy so'nish shifokor-pedagog shaxsining ijtimoiy-psixologik muammolaridan bir sifatida.....79

**Sangindikova N.J.**

Iroda sifatini eksperimental o'rganish.....82

**Yusupova K.N.**

Dars jarayonida kreativ ta'lim muhitini tashkil etishning ahamiyati.....86

**Камилова А.Б.**

Педагогические аспекты формирования регулятивных действий у учащихся начальных классов.....90

**Mirzaev A.M.**

Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kursantlar belbog'li kurash bo'yicha tayyorgarlikni oshirishning innovatsion usullarini o'rganish imkoniyatlari.....94

**Наримбетова З.А.**

Общие вопросы методики обучения решению задач в начальных классах.....98

**Jabbarov Z.R.**

Harbiy ta'limda inovatsion texnologiyalarni joriy etish va ta'lim sifatini takomillashtirish.....102

**Umarova Z.A.**

Maktab ta'limida pedagogik konfliktlarning turlari va ularni bartaraf etish.....108

**Tilavova S.B.**

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirishda Steam yodashuv.....113

**Капалыгина И.И., Шестирева Н.Г.**

Педагогические условия формирования асертивных свойств личности в социальной сети.....117

**Hasanov T.A.**

Ijtimoiy va huquqiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlarni ijtimoiy himoya qilish yo'nalishlari.....121

**Yakubova S.K.**

Yengil dizartriya bolalarda monologik nutqini rivojlantirish.....127

**Turakulov B.N.**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ekopsixologik kompetentligini takomillashtirish muhim pedagogik muammo sifatida.....131

**Xusnetdinov U.I.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba yoshlarida ekologik madaniytni shakllantirish.....136

**Karimjonov A.**

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion pedagogik tajriba faoliyatini o'rganish.....141

**Nurgizarova Z.B.**

Pedagogik ta'limda psixologik tasvirini ochib berish mahorati.....145

**Jabborova O.M., Sapparbaeva D.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi.....148

**Musurmonova M., Kumush Z.N.**

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda foydalanadigan o'quv vositalari.....153

**Tashpulatova D.M.**

Maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish metodikasi.....156

**Sultonova A.M.**

Malaka oshirish tinglovchilari uchun fanlarda integratsiyalashgan ta'lim.....160

**Kalimbetov B.I.**

Talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish.....163

**Mamatova A.M.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyati tarkibi.....167

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY  
NAMED AFTER NIZAMI

PEDAGOGICA

(scientific-theoretical and methodical journal)

№ 6

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН  
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ им. НИЗАМИ  
ПЕДАГОГИКА

(научно-теоретический и методический журнал)

№ 6

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

**Mas’ul kotib** – R.M.Medetova

**Muharrirlar** – M.X.Azizova, X.M.Tojiboyeva

**Sahifalovchi** – S.Pirmatov

**Nashr ko’rsatkichlari:**

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077

Jurnal 2000-yildan chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2023-yil 30-oktabr bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.

Adadi – 134 nusxa. 24 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100<sup>1</sup>/<sub>16</sub> “Arial CYR” garniturası.

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nash” bo’limida bosildi.

100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko’chasi, 27-uy.